

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TAHLIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**«OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI**

**«YOG'-MOY MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QADOQLASH  
TEXNOLOGIYASI» fanidan**

# **O'QUV USLUBIY MAJMUA**

Tahlim sohasi: 320000 – Ishlab chiqarishlar texnologiyalari

300000 – Ishlab chiqarish. Texnik soha.

Tahlim yo'nalishi: 5321000-Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab  
chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi (mahsulot  
turlari bo'yicha)

**“Yog’-moy maxsulotlarini saqlash va qadoqlash”** fani Namangan muhandislik-texnologiya instituti Kengashining 2020 yil 28 avgustdagি 1- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchilar:

(PhD) D.A. O’ktamov

ass. SH. A. Sodiqova

ass. U. N. Nishonov

Taqrizchi:

dost. X. Qanoatov NamMTI dostent

O’quv-uslubiy majm

ua Namangan muhandislik-texnologiya institutning ilmiy-uslubiy kengashida ko’rib chiqilgan va o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

(\_\_\_\_ - yig’ilish bayoni, \_\_\_\_ 2020yil.)

## **MUNDARIJA**

- I. O'QUV MATERIALLARI**
- II. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI**
- III. GLOSSARIY**
- IV. ILOVALAR**

O'QUV MATERIALLARI

**1-MA’RUZA**  
**FANGA KIRISH. YOG’-MOY SANOATINING RIVOJLANISH**  
**ISTIQBOLLARI**

**Reja:**

1. Yog’-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi fanining rivojlanishi haqida.
2. Yog’-moy omborlari tuzilishi va vazifasi.
- 3 Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatli qadoqlash vazifalari.

**1.Yog’-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi fanining rivojlanishi haqida.**

Dunyoda bugungi kunda aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda va oziq-ovqatga bo’lgan maqbul darajadagi ehtiyojini qondirishda oziq-ovqat sanoati muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun mahalliy oziq-ovqat va xomashyo ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, bozorga xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini istehmol mehyorlarida o’rnatilgan assortimentda etkazish asosiy vazifalardan biri bo’lib qolmoqda.

Mustaqillikka erishgandan keyin yurtimizda yuqori texnologiyalarga asoslangan oziq-ovqat sanoati shakllanib, bugungi kunda iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Oziq- ovqat xavfsizligini ta’minlash, ichki bozorni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to’ldirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi quvvatlarni ishga tushirishga alohida ehtibor qaratilib, import o’rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlash o’zlashtirilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni rag’batlantirish hamda qo’llab-quvvatlash bo’yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishning o’sishini ta’minlamoqda.

Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, hususan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 19 yanvaridagi PQ-3484-sonli “Yog’-moy tarmog’ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.

Hukumat rahbari tomonidan qabul qilingan mazkur qaror yog’-moy korxonalarini jadal rivojlantirishni ta’minlashga yo’naltirilgan bo’lib, korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirishning yangi bosqichini boshlab beradi. YOg’-moy mahsulotlarining assortimentlarini kengaytirish, sog’lom raqobat muhitini yaratish, mahsulot sifatini oshirish, aholining ehtiyojini kafolatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

“O’zpaxtayog”” akstiyadorlik jamiyatni tizimidagi yog’-moy korxonalarini tomonidan mavjud texnologiyalarni jadal rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ishlab chiqarilayotgan oliy navdagi paxta moyini sifatli tarzda aholiga etkazish maqsadida korxonalar tomonidan PET butilkalar bilan birga shisha butilkalarga PREMIUM klasdagi paxta moylari qadoqlash yo’lga

qo'yildi. Bularga misol tariqasida Xorazm viloyatidagi "Urganch yog'-moy" AJ tomonidan "MARVARID", Namangan viloyatidagi "Uchqo'rg'on yog'" AJ tomonidan "IDEAL", Navoi viloyatidagi "Vang'ozi agro eksport" MCHJ tomonidan "Go'zal tong" va Toshkent shahridagi "Toshkent yog'-moy kombinasi" AJ tomonidan Premium klasidagi oliy navli paxta moylarini shisha butilkalarga qadoqlangan holda aholiga etkazib berish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa "Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi" fanini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

## **2.Yog'-moy omborlari tuzilishi va vazifasi.**

Korxonaning moy va yog' omborlari quyidagilarni ta'minlaydi: – sutka va yilning istalgan vaqtida moy va yog'larni qabul qilish va jo'natish; – moy va yog'larni qabul qilish, saqlash va jo'natishning barcha jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish; – saqlanayotgan moy va yog'larni qabul qilib olish, saqlash hamda jo'natishda yo'qotish va sarflar minimal darajada bo'lgani holda, ularning oziqa sifatlarini maksimal darajada saqlab qolish.

Baklarning zaruriy hajmi ko'pgina omillar bilan belgilanadi, ularga moy va yog'lar assortimenti, yog'larning korxonadagi sutkalik aylanmasi, kelib tushishi va jo'natilishidagi notejislik, shuningdek, korxona faoliyatining turli tomonlari bilan bog hliq boshqa shart-sharoitlar kiradi. Ana shunga muvofiq korxona quyidagilarga ega bo'llishi kerak:

- temiryo'l sisternalarida tashiladigan yog hlarni qabul qilish va jo'natish uchun to'kish-quyish qurilmalari;
- avtosisterna va bochkalarda tashiladigan yog'larni qabul qilish va jo'natish uchun to'kish-quyish qurilmalari;
- moy baklari;
- temiryo'l va avtomobil yo'llari.

Qator hollarda korxonalarining o'zida temiryo'l va avtomobil sisternalarini tozalash uchun yuvish-bug'lash punktlari mavjud. Korxona hududida alohida inshoot va qurilmalarning joylashishi mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqib, turlicha bo'llishi mumkin. Baklar yong'inga qarshi yoriqlarga rioya qilgan holda o'rnatiladi. Bundan tashqari, qo'shni inshootlarda avariya holati yuzaga kelganda baldarga zarar etmasligi ham ko'zda tutiladi. Yonma-yon joylashgan ikkita moy baki o'rtasidagi eng kam masofa ularning eng kattasi diametrining yarmidan kichik bo'lmasligi zarur. Alovida turgan moy baldari va umumiy hajmi  $10000\text{ m}^3$  dan oshmaydigan bak guruhlari joy relefini hisobga Olgan holda yaxlit er ko'tarmasi, yonmaydigan devor yoki ikkalasi bilan ham to'silgan bo'llishi kerak. Bu to'siqlar moy baldariga zarar etganda yog'ning korxona hududiga oqib chiqishining oldini oladi.

Er ko'tarmasi yoki devor moy baldariga zarar etganda qulab ketmasligi va moy to'siqli tashqariga oqib ketmasligini hisobga olib o'rnatilishi lozim. Er ko'tarmasi va to'siq devor o'z balandligi bo'ylab zarar etgan va ag'darilib ketgan baldardan oqib

chiqqan moyning dinamik zARBASIGA bardosh berishi kerak. Ko'tarma yoki devor balandligi to'silayotgan maydon kattaligini hisobga olib belgilanadi, to'siq balandligi to'silgan baklardan oqib chiqqan yog'ning ko'tarilishi mumkin bo'lGAN darajasidan 0,2 m baland bo'lishi, ammo **I** m dan past bo'lmasligi lozim.

Moy baklari ularning er sathidagi qismi hajmidan kichik bo'lMAGAN hajmdagi chuqurlikka joylashtirilishi mumkin. Chuqurlik balandligi **1** m dan past bo'lMAGAN to'siq bilan o'raladi.

**Baldar** joylashtirishining taxminiy chizmasi quyidagicha ko'rsatilgan: asfalt yoki beton bilan qoplangan maydonda **baldar** joylashtirilgan; moy baklari atrofidagi hudud to'kilgan moy yoki yog'ni tutib qolish uchun mo'ljallangan moy yig'uvchi tomonga qarab qiyalik (0,004 dan kam emas) bo'lishi kerak, yig'ilgan yog'ni tezlik bilan tortish uchun nasos stanstiyasidan moy yig'uvchi tomonga moy quvuri tortiladi. Er ko'tarmasi yoki to'suvchi devor bilan o'ralgan baldarning har bir guruhida to'siqning yuqorisidan kamida ikkitadan o'tish joyi jihozlanadi.

### **3.Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatli qadoqlash vazifalari.**

Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini va tashqi ko'rinishini, saqlanishini, tashish va savdoga chiqarish sanitark-gigienik sharoitlarini yaxshilash, hamda mahsulotning turi va navi, massasi, istehmol qilish haqida kerakli mahlumotlarni bayon etish uchun ularni zamонавиy materiallardan foydalanib qadoqlash - dolzarb vazifalardan biridir.

Qadoqlashning vazifasi, mahsulotni ishlab chiqarishdan istehmol qilishgacha bo'lGAN davrda miqdori, tarkibi va sifatini, istehmolchilik xossalarni o'zgarishidan himoyalash, yahni mahsulotning belgilangan mehyorlardan chetga chiqishining oldini olishdan iborat. Qadoqlashning bu vazifasi mahsulotni mexanik, fizik, kimyoiy, ob-havo va biologik tahsirlardan saqlashni nazarda tutadi.

Qadoqlashning xushbichim shakli, chiroli ko'rinishi nafaqat qadoqlangan mahsulotni, balki uni ishlab chiqaruvchisini va hatto ishlab chiqarayotgan boshqa mahsulotlar uchun ham reklama vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bahzi hollarda qadoqlash chiroli, xushbichim, takrorlanmas ko'rinishda bo'lishi talab qilinsa, boshqa hollarda oddiy bo'lishi talab qilinadi. Masalan unni chiroli bezak berilgan idishga qadoqlashning hojati bo'lMAGAN holda, qandolat mahsulotlarini un solinadigan qoplarga qadoqlash hech bir talabga javob bermaydi.

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1.Mustaqillikka erishgandan so'ng, yog'-moy sanoatini rivojlanishi.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 19 yanvaridagi PQ-3484-sonli qarorini mohiyati nima?
- 3.Baklarning zaruriy hajmi nimalarga bog'liq?
- 4.Qadoqlash vazifasi.



## 2-MA'RUZA

### YOG'-MOY MAHSULOTLARINI QADOQLASH

### TEXNOLOGIYALARI VA USULLARI

**Reja:**

- 1.Qadoqlash vositalari.
- 2.Qadoqlashda qo'shimcha va yordamchi materiallar
3. Moy va yog'larni barqaror saqlashga tafsir qiluvchi omillar.

#### **1. Qadoqlash vositalari.**

Vazifasiga ko'ra qadoqlash va joylash vositalari ikki guruhgaga bo'linadi: qattiq va yumshoq. Yumshoq qadoqlash vositalari o'zining shaklini saqlab tura olmaydi, uning tuzilishi qadoqlangan mahsulotning shakliga bog'liq bo'ladi. YUMshoq qadoqlash va joylash vositalari. Ulardan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda paketlar, xaltachalar va xaltalardan foydalaniлади. Bu vositalarni tayyorlash uchun material sifatida qog'oz, sintetik plenka va kombinatsiyalangan materiallar ishlataladi.

**Paketlar va xaltachalar.** Paketlar va xaltachalarning asosiy afzallikkleri - massasi va egallab turgan hajmining kichikligi, past tannarxidir. Bu qadoqlash qoliplari qo'lда ham, mashinalar yordamida ham mahsulotlarni joylash imkonini beradi. Paketlar va xaltachalarga mahlumotlar va reklama matnlarining bosmasi ham yaxshi qabul qilinadi. Sochiluvchan va donador mahsulotlarni qadoqlashda ikkisi ham bir xilda yaroqli hisoblanadi. Paketning xaltachadan farqi shundaki uning yonlari buklanmagan, to'ldirilgan holatda tekis holatda bo'ladi.

**Xaltalar.** Ko'p qatlamlı qog'oz xaltalar (2 dan 6 qavatgacha) 1m<sup>2</sup> ning massasi 70-80 g bo'lgan natron qog'ozdan tayyorланади. Ularning mustahkamligi 25-50 kg gacha mahsulotni joylash imkonini beradi. Qog'oz xaltalar bir yoki bir necha qavat sintetik materialdan, yoki bu materiallarning qog'oz bilan kombinasiyalari bilan almashtirilishi mumkin. Bunday xaltalar namlikka chidamli, ozgina bug' o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi. Qog'oz xalatalar ikki turda ishlab chiqariladi: ochiq va yopiq (klapanli). So'nggisi kukunsimon mahsulotlarni qadoqlashda ishlataladi. Ochiq xaltalar qiya va buklangan tubli bo'ladi. Bunday xaltalar xaltachalar kabi tikiladi va payvandlanadi. Sunhiy materiallardan

tayyorlangan xaltalar asosan namligi yuqori bo'lgan mahsulotlarni qadoqlashda yaroqli hisoblanadi.

To'qimachilik sanoatida tabiiy (zig'irpoya-jut-kanop tolalaridan) va sunhiy tolalardan xaltalar tayyorlanadi.

**To'rxalta.** To'rxalta sintetik iplarga mo'ljallangan to'qimachilik kalavasidan tayyorlanadi. To'rxalta mahsulotlarni mexanik tahsirlardan himoyalay olmaydi. To'rxaltalar ko'pincha meva-sabzavot mahsulotlarini joylash uchun qo'llaniladi.

Qattiq qadoqlash va joylash vositalari. Qattiq qadoqlash vositalarining fazoviy shakli qadoqlangan mahsulotning o'lchami va xossalariiga tafsir ko'rsatmaydi. Tashqi mexanik tahsirlarda qattiq qadoqlash vositasining shakli juda kam o'zgaradi yoki umuman o'zgarmaydi va shu bilan shikastlanishlarga sezgir bo'lgan mahsulotlarni samarali himoyalaydi.

Qattiq qadoqlash vositalari qog'ozdan, kartondan, sunhiy materiallardan, metall, shisha, yog'och materiallardan tayyorlanishi mumkin.

**Qutilar** (yashiklar). Qadoqlash vositalarining bu turdag'i konstruksiyasiga karton qutilarni misol qilib keltirish mumkin.

Karton qutilar turli konstruksiyalarda va turli ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha tayyorlanadi. Ishlatiladigan materialidan kelib chiqib qutilar ishlov berilmagan va yuzasi silliqlangan bo'lishi mumkin.

Mahsulotlarini qadoqlashga mo'ljallangan yashiklar quruq bo'lishi kerak (yashik materialining namligi 12 % dan oshmasligi kerak). Bu quti va yashiklardan ko'p marta foydalanish mumkin.

**STilindrsimon bankalar.** Bunday bankalarning asosiy shakli bo'lib ichi bo'sh silindr hisoblanadi. STilindrsimon bankalarning afzalliklaridan bo'lib, ularning mustahkamligi va turg'unligi, mahsulotni joylash va berkitishdagi qulayliklari hisoblanadi. Ishlab chiqarish va omborxonalar maydonlaridan foydalanish samaradorligining pastligi, tashish va saqlashga xarajatlarning ko'pligi asosiy kamchiliklaridan hisoblanadi.

**Kombinatsiyalangan materialdan tayyorlangan silindrsimon bankalar.** Bankalar qog'oz, metall va sintetik materiallar kombinatsiyasidan tayyorlanishi mumkin. Ularning doimiy komponenti bo'lib, qog'oz-sunhiy material yoki alyuminiyli folga-qog'oz kombinatsiyasidan iborat o'rama qog'oz hisoblanadi. Bankaning ishlov beriladigan qismi metalldan (oqartirilgan yoki laklangan po'lat yoki alyuminiy varag'i) yoki sintetik materialdan (polietilen, polisterol) tayyorlanishi mumkin. Bunday bankalarning qopqog'i maxsus ko'rinishlarda (masalan purkagich vazifasini bajaruvchi) tayyorlanishi mumkin. Berkitilish usullari xuddi metall bankalarniki singari bo'ladi.

Kombinatsiyalashgan materiallardan tayyorlangan bankalar zich berkitilishi ularda bug', gaz va hidllardan himoyalanishi kerak bo'lgan pastasimon va suyuq (uglerod ikki oksidigi ega bo'lмаган meva sharbatlari, yog'lar, moylar, asal va boshqalar), donali mahsulotlar (masalan kofe) va shuning bilan birga kukunsimon

oziq-ovqat mahsulotlarini (kakao, sut kukuni) qadoqlash imkonini beradi. Ko'pgina hollarda bunday bankalar metall bankalarning o'rniда foydalaniladi.

Metall bankalar qalinligi 0,14-0,28 mm bo'lgan po'lat, bahzida esa alyuminiy varaqlaridan tayyorlanishi mumkin. Metall bankalarning tubi va qopqog'i yumaloq shakldagi metall varaqlaridan tayyorlanadi. Qopqog'i alohida tayyorlangan va qistirib qo'yiladigan bankalar kuchli mustahkamlikka va qadoqlash xususiyatiga ega va mos yopiladigan vositalari mavjud bo'lganda kukunlar va suyuqliklarni qadoqlash uchun ham yaroqli bo'lisi mumkin. Bunday qopqog'i qo'zg'aluvchan bankalar kam mustahkamlikka ega bo'ladi va shikastlanishga kamroq sezgir bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda qo'llanilishi mumkin. Bu bankalarni to'ldirish va berkitish texnik darajasi turlicha bo'lgan sexlarda oson mexanizatsiyalashtirilishi mumkin.

Alyuminiy bankalar odatda turli qismlardan iborat bo'ladi va turli xil texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan tayyorlanadi.

Qopqog'lari berkitilgan metall bankalar (konserva bankalari) suv, bug' va hidli moddalarning o'tishini oldini olinishi va sterilizatsiyalanishi mumkin. Mahsulot va tashqi muhit bilan tahsirlanishing oldini olish uchun metall bankalar himoya qoplami bilan qoplanadi. Qoplama qoplash, ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqib, oldindan yoki banka tayyor bo'lgandan so'ng amalga oshiriladi.

Metall bankalar maxsus himoyani talab qiladigan mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladi.

## 2. Qadoqlashda qo'shimcha va yordamchi materiallar

**Elim.** Qadoqlash uchun tabiiy va sintetik elimdan foydalaniladi. Tabiiy elimlar minerallardan, o'simliklardan va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan bo'lisi mumkin. Sintetik elimlarni ishlab chiqarish uchun issiqlik tahsirida yumshaydigan va qotadigan sintetik smolalar va sunhiy moddalardan foydalaniladi.

Tarkibi va konsistensiyasiga ko'ra elimlar qattiq, suyuq, suvda yoki organik erituvchilarda eriydigan, suvli dispersiya ko'rinishida bo'lisi mumkin.

*O'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan elimlar.* O'simliklardan tayyorlangan elimlar orasida tarkibida kraxmal mavjud bo'lgan elimlar katta ahamiyatga ega. Termik ishlov berish natijasida suvgaga aralashtirilgan bug'doy, makkajuxori va kartoshka kraxmali kleysterlanadi, natijada qog'ozlarni elimlash uchun yaroqli, quruq moddalarining miqdori kam bo'lgan elim tayyor bo'ladi, ammo elimlash jarayoni uzoq davom etadi. Kimyoviy moddalar qo'shilganda kraxmalning eruvchanligi ortadi va elimlash mustahkamligi oshadi. Foydalanishdan oldin bunday elimni sovuq suvda eritish kerak, xolos.

K r a x m a l d e k s t r i n e l i m i - modifikatsiyalangan kraxmaldan iborat. U och sariq rangdagi kukun, issiq suvda istalgan nisbatlarda eriydi. Dekstrindan quruq moddalarining miqdori katta bo'lgan va bog'lanish kuchi yuqori bo'lgan elim tayyorlanadi. Elimlash tez amalga oshadi va bu elimdan katta tezlikda ishlovchi

qadoqlash mashinalarida foydalanish mumkin. Kraxmal asosida tayyorlangan elim qutilar va xaltalarni tayyorlash va berkitishda, turli xil qog'ozlarni elimlash, yorliqlarni yopishtirishda keng qo'llaniladi.

*Hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan elimlar.* Hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan elimlarda oqsillar asos bo'ladi.

Kazein - sutdan kislotalar yordamida cho'ktirish yo'li bilan tayyorlanadi. Kazein oddiy suvda bo'kadi, ammo ishqorli suvda eriydi. Quriganidan so'ng kazein elastik, yaxshi yopishuvchi qatlam hosil qiladi; kazein elimi asosan qog'oz va pergamentni ishonchli elimlaydi, u ko'pincha metall bankalar, shisha va chinni idishlarga yorliqlarni yopishtirishda ishlatiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mo'ljallangan qadoqlash vositalarini elimlashda shuni unutmaslik kerakki, barcha o'simlik va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan elimlar mikroorganizmlar uchun yaxshi oziqaviy muhit hisoblanadi, shuning uchun ularga konservlovchi moddalar qo'shish kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda hayvonlardan tayyorlangan elimlar hidining yoqimsizligi uchun qo'llanilishi chegaralangan.

*Sintetik elimlar.* Keyingi yillarda sintetik smolalar asosida tayyorlangan elimlar keng qo'llanilmoqda. Ularning tez ommaviylashuviga sabab, ular qadoqlash vositalarini elimlashga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Sintetik elimlardan p o l i v i n i l a t s e t a t elimi kengroq tarqalgan. Bu elim oq rangli elastik plenka hosil qiluvchi tez boshlang'ich elimlash xossalariiga ega. elimning xossalari yaxshilash uchun plastifikatorlar va to'ldiruvchilar qo'llaniladi. Sintetik elimlar qog'oz, karton, viskoza plenkasi, alyuminiyli folga va sintetik materiallarni elimlashga yaroqli hisoblanadi, qutilar va paketlarni tayyorlash va berkitish, yorliqlarni yopishtirishda keng qo'llaniladi. Elimlovchi qatlamning yuqori turg'unligi elimning turiga bog'liq. Sintetik elimlarning haroratga bardoshliligi o'rtacha.

P o l i v i n i l a l k a g o l - kolloidlardan tuzilgan va suvli eritma ko'rinishida qo'llaniladigan yuqori sifatli elim. Uning elimlash kuchi tabiiy manbalardan tayyorlangan elimlarga qaraganda ancha baland. elimning kamchiligi bo'lib suvga chidamliligining pastligi hisoblanadi.

*L a t e k s* sunhiy kauchukning suvdagi dispersiyasidan iborat. U elimlovchi muddasining elastikligi sababli keng qo'llanilmoqda. Lateks namanganidan so'ng elimlovchi xossaga ega bo'ladigan lentalar va etiketkalar tayyorlashda ishlatiladi.

Yopishqoq lentalar. YOpishqoq lentalar qadoqlash va joylash vositalirining tarkibiy qismlarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Lentalarning o'zi elimlanuvchi, namlangandan yoki qizdirilgandan so'ng yopishqoq bo'ladigan turlari ham mavjud.

*Yopishqoq qog'oz lentalar.* 1 m<sup>2</sup> ning massasi 40-50 yoki 70-90 g bo'lган natron qog'ozdan tayyorlanadi. Qog'ozning 1 m<sup>2</sup> yuzasiga 20-24 g suyakdan

tayyorlangan elim surkaladi. elimlash kuchi elimlovchi qavatning sifati va elimlash sharoitlariga (masalan nisbiy namlikka) bog'liq bo'ladi.

*O'zi elimlanuvchi yopishqoq lentalar* - bir tomonidan elimlovchi moddali qavatga, ikkinchi tomonidan ajratuvchi (qoidasiga ko'ra silikon qavati) qavatga ega bo'ladi.

Lentaning elimlash kuchi deyarli o'zgarmaydi va atrof muhit sharoilariga bog'liq bo'lmaydi. O'zi elimlanuvchi lentaga viskoza, polivinilxlorid yoki poliester plenka va qog'oz material bo'lib xizmat qiladi.

Bog'lagichlar. Qandolat mahsulotlari qadoqlangan qutichalar, paketlar va xaltachalarni bezatish va bog'lash uchun turli materiallar ishlatiladi. Ko'pgina hollarda buldyug va ipak lentalar bog'lagich sifatida qo'llaniladi.

*Buldyug* - tolalarni elimlab tayyorlangan kambar (ensiz) lenta ko'rinishidagi sariq, qizil va yashil rangli bog'lagichdir. U qandolatchilik korxonalariga g'altakka o'ralgan 1000 yoki 2000 m uzunlikdagi lenta ko'rinishida keltiriladi.

*Ipak tasma* viskoza ipagidan tayyorlanadi va uni eni 12 mm ga teng. Bu bog'lagichning ko'pincha ochiqroq ranglari ishlatiladi.

### **3. Moy va yog'larni barqaror saqlashga tahsir qiluvchi omillar.**

Yog' va moylarni uzoq vaqt saqlaganda ularning sifati buziladi. Bunday sabablardan biri moylarning kislород bilan reaksiyaga kirishib, organoleptik ko'rsatkichlari va biologik xususiyatlarini yomonlashtiruvchi hidlanish mahsulotlari hosil bo'lishidir. SHuning uchun moylarni sifatli saqlash uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

Moylar saqlanganda gidrolitik va oksidlanish natijasidagi buzilishlari iloji boricha kam bo'lishi kerak. Masalan: rafinasiyalanmagan, gidratlangan, kungaboqar va soya moyi kislota soni oliy nav uchun 0,5 mg KON va I - nav uchun 1,75 mg KON dan oshmasligi kerak. Rafinasiyalanmagan gidratlangan va rafinasiyalangan moylar uchun perekis soni 0,25% dan oshmasligi kerak.

Gidralistik jarayonlarni moy sifatiga tahsirini kamaytirish uchun moylarni 0, I %dan ko'p bo'lмаган namlikda saqlashga qo'yiladi, saqlash nam atmosfera havosi bilan tahsirlashmagan holda amalga oshiriladi.

Moylarni oksidlanishdan saqlashni muhim omili uni havo kislороди bilan tahsirlashishini kamaytirish hisoblanadi, bunga germetik idishlarni qo'llash bilan erishish mumkin. Yana idish shaklini tanlash, yahni havo bilan tahsirlashish yuzasi eng kichik bo'lishi kerak, inert gazlardan foydalanish (kislородни haydash uchun va yog' yuzasida himoya qatlama hosil qilish uchun), moylarni deaeratsiya qilish va boshqalar. Lekin shuni ehtiborga olish kerakki, inert gazlarning kislород bilan hatto 3%li aralashmasi amalda moyni oksidlanishdan himoyalay olmaydi, bir qator hollarda saqlanayotgan moy sifatining buzilishi qayd etilgan.

Harorat oshishi bilan moy komponentlarining kislorod bilan tafsirlanishining oshishini hisobga olib, moylarni saqlashni imkon boricha past harorat va issiqlikdan yaxshi himoyalangan idishlarda saqlash maqsadga muvofiq.

Metall idishlardan moyga metall katalizatorlari oksidlanib o'tishining oldini olish uchun idish maxsus himoya qatlami bilan qoplangan yoki tegishli metall, masalan, titan quymalaridan tayyorlangan bo'lishi kerak.

Qotib qolgan moy va yog'larni qizdirish hollarida ularni suvlash va joyni qizdirishga yo'l qo'yilmaydi, bu hol mahsulot sifatining keskin pasayishiga olib keladi.

Boshlang hich yog' va moylarning sifatini saqlash uchun ularning eskilari bilan aralashishi maqsadga muvofiq emas, buning uchun haydashda alohida quvur tizimi qo'llanishi kerak.

Moylarning oksidlanishi murakkab jarayon bo'lib, erkin radikallar ishtirokida zanjir mexanizmi bo'yicha ketadi. Erkin radikal  $\text{R}^{\bullet}$  oksidlanish jarayonining zanjirini boshlovchi aktiv bir bo'lak hisoblanadi. Molekular kislorod tafsirida erkin radikal yangi perekis radikali hosil qiladi. U esa boshqa yog' kislotasi bilan reaksiyaga kirishib, yana dastlabki erkin radikal va oksidlanish reakstiyasining asosiy mahsuloti bo'lgan yog' kislotasining gidroperekisi hosil bo'ladi. Jarayonga yangi kislorod va yog' kislotalari molekulalari jalb etilib, zanjirli reakstiya davom etadi. Bu reakstiyaning tezlik konstantasi qo'shbog'lar soni ortishi bilan ortib boradi.

Agar reakstiya muhitida o'zgaruvchan valentli metallar bo'lsa, xususan, ikki valentli temir, yog' kislotalari gidroperekislari parchalanib, yangi erkin radikallar hosil qiladi. Ular esa, o'z navbatida, yangi oksidlanish zanjir reaksiyalarini boshlaydi. Oksidlanish jarayoni yangi fazaga tarmoqlangan zanjirli oksidlanish fazasiga o'tadi. Oksidlanish jarayonini tezlashtiruvchi birikmalar proksidant/ar deb ataladi. Oksidlanish jarayonining turg'un ikkilamchi mahsulotlari moyda to'planib, yangi oksidlanish zanjir reaksiyalarining manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, oksidlanish jarayonida karbonil birikmalarining ishtiroki moylarda quyi molekular erkin yog' kislotalarning to'planishiga olib keladi. Yog' kislotalar gidroperekislarning hosil bo'lish zanjirli jarayoni bilan bir vaqtida erkin radikallarning bir-birlari yoki ingibitorlar molekulalari bilan reaksiyaga kirishib, oksidlanish jarayonining ikkilamchi kam faol mahsulotlari yoki yangi yog' kislotalar molekulasi bilan reaksiyaga kirishmaydigan radikallar hosil bo'lishi mumkin. Natijada oksidlanish reaksiyasi zanjiri uziladi. Bunday oksidlanish zanjirini uzuvchi moddalarga tabiiy (tokoferollar) va sunhiy antioksidantlar kiradi. Moylarda birlamchi oksidlanish mahsulotlarining (perekislар va gidroperekislар) miqdori perekis soni bilan xarakterlanadi. Oziqa moylari uchun perekis soni 0,02 dan 0,30% oralig'ida bo'lib, 0,5%dan oshmasligi kerak.

Moylardagi ikkilamchi oksidlanish mahsulotlari strukturalarining murakkab va turli bo'lganligi uchun karbonil yoki benzinid sonlari bilan tavsiflanadi.

Oziqa kungaboqar moylarida karbonil birikmalar 0,5—12 mg% bo'lib, dezodoratsiyalanmagan kungaboqar moyida esa 5 mg% korich aldegididan oshmasligi kerak.

Oziqa moylarida petroleyn efirida erimaydigan oksidlanish mahsulotlari 0,1—0,5% oralig'ida bo'lib, 1% dan oshmasligi kerak.

Moylarning oksidlanishi ularning organoleptik ko'rsatkichlarining (tahmi va hidi) o'zgarishiga olib keladi. Saqlangan hid va tahmi aniq sezilayotgan moylarning yuqorida keltirilgan sifat ko'rsatkichlariga ahamiyat berish kerak.

Ayrim qattiq yog'lar, xususan, konditer yog'lari uchun turli darajada oksidlanganligini ko'rsatuvchi perekis sonining meyorlari belgilangan. Qattiq yog'larning perekis soni 0,025%dan oshiq bo'lmasa, yog' yaxshi saqlangan hisoblanadi. Perekis soni 0,65%dan oshiq bo'lsa, yog' juda taxir bo'ladi.

Oksidlanish reaksiyasining tezlashishi moylarning tarkibi va saqlash sharoitiga bog'liq. Avvalambor yog' kislota tarkibiga bog'liq bo'lib, to'yinmaganlik darajasining oshishi oksidlanish reaksiyasi tezligini oshiradi. Uchta qo'shbog'i bo'lgan yog' kislotali yog'larning oksidlanishiga chidamliligi juda past bo'ladi.

Oksidlanishni boshlab va tezlatib boruvchi moddalar guruhiba moylar tarkibida bo'ladigan gidroperekislar kiradi. Oksidlanishning boshlang'ich davrida gidroperekislar soni kam bo'lganida yog' kislotalarining parchalanishi quyidagi reaksiya bo'yicha boradi:



Gidroperekislar konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, gidroperekislar dimerlarining parchalanishi quyidagicha ketadi:



Yangi moyga 10%gacha oksidlangan moyning qo'shilishi, yahni perekis birikmalarining oz miqdori ham moyning saqlash davridagi chidamlilagini sezilarli pasaytiradi.

1-jadval

Moylarning turlari	Temir	Mis
Rafinatsiyalangan kungaboqar	0,5-1,5	0,005-0,1
Rafinatsiyalanmagan paxta	2,7-6,3	0,1-0,2
Rafinatsiyalanmagan soya	0,9-2,5	0,02-0,11

YUqorida aytib o'tilganidek, metallar ham moylarning oksidlanishini tezlashtiradi. Moylarda metallar moy kislotalari tuzlari shaklida bo'lib, ko'pgina metallar fosforitlar tarkibiga kiradi. SHuning uchun moylar gidratatsiya va rafinatsiyalagandan so'ng ular miqdori 5—10 barobar kamayadi. Moylar uzoq saqlansa, idish (tara) metalining moyga o'tishi kuzatiladi. Moy va yog'larning oksidlanishiga ko'proq mis, temir, marganes tahsir ko'rsatadi. Moylardagi mis va

temirning og'irlik ulushi mg/kg da ifodalanib, 1-jadvalda ko'rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

YUqorida aytib o'tilganidek, moylar oksidlanishining oldini olish uchun antioksidantlar ham qo'llaniladi. Sunhiy antioksidantlar toksik (zaharli) bo'lганligi sababli ularning miqdori yog' og'irligidan (0,28%dan) oshmasligi kerak.

SHu bilan birga, oksidlanish tezligiga turli qisqa to'lqin uzunligiga ega bo'lган nurlanishlar (**Y**-radiastiya, ultrabinafsha nurlanish va hokazo) ham tafsir qiladi. Bunda ham oksidlanish jarayonining rivojlanishida ishtirok etuvchi erkin radikallar hosil bo'ladi. Jigarrang yoki to'q yashil rangli shisha idishda saqlanayotgan moyning saqlanish muddati rangsiz shisha idishda saqlanish muddatidan 1,5—2 marta uzayadi.

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1.Yumshoq qadoqlash va joylash vositalari.
- 2.Qattiq qadoqlash va joylash vositalari.
- 3.Qadoqlashda qo'shimcha va yordamchi materiallar.
- 4.Moy va yog'larni barqaror saqlashga tafsir qiluvchi omillar.

## **3-MA'RUZA**

### **YOG' VA MAXSULOTLARINI QADOQLASH IDISHLARINING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI**

**Reja:**

- 1. Yog'-moy sanoatida ishlatiladigan upakovka va idishlar, ularning fizik-kimyoviy xossalari**
- 2. Yog'-moy sanoatida ishlatiladigan plastmassalar, ularning fizik-kimyoviy xossalari**
- 3. Ko'p qatlamli polimer va kombinirlangan qadoqlash malerallari, ularning fizik-kimyoviy xossalari.**

#### **Yog'-moy sanoatida ishlatiladigan upakovka idishlar fizik-kimyoviy xossalari**

Yog'och bochkalar quruqlik va dengiz hayvonlari yog'larini saqlash va tashishda ishlatiladi. Bochkalar hajmi 5, 15, 25, 50, 100, 125, 140, 200, 225 va 250 m<sup>3</sup> bo'lib, kedr, tog'terak (osina) va qoraqayin daraxtlaridan yasaladi. Bochkalarda teshik yo'qligi bochkalarga to'liq suv quyilgandan keyin 12 soatdan so'ng oqmasligi bilan tekshiriladi. Metall flagalar yog' va moylarni umumovqatlanish joylariga tashishda ishlatiladi. Flagalar hajmi 25, 30 litr bo'ladi.Yog'-moy mahsulotlarini qadoqlashda polimer materiallardan foydalaniladi, ular qadoqlangan mahsulot va atrof muhit ta'siriga kimyoviy chidamli, sapratligi yoniq nuqtayi nazardan toza, plastiklik va zARBAGA chidamli; past bug'-suv-gaz-yog' o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi, ko'tarilgan va pasaygan haroratlarga chidamli; tayyorlanishi sodda, tejamkor bo'lishi kerak.Kimyo sanoati tomonidan bugungi kunda chiqariladigan polimer materiallar va ular asosidagi kompozitsiyalar turlari ancha xilma-xildir.

#### **Yog'-moy sanoatida ishlatiladigan plastmassalar, ularning fizik-kimyoviy xossalari**

**Polietilen.** Qadoqlash ishida polietilen boshqa polimerlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi, u plyonka, varaq, shishiriladigan shisha, qo'shimcha qoplama, varaq ashyolar, qopqoqlar, tiqinchalar va taglamalar, penoplastlar, matomas materiallar tayyorlashga ishlatiladi. Polietilen etilenni ng polimerlanishidan hosil bo'lgan yuqori molekular mahsulotdir.Hozirgi kunda polietilen olishning bir necha sanoat usullari m'a'lum.

1. Yuqori bosim ostida etilenni polimerlash (1000—3500 kgs/sm<sup>2</sup>), harorat 200—300°C, initsatorlar (O<sub>2</sub> organik peroksidlar) ishtirokida radikal mexanizmi bo'yicha olinadi. Bunday polietilen yuqori bosim (PEVD; YBPE) yoki past zichlikka ega polietilen (PENP; PZPE) deyiladi.
  2. Past bosim (40 kgs/sm<sup>2</sup> + past), metall organik katalizatorlar ishtirokida, 80°C da, suspenziyadagi ion-koordinatsion mexanizmi bo'yicha etilenni polim erlash. Bunday polietilen past bosim (PEND; PBPE) yoki yuqori zichlikdagi (PEVP; YZPE) polietilen deyiladi.
  3. Past bosimda gaz fazada, kompleks metalli organik katalizatorlar yordamida etilenni polimerlash (PEND). Gaz fazali jarayonlar nisbatan sodda texnologik sxema bilan ajralib turadi. Gaz fazali usul bilan olingen polietilen suspenzion PENDdan tozaligi yuqoriligi, yuqori fizik-mexanik xossalari bilan farq qiladi.
- PEN D va PEVD turli muhitlar: kislotalar, ishqorlar, lu/li eritma va ba'zi boshqa organik erituvchilarda yuqori darajada kimyoviy chidamlidir. Ularga konsentrangan xlorid kislota ham, plavikovaya kislota ham ta'sir qilmaydi, lekin ular oksidlovchilarga nisbatan chidamli emas. PEN D PEVDga nisbatan spirtlar, yog' kislotalar, sovun ta'siriga chidamliroqdir. Ishlatilish sifatini va xossalari ko'ra, turli markadagi polietilenlar chiqariladi. PEVD asosan, iste'mol idishlari olish uchun ishlatiladi. PEVDdan idish tayyorlashning asosiy usullari: bosim ostida quyish; ekstruziya, puflashli ekstruziya, rotatsion shakllantirish, termo - shakllantirish. PEVD turli maishiy buyumlar va pylonka tayyorlashda keng qo'llaniladi. PEVDning oziqa markali pylonkasidan tayyorlangan 26 qoplar margarinli mahsulotlarni katta o'lchamli idishga (taxt a bochka, karton yashik) qadoqlashda pergament o'rniда ishlatiladi.
- PEN D nisbatan qattiq, zarbaga yuqori chidamli, kuchlanish ostida yorilishga chidamli, yuqori pishiqlik xossalari ega. PEN D PEVDni qayta ishlash usullari bilan qayta ishlanadi: bosim ostida quyish, ekstruziya, puflashli ekstruziya, rotatsion shakllantirish. PENDdan qolgan qutilar o'simlik [moylari tashishda](#) transport idishi sifatda foydalaniladi. 276-73 markali PEN D dan tayyorlangan kanistrlar gaz fazali usul bilan olingen va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsat berilgan, margin mahsulotlarini hidi va ta'mini yaxshilovchi aromatizatorlarni saqlash va [tashish uchun](#) ishlatiladi.

**Polivinil xlorid.** Polivinil xlorid (PVX) — vinil xloridni polimerlanishidan hosil bo'lgan yuqori molekular birikma hisoblanadi. PVXning xossalari va ishlatilish sohalari uning olinish usullariga bog'liq bo'ladi. Sanoatda PVXni suspenziyalni, blokli, emulsiyalni usullar yoki massada polimerlash bilan olinadi. PVX, odatda, 140—170°C da qayta [ishlanadi](#), bu sharoitda xlorid kislotaning ajralishi va qisman destruksiya jarayonlari sodir bo'ladidi, shuning uchun PVXning harorat muvozanatlilagini oshirish uchun polimerli maxsus qo'shimchalarni — muvozanatlovchilar qo'shiladi. Faqat stabilizator tutuvchi PVXlar qattiq shoxsimon mahsulotlar, konstruktiv material sifatida (quvur, idish, armatura va h.k.) ishlataladi, shuning uchun listlar va pylonkalar olishda mahsulotning elastiklik xossalari yaxshilash uchun PVXli plastifikatorlar, asosan, murakkab efirlar (dioktil va dibutilsebasinat, dioktilft alatlar) kiritiladi. Epoksidlangan o'simlik moylari (soya va boshq.) plastiklik xossalari yaxshilash xususiyatiga ega, ular PVXning oziqa navlari uchun plastifikator va stablizator sifatida keng ishlatiladi. Qattiq PVXlar pylonka yoki donacha ko'rinishida turli yarim qattiq idishlar (banka, butilka flakon, lotochka, korobka, baklajka) ishlab chiqarish uchun qo'llanadi. Shakllantirishning turli usullari bilan amalga oshirilishi mumkin: pnevmatik, vakuum-shakllash, listli yoki pylonkali materialni shtampovkalash, ekstrukziya va bosim ostida quyish donachalar, kukundan rotatsion shakllantirish.

**PVX pylonkalari.** PVX pylonkalari o'simlik moylari, mayonezva quyma margarinlarga idish tayyorlash uchun m o'ljallangan. Pylonka kuchsiz plastiklangan termoplastik material bo'lib, suspenzion polivinilxlorid, stabilizator va boshqa qo'shimchalar asosida tayyorlanadi. P-74EM navli pylonka mayonez va quyma margarinlar uchun stakancha

va qopqoq tayyorlash uchun m o'ljallangan, P-73EM plyonka esa o 'simlik moylari uchun shaffof baklajka tayyorlash uchun m o'ljallangan.Ko'rsatkichlari bo'yicha plyon ka tegishli talablarga javob berishi kerak.

PVX plyonkasi zaharli emas, ishlatilishda xavfsiz. Plyonka yomon alangalanuvchi va portlashga xavfsiz. 2 minutdan ko'proq vaqt  $175\pm2^{\circ}\text{C}$  harorat ta 'sir qilsa, vodorod xlorid va [vin ilxlorid ajralishi](#) mumkin. Bevosita olov tekkanda alangalanadi va o 'zgaradi.

Mumkin bo'lган chegaraviy konsentratsiya vodorod xlorid uchun 5 m g/m 3, vinil xlorid uchun — 0,1 m g/m 3.PVX plyonkalari mayonez va quyma margarin qadoqlash uchun stakancha va qopqoqla idish, o'simlik moyi uchun baklajka tayyorlashda ishlatiladi.

Quyma margarin stakancha va qopqoqlari PVXdan pnevmo shakllantirish usuli bilan «Illi» (Germaniya) «VanDam» (Gollandiya) va «Jon Voddington» firmalari uskunalarini yordamida olinadi. «Jon Voddington» firmasi uskunasining unumdorligi — 18000 dona/soat, «Illi» firmasi uskunasining unumdorligi:

stakancha tayyorlash — 28000 dona/soat, qopqoq tayyorlash — 24000 dona/soat; «VanDam» firmasi uskunasining unumdorligi: qopqoqla muhr urish — 24000 dona/soat; stakanchaga m uhr urish — 20000 dona/soat.

M ayonez uchun qopqoq va stakanchalarni ham «Illi» va «VanDam» firmasi uskunalariga pnevmo-shakllantirish usuli bilan olinadi.

Termo shakllantirish usuli bilan PVX plyonkalaridan polimer idishlar tayyorlash texnologik sxemasi quyidagi bosqichlarni o 'z ichiga oladi: plyonka o 'ramlarini tayyorlash, stakanchalarni shakl lantirish, stakanchalarning yon yuzasiga muhr urish, qopqoq tayyorlash, qopqoqlar yuzasigamuhr urish, tayyor mahsulot sifat nazorati, tayyor mahsulotning qadoqlanishi (o'rash).

**PVX kompozitsiyalar.** Plastifikatsiyalarni agan «Koriyent» markali polivinilxlorid (PVX) kompozitsiya puflash-ekstruziya usuli bilan o 'simlik moylari uchun ikki turdag'i butilkalarini tayyorlashda ishlatiladi. Kompozitsiya kukunsimon aralashma bo'lib, uning tarkibiga suspenzion PVX PVXs-5868PJ markali plastifikatsiyalovchi va muvozanatlovchi qo'shimchalar kiradi.Fizik-mexanik ko'rsatkichlariga ko'ra, kompozitsiya 4-jadvaldag'i talab va me'yordarga javob berishi kerak.PVXli kompozitsiyalarni yuqori harorat ta 'sirida ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida vodorod xlorid, yuqori nafas yo'llarigi salbiy ta 'sir qiluvchi vinil xlorid, dioktilftalat bug'lari ajralib chiqishi mumkin ( $175^{\circ}\text{C}$  dan yuqori). Vodorod xloridning ishchi zonasidagi mumkin b o lg an chegaraviy konsentratsiyasi 5 m g/m 3. Kompozitsiya qiyin yonuvchan kukunsimon massa. Moskva yog' kombinatida birinchi bo'lib puflash-ekstruziya usuli bilan o 'simlik moylarini qadoqlash liniyasi o 'rnatildi, bu usul PVXni katta miqdorda tejash imkonini bera di. PVX va polietilen chiqindilari qopqoq ishlab chiqarish uchun qaytadan ishlab chiqarishga berila di.Bu liniyada turli o 'simlik moylari uchun yumaloq va kvadrat shaklli butilkalar ishlab chiqariladi. Butilka ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'lib «Koriyent» markali PVX, qopqoq ishlab chiqarish uchun esa [polietilen xizmat](#) qiladi. PVXdan tayyorlangan polimer mahsulotlar yuqori kimyoviy turg'unligi va mexanik pishiqligi, kam miqdorda bug', gaz, suv o 'tkazishi, hidli moddalar kirishiga chidamliligi, amalda hidsiz, fiziologik jihatdan xavfsiz ekanligi bilan ajralib turadi. PVX quyidagi ijobjiy ko'rsatkichlarga ega: shaffof, qattiq, mexanik va kuchli zarbaga chidamli, steril va yaxshi shakllanuvchan. Bularning barchasi o 'simlik moylari uchun butilka tayyorlashda undan tobora keng foydalanishga imkon beradi.

### **Ko'p qatlamlili polimer va kombinirlangan qadoqlash maleriallari, ularning fizik-kimyoviy xossalari.**

Ko'p qatlamlili polimerlar oziqa mahsulotlarini qadoqlash amaliyotida 1960- yillarda paydo bo'lgan, lekin uning turlari ko'paymoqda, chunki berilgan xossalarga ega bo'lgan qadoqlash materiallari olishning cheksiz imkoniyati bor, ular birlamchi polimer mahsulotlarni o 'zaro yoki boshqa materiallar bilan, masalan, qog'oz, karton, aluminiy folgasi bilan bikrirkirish yo'li bilan olinadi.Ko'p qatlamlili qadoqlash plyonkalarni yaratishda alohida tarkib qadoqni aniq ishlatilish sohasiga ko'ra aniqlaniladi: oziqa mahsulotining tabiat, saqlash sharoiti va muddati, iqtisodiy, texnologik, ekologik, iste'mol talablariga ko'ra bir tomonidan va ikkinchi tomonidan tarkibiga kiruvchi alohida moddaning xossalari ko'ra. Ko'p qatlamlili qadoqlash materiallari turlituman bo'lib, ularni shartli ravishda quyidagicha bo'lish mumkin: qog'oz yoki karton va polimer

asosdagi material, aluminiy folgasi va polimerli, metallashtirilgan va maxsus ko‘p qatlamlili pylonkalar, ko‘p qatlamlili polimer pylonkalar.

**Ko‘p qatlamlili polimer pylonkalar.** Bu guruhga ko‘p sonli laminantlar kiradi, ular faqat polimer materiallari qatlamidan iborat. Materiallarni mutanosiblashtirib boshlang‘ich mahsulotlarda ham mayjud bo‘lmagan xossalarga erishish mumkin. Mayonez va boshqa yog‘ tutuvchi mahsulotlari «Xassiya» tipidagi avtomatlarga qadoqlash uchun PET/PE ikki qatlamlili pylonkali material ishlab chiqilgan.

Material quruq kashirovlash usuli bilan olingan, unda polietilen tereftalat va yuqori bosimli polietilen va past bosimli polietilen pylonkalari aralashmasidan foydalaniladi. Rangli bosma ikki qatlamlam orasiga qo‘yiladi. Mayonezga bevosita tegib turadigan ichki qavatga polietilenlar aralashmasi joylashadi. Mayonez qadoqlash uchun PET/PE ikki qatlamlili pylonkali materialni ishlab chiqarishga sog‘liqni saqlash idoralari tomonidan ruxsat etilgan. Qog‘oz yoki karton va polimerlar asosidagi material VNPO «Bumprom» tomonidan qadoqlovchi mikromum qoplamlami qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan (etilen bilan vinil asetat va parafin sopolimeri asosida).

Mikromum qoplamlami qog‘oz harorat bilan yopishtiriladi, ular sovun qadoqlashda odatiy etiketka qog‘oz va pergament o‘rniga mog‘orlashning oldini olish, ancha vaqtgacha hidini saqlash va polivinil asetat kleyi ishlatilishining oldini olish uchun ishlatiladi.

**Polimerlash va qog‘oz, aluminiy folgachasi asosidagi materiallari.** Kombinirlangan material larda turli xossali mahsulotlar qatlami hosil qilinsa, idishga solingen mahsulotni o‘zgarishsiz va yo‘qotishsiz saqlash imkonini beradi. A1 folgasi yuqori to‘siq xossalariga ega bo‘lib, gazlarga, suyuqliklarga nisbatan yuqori o‘tkazuvchanlikni ta’minlaydi. Folganing qatlami qadoq ichidagi mahsulotni yorug‘likdan saqlaydi. BFP 3 qavatlari kombinirlangan materiallari tarkibidagi yog‘ miqdori yuqori bo‘lgan oziqa mahsulotlarini qadoqlash uchun upakovkalar tayyorlashda ishlatiladi. Xususiy hollarda mayonezni paketlarga qadoqlashda BFPni ishlatish tavsiya etilgan.

### Takrorlash uchun savollar

1. Turli hajmdagi idishlarga qadoqlashning sabablari nimada?
2. Ko‘p qatlamlili polimer va kombinirlangan qadoqlash materiallari haqida ma’lumot bering.
3. Polimer, qog‘oz va aluminiy folga asosidagi materiallari haqida ma’lumot bering.

## 4-MA’RUZA

### YOG‘ VA MOYLARNI PET IDISHLARGA QADOQLASH

#### Reja:

1. Polietilen olishning bir necha sanoat usullari.
2. PEVDdan idish tayyorlashning asosiy usullari.
3. Termo-shakllantirish usuli bilan PVX pylonkalaridan polimer idishlar tayyorlash.
4. Davriy usulda qadoqlash texnologik sxemasi.

#### 1. Polietilen olishning bir necha sanoat usullari.

Polietilen. Qadoqlash ishida polietilen boshqa polimerlar orasida etakchi o‘rinni egallaydi, u pylonka, varaq, shishiriladigan shisha, qo‘srimcha qoplama, varaq ashyolar, qopqoqlar, tiginchalar va taglamalar, penoplastlar, matomas materiallari tayyorlashga ishlatiladi. Polietilen etilennning polimerlanishidan hosil bo‘lgan yuqori molekular mahsulotdir.

Hozirgi kunda polietilen olishning bir necha sanoat usullari ma’lum.

I. YUqori bosim ostida etilenni polimerlash ( $1000\text{--}3500 \text{ kgs/sm}^2$ ), harorat  $200\text{--}300^\circ \text{C}$ , initsatorlar (02 organik peroksidlar) ishtirokida radikal mexanizmi bo’yicha olinadi. Bunday polietilen yuqori bosim (**PEVD•, YBPE**) yoki past zichlikka ega polietilen (**PENP•, UPE**) deyiladi.

2-jadval

Ko’rsatkich nomi	Suspenzion <b>PEND</b>	Gaz fazada <b>PEND</b>
Zichligi, $\text{g/sm}^3$	0,9	0,9
CHo’ zilganlikka chidamlilik chegarasi	21,5-32 4	25,6-30,6
Tortilgan nisbiy cho’zilishi	300-600	400—700
Usadka, %		
Qotishma oquvchanligi		20,0 +2

II. Past bosim ( $40 \text{ kgs/sm}^2 +$  pası), metali organik katalizatorlar ishtirokida,  $80^\circ \text{C}$  da, suspenziyada ion-koordinatsion mexanizmi bo’yicha etilenni polimerlash. Bunday polietilen past bosim (**PEND•, PBPE**) yoki yuqori zichlikdagi (**PEVP•, YZPE**) polietilen deyiladi.

III. Past bosimda gaz fazada, kompleks metalli organik katalizatorlar yordamida etilenni polimerlash (**PEND**).

Gaz fazali jarayonlar nisbatan sodda texnologik sxema bilan ajralib turadi. Gaz fazali usul bilan olingan polietilen suspenzion PENDdan tozaligi yuqoriligi, yuqori fizik-mexanik xossalari bilan farq qiladi (2-jadval).

**PEND** va **PeVD** turli muhitlar: kislotalar, ishqorlar, tuzli eritma va bahzi boshqa organik erituvchilarda yuqori darajada kimyoviy chidamlidir. Ularga konsentrangan xlorid kislota ham, plavikovaya kislota ham tahsir qilmaydi, lekin ular oksidlovchilarga nisbatan chidamli emas. **PEND PEVDga** nisbatan spirtlar, yog’ kislotalar, şovun tahsiriga chidamliroqdir. Ishlatilish sohasi va xossalari ko’ra, turli markadagi polietilenlar chiqariladi. **PEVD** asosan, iste hmol idishlari olish uchun ishlatiladi.

## 2. **PEVDdan idish tayyorlashning asosiy usullari.**

**PEVDdan** idish tayyorlashning asosiy usullari: bosim ostida quyish; ekstruziya, puflashli ekstruziya, rotatsion shakllantirish, termo-shakllantirish.

**PEVD** turli maishiy buyumlar va piyonka tayyorlashda keng qo’llaniladi. **PEVD**ning oziqa markali piyonkasidan tayyorlangan qoplar margarinli mahsulotlarni katta o’lchamli idishga (taxta bochka, karton yashik) qadoqlashda pergament o’mida ishlatiladi.

**PEND** nisbatan qattiq, zARBAGA yuqori chidamli, kuchlanish ostida yorilishga chidamli, yuqori pishiqlik xossalariiga ega.

**PEND P eVDni** qayta ishlash usullari bilan qayta ishlanadi: bosim ostida quyish, ekstruziya, puflashli ekstruziya, rotatsion shakllantirish. **PEND**dan qolgan qutilar o'simlik moylari tashishda transport idishi sifatda foydalaniadi.

*Polivinil xlorid.* Polivinil xlorid (PVX) — vinil xloridni polimerlanishidan hosil bo'lgan yuqori molekular birikma hisoblanadi. PVXning xossalari va ishlatilish sohalari uning olinish usullariga bog hliq bo'ladi.

Sanoatda PVXni suspenziyali, blokli, emulsiyali usullar yoki massada polimerlash bilan olinadi.

PVX, odatda, 140—170° C da qayta ishlanadi, bu sharoitda florid kislotaning ajralishi va qisman destruksiya jarayonlari sodir bo'ladi, shuning uchun PVXning harorat muvozanaflilagini oshirish uchun polimerli maxsus qo'shimchalar — muvozanatlovchilar qo'shiladi. Faqat stabilizator tutuvchi PVXlar qattiq shoxsimon mahsulotlar, konstruktiv material sifatida (quvur, idish, armatura va h.k.) ishlatiladi, shuning uchun listlar va plyonkalar olishda mahsulotning elastiklik xossalarni yaxshilash uchun PVXli plastifikatorlar, asosan, murakkab efirlar (dioktil va dibutilsebasinat, dioktilftalatlar) kiritiladi. Epoksidlangan o'simlik moylari (soya va boshq.) plastiklik xossalarni yaxshilash xususiyatiga ega, ular PVXning oziqa navlari uchun plastifikator va stablizator sifatida keng ishlatiladi.

Qattiq PVXlar plyonka yoki donacha ko'rinishida turli yarimqattiq idishlar (banka, butilka flakon, lotochka, korobka, baklajka) ishlab chiqarish uchun qo'llanadi. SHakllantirishning turli usullari bilan amalga oshirilishi mumkin: pnevmatik, vakuum-shakllash, listli yoki plyonkali materialni shtampovkalash, ekstrukziya va bosim ostida quyish donachalar, kukundan rotatsion shakllantirish.

**PVX** plyonkalari. PVX plyonkalari o'simlik moylari, mayonez va quyma margarinlarga idish tayyorlash uchun mo'ljallangan. Plyonka kuchsiz plastiklangan termoplastik material bo'lib, suspenzion polivinilxlorid, stabilizator va boshqa qo'shimchalar asosida tayyorlanadi.

Uskunaning unumdorligi, dona/min: stakancha tayyorlash — 240; qopqoq tayyorlash — 250.

### **3. Termo-shakllantirish usuli bilan PVX plyonkalaridan polimer idishlar tayyorlash.**

Termo-shakllantirish usuli bilan PVX plyonkalaridan polimer idishlar tayyorlash texnologik sxemasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: plyonka o'ramlarini tayyorlash, stakanchalarni shakllantirish, stakanchalarning yon yuzasiga muhr urish, qopqoq tayyorlash, qopqoqlar yuzasiga muhr urish, tayyor mahsulot sifat nazorati, tayyor mahsulotning qadoqlanishi (o'rash).

Moskva yog' kombinatida birinchi bo hlib puflash-ekstruziya usuli bilan o'simlik moylarini qadoqlash liniyasi o'rnatildi, bu usul PVXni katta miqdorda tejash

imkonini beradi. PVX va polietilen chiqindilari qopqoq ishlab chiqarish uchun qaytadan ishlab chiqarishga beriladi. Bu liniyada turli o'simlik moylari uchun yumaloq va kvadrat shaklli butilkalar ishlab chiqariladi.

Butilka ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'lib <<Korient>> markali PVX, qopqoq ishlab chiqarish uchun esa polietilen xizmat qiladi. PVXdan tayyorlangan polimer mahsulotlar yuqori kimyoviy turg'unligi va mexanik pishiqligi, kam miqdorda bug', gaz, suv o'tkazishi, hidli moddalar kirishiga chidamliligi, amalda hidsiz, fiziologik jihatdan xavfsiz ekanligi bilan ajralib turadi. PVX quyidagi ijobiy ko'rsatkichlarga ega: shaffof, qattiq, mexanik va kuchli zARBaga chidamli, steril va yaxshi shakllanuvchan. Bularning barchasi o'simlik moylari uchun butilkalar tayyorlashda undan tobora keng foydalanishga imkon beradi.


#### **4.Davriy usulda qadoqlash texnologik sxemasi.**

YOg' sifatini saqlash va yog' -moy sanoatida savdo madaniyatini oshirish uchun so'nggi yillarda istehmol uchun mayda idishlarga qadoqlangan yog' assortimentlari ko'paymoqda. YOg'lar 0,5—2,0 litr hajmi shisha idishlarga va asosan, polimer material — polivinilxloriddan tayyorlangan, polietelen qopqoqli idishlarga qadoqlanmoqda.

Mayda idishlarga qadoqlaydigan zamonaviy liniyalar ishlab chiqaradigan firmalar qatorida <<Krupp-Kauteks» (Germaniya), <<Reno-pak» (SHveysariya) va Steka» (Fransiya) firmalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

YOg'larni <<Steka» (Fransiya) firmasining uskunalarida qadoqlash (2. I - rasm). Past bosimli kompressor 1 dan chiqayotgan 0,75 MPa bosimdagi siqilgan havo ressiver 2 orqali yuqori bosimli kompressor 3 ga keladi. U erdan ressiver 4 orqali 3,5 MPa bosim ostida siqilgan havo puflovchi avtomat 5 ga beriladi. PET preformalar 6 korobkada yig'iladi va butilka puflash avtomati 5 ga uzatiladi. Bu erda soatiga 1500 donagacha hajmi 1 litr bo'lган butilkalar yasaladi va monoblok-butilkaga yog' quyish avtomati 7 ga uzatiladi. Monoblokka bir vaqtning o'zida rafinatsiyalangan yog' kelib tushadi va butilkalar yog' bilan to'ldiriladi. Monoblok butilkalarni chayqash, yog' bilan to'ldirish va tiqinlarni mahkamlash moslamalari bilan jihozlangan. To'ldirilgan va tiqinlari yopilgan PET butilkalar yorliq yopishtiruvchi mashina 8 orqali o'rovchi moslama 9 ga uzatiladi. Bu erda butilkalar 6 donadan qilib, polietilen plyonkaga o'ralib, paketlar hosil qilinadi.

Paketlar qizdirish tunneli 10 orqali o'tib, 11 qurilmada poddonlarga taxlanadi va folga bilan o'raladi. So'ngra bloklar 14 aravacha 13 yordamida tayyor mahsulot omboriga jo'natiladi. Bo'sh va yog' bilan to'ldirilgan PET butilkalarni uzatish transportyor 12 yordamida amalga oshiriladi. Qadoqlash liniyasining unumdorligi kuniga 40 tonnaga teng.



2.1-rasm. «Steka» firmasining yog'larni PET idishlarga qadoqlash liniyasi.

### Takrorlash uchun savollar

1. Polietilenning sanoatda olishning usullari.
2. PEVDdan idish tayyorlash.
3. Termo-shakllantirish usuli bilan PVX plyonkalaridan polimer idishlar tayyorlash.
4. Davriy usulda PET idishlarga qadoqlash.

## 5-MA’RUZA.

### YOG’ VA MOYLARNI SHISHA IDISHLARGA QADOQLASH

#### Reja:

1. Yog’ va moylarni shisha idishlarda qadoqlashga tayyorlash. Shisha idishlari, ularning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Shisha idishlarni qadoqlashga tayyorlash.
2. Yog’ va moylarni shisha idishlarga qadoqlash texnologiyalari. Yog'larni shisha idishlarga qadoqlash liniyasi.

#### **1. Yog’ va moylarni shisha idishlarda qadoqlashga tayyorlash. Shisha idishlari, ularning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Shisha idishlarni qadoqlashga tayyorlash.**

Yog’ni shisha idishlarga qadoqlash. To’g’ridan-to’g’ri istehmol qilish va chakana savdo orqali sotishga mo’jallangan yog’lar shisha idishlar (butilka)ga ham qadoqlanadi. SHisha idishlarga qadoqlash uchun rafinatsiyalangan, dezodorastiyalangan va GOST talablariga to’liq javob beradigan yog’ ishlataladi. Bundan tashqari, quyidagi yog’ va moylar ham qadoqlanadi: paxta yog’ini demargarinizastiya qilish yo’li bilan olingan salat moyi; rafinatsiyalangan dezodoratsiyalanganmagan o’simlik moylari.

Saqlash davomida qadoqlanadigan yog’ sifatini saqlab turish uchun qadoqlangunga qadar unda erigan kislorodni yo’qotish uchun inert gaz bilan ishlov beriladi.

Yog’lar 500, 400 va 250 gr sig’imli shisha idishlarga qadoqlanadi.

Yog’larni qadoqlash uchun yashil tusli tiniq shishadan tayyorlangan mustahkam idishlardan foydalilanadi. YArim oq yoki rangsiz shishadan tayyorlangan idishlarga ham qadoqlashga ruxsat beriladi.


O'simlik moyi solingan idishlar ikki tomonlama sellofan bilan elimlangan karton qistirmali alumin yoki polimer materialdan tayyorlangan qopqoq bilan berkitiladi.

YOg' to'ldirilgan butilkalar ko'p marta ishlatiladigan ochiq taxta yashiklarga yoki polimer materiallardan tayyorlangan taralarga joylanadi. Mahalliy tashishlarda ochiq uyali temir yashiklarga ham joylashga ruxsat etiladi. Qadoqlash quyidagicha amalga oshiriladi (2.2-rasm).

## **2. Yog' va moylarni shisha idishlarga qadoqlash texnologiyalari. Yog'larni shisha idishlarga qadoqlash liniyasi.**

Moyni qadoqlash uchun ishlatiladigan shisha idishlar taralar omboridan yashiklarda keladi. Avtomat 4 da yashikdan ajratiladi va idish yuvgich mashina 3 ga uzatish uchun transportyorga beriladi. Toza butilkalar idish yuvgichdan quritish uchun quritgich 6 ga yuboriladi. Quritilgan idishlar rangli ekran 8 orqali o'tib sifati tekshiriladi va quyish avtomati 9 ga yuboriladi.  $20-25^{\circ}\text{C}$  haroratda, inert gaz atmosferasida saqlanayotgan 7 sig'imdagи yog' quyish avtomati 9 ga beriladi. Moy bilan to'ldirilgan idishlar plastinkali transportyor bo'ylab shtamplovchiberkituvchi agregatlar 10, 11 ga uzatiladi. Bu erda aluminiydan tayyorlangan qopqoqlar bilan berkitiladi.

Zichlab yopilgan idishlardagi moyning lozaligi, idishlar butunligi va germetikligini nazorat qilish uchun 13 avtomatdan o'tkaziladi. So'ngra yorliqlovchi avtomat 14 ga yorliq yopishtirish uchun uzatiladi. Keyin moyli butilka yaroqlilagini yana bir marla tekshirish uchun nurli ekran 15 va mexanik datchikli hisoblagich 17 orqali o'tib, yashiklarga joylash uchun taqsimlovchi avtomat stol 16 ga keladi. Bo'sh yashiklar avtomat 4 dan avtomat 16 ga transportyor 12 orqali o'tadi. Moyli idishlar bilan to'ldirilgan yashiklar tayyor mahsulot omboriga yuboriladi.



2.2-rasm. Yog'larni shisha idishlarga qadoqlash liniyasi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. YOg'ni shisha idishlarga qadoqlashning ijobiy tomonlari.
2. SHisha idishlar va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari.
3. SHisha idishlarni qadoqlashga tayyorlash.
4. Yog' va moylarni shisha idishlarga qadoqlash texnologiyalari.

**6-MA’RUZA**  
**YOG’ VA MOYLARNI METAL VA BOSHQA MATERIALLARDAN**  
**TAYYORLANGAN IDISHLARGA QADOQLASH**

**Reja:**

1. Metal, qog’oz va polietilen idishlari, ularning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Metal, qog’oz va polietilen idishlarni qadoqlashga tayyorlash va shakl berish.
2. Metallardan tayyorlangan qadoqlash materiallari.
3. Polietilen idishlarda qadoqlash.

**1. Metal, qog’oz va polietilen idishlari, ularning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Metal, qog’oz va polietilen idishlarni qadoqlashga tayyorlash va shakl berish.**

Metall idishlardan moyga metall katalizatorlari oksidlanib o’tishining oldini olish uchun idish maxsus himoya qatlami bilan qoplangan yoki tegishli metall, masalan, titan quymalaridan tayyorlangan bo’lishi kerak. YAngi moyga 10%gacha oksidlangan moyning qo’shilishi, yahni perekis birikmalarining oz miqdori ham moyning saqlash davridagi chidamliligini sezilarli pasaytiradi.

1-jadval

Moylarning turlari	Temir	Mis
Rafinatsiyalangan kungaboqar	0,5-1,5	0,005-0,1
Rafinatsiyalanmagan paxta	2,7-6,3	0,1-0,2
Rafinatsiyalanmagan soya	0,9-2,5	0,02-0,11

Yuqorida aytib o’tilganidek, metallar ham moylarning oksidlanishini tezlashtiradi. Moylarda metallar moy kislotalari tuzlari shaklida bo’lib, ko’pgina metallar fosforitlar tarkibiga kiradi. SHuning uchun moylar gidratatsiya va rafinatsiyalagandan so’ng ular miqdori 5—10 barobar kamayadi. Moylar uzoq saqlansa, idish (tara) metalining moyga o’tishi kuzatiladi. Moy va yog’larning oksidlanishiga ko’proq mis, temir, marganes tahsir ko’rsatadi. Moylardagi mis va temirning og’irlik ulushi mg/kg da ifodalanib, I-jadvalda ko’rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak. YUqorida aytib o’tilganidek, moylar oksidlanishining oldini olish uchun antioksidantlar ham qo’llaniladi. Sunhiy antioksidantlar toksik (zaharli) bo’lganligi sababli ularning miqdori yog’ og hirligidan (0,28%dan) oshmasligi kerak.

Shu bilan birga, oksidlanish tezligiga turli qisqa to’lqin uzunligiga ega bo’lgan nurlanishlar (Y-radiatsiya, ultrabinafsha nurlanish va hokazo) ham tahsir qiladi. Bunda ham oksidlanish jarayonining rivojlanishida ishtirot etuvchi erkin radikallar hosil bo’ladi. Jigarrang yoki to’q yashil rangli shisha idishda saqlanayotgan moyning saqlanish muddati rangsiz shisha idishda saqlanish muddatidan 1,5—2 marta uzayadi.

Qog'oz va karton. Qog'oz ishlab chiqarish sanoatining  $1\text{ m}^2$  ning massasi 180 g gacha bo'lган mahsulotlari qog'oz, 180 dan 400 g gacha bo'lган mahsulotlari karton deb ataladi. Ammo texnik nuqtai nazardan bu erda aniq chegarani belgilab bo'lmaydi. Qog'ozning xossalari uning zichligi, tolalarning tuzilishi, ishlab chiqarish texnologiyasi (maydalanish darajasi, qog'oz varag'ini olish, quritishning o'ziga xosliklari), qo'shimcha materiallar (to'ldirgichlar, boyoqlar, elimlovchi moddalar) va ishlov berishga (oqlash) bog'liq bo'ladi. Qog'oz va karton turli navlarining xossalari ularning qaysi maqsadlarga mo'ljallanganligiga qarab belgilanadi. Qadoqlashga mo'ljallangan qog'oz qattiq, mustahkam, tamg'ani yaxshi qabul qiladigan bo'lishi kerak. Bu maqsadlarda ko'pincha maxsus qadoqlash qog'ozi va karton ishlatiladi.

*Etiketka qog'ozi.* etiketka tayyorlash uchun asosan GOST 7625 ga ko'ra to'rt A, B, V va M markadagi etiketka qog'ozidan foydalaniladi. Ularga rangli etiketkalar muhrlash bilan birga zarur hollarda lakash va bosib naqsh solish imkonи ham mavjud. A markadagi qog'ozning  $1\text{ m}^2$  massasi - 80 g ni tashkil qilsa, B niki - 70 g ni, V niki - 45 g ni, M niki - 100-120 g ni tashkil qiladi. Etiketka qog'ozlaridan tashqari yozuv, ofset, bosmaxona qog'ozlaridan va yuqori sifatli muhrlash uchun mo'ljallangan qog'ozdan ham foydalaniladi. etiketkalar varaqlar holida chiqarilib, keyin alohida donalarga bo'linadi. Qog'ozning namligi 5-8 % atrofida bo'lishi kerak.

*Joylash qog'ozlari.* Joylash qog'ozlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ularning mustahkamligi va o'zgarmasligi, foydalanganda esa, birinchi darajali ahamiyatga ularning mahsulotni himoyalashi hisoblanadi. SHuning uchun, ayrim hollarda, ularga maxsus ishlov berish orqali mahsulotni mexanik tahsirlardan himoyalash, namlik, yog' va moylarning o'tishidan saqlash choralar ko'rildi. Qadoqlash qozg'ozlari ishlab chiqarish uchun yog'ga chidamli qog'ozni hisobga olmaganda, past navli oqlanmagan sellyulozadan foydalaniladi.

Ko'pincha o'rovchi qog'oz sifatida  $1\text{ m}^2$  ning massasi 40-200 g bo'lган yuqori mustahkamlikka ega, qovushqoqlikka chidamli bo'lган sariq-jigar rangli karton qog'ozdan foydalaniladi. Bu qog'oz yuqori estetik talablar qoyilmaydigan xaltalar, qopchalar, qadoqlash qoliplari tayyorlashda yaroqli hisoblanadi.

Oqlangan sellyulozadan tayyorlanadigan qog'ozning boshqa turlari chiroyli ko'rinishga ega, fleksografik bosmani yaxshi qabul qiladi, polietilen yoki parafin, alyumin folga bilan kombinasiyalashadi, mashinada joylashda qulay hisoblanadi.

*YUpqa o'rash qog'ozi.*  $1\text{ m}^2$  ning massasi 12-30 g bo'lган, bir tomoni silliq, ochiq rangli qog'ozdan mahsulotlarni qo'lda joylashda foydalaniladi.

Ziravorlarni qadoqlashga mo'ljallangan – bir tomoni mashinada silliqlangan, xira, o'rtacha mustahkamlikdagi qog'oz xaltalar va qopchalar tayyorlashda ishlatiladi. Bundan ham jozibali va mustahkam qadoqlash vositalarini tayyorlash uchun bir tomoni silliq, mustahkamligi oshirilgan, ammo etarlicha egiluvchanlikka ega bo'lган qadoqlash qog'ozidan foydalangan mahqul. Tarkibida o'simlik va hayvon yog'lari bo'lган mahsulotlarni qadoqlashda maxsus yog'ga chidamli qadoqlash (joylash) qog'ozi va pergamentdan foydalaniladi.

## **2. Metallardan tayyorlangan qadoqlash materiallari.**

*A l y u m i n i y l i f o l g a.* Oziq-ovqat mahsulotlarini yumshoq qadoqlash uchun faqatgina alyuminiyli folgadan foydalaniladi. U A5 va A6 (GOST 11069) va AD1 (GOST 4784) markadagi yupqa alyuminiy varag'idan tayyorlanadi. YUzasining holatiga ko'ra folga qoyidagi markalarga bo'linadi: FG (silliq), FL (laklangan, rangsiz lak bilan qoplangan), FO (boyalgan, rangli lak bilan qoplangan) va FT (siqilgan). Folga kombinatsiyalashgan bezak bilan - FOT (boyalgan va siqilgan) holda ishlab chiqarilishi mumkin. Folganing yuzasini qoplash uchun faqatgina Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsat etilgan lak va boyoqdan foydalanish mumkin. YUmshoq qadoqlash uchun toblanganidan so'ng kuydirilib tayyorlanadigan yumshoq, toza, sog'liqqa tahsiri bo'limgan alyuminiyli folgadan foydalaniladi. Alyuminiyli folga yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik xossasiga ega, yorug'likdan saqlaydi va issiqlik nurlanishining mahlum qismini ushlab qoladi. Nazariy tomondan olib qaraganda folga suv, suv bug'i, yog', moy, gaz va aromatik moddalarning o'tishidan ishonchli himoya vositasi hisoblanadi. Ammo yupqa folgani ishlab chiqarish jarayonida mahlum bir g'ovaklik hosil bo'ladi va yuqorida nomlangan moddalar shu g'ovakliklardan o'tishi mumkin. Qalinligi 0,015-0,030 mm bo'lgan folga butunlay g'ovaksiz hisoblanadi.

Alyuminiyning o'ziga xos tomoni shundaki, u kislorodga nisbatan o'ta tahsirchan bo'lgani holda oddiy iqlim tahsirlariga chidamli hisoblanadi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, alyuminiyning yuzasida tezda bir tekis yupqa oksid qavati hosil bo'lib, bu qavat alyuminiyni bundan keyingi oksidlanishdan himoyalaydi. Alyuminiyli folganing ijobiy xossalari - yumshoqligi, egiluvchanligi, elastikligi va yozuv va rasmlarni yaxshi qabul qilishidir.

Mexanik mustahkamligining pastligi uchun alyumin folga qadoqlash maqsadlarida kombinatsiyalashgan holda qo'llaniladi. Mahlum bir kombinatsiyada alyuminiyni termik payvandlash imkoniyati tug'iladi. CHuqur so'rish orqali yarim qattiq va qattiq qadoqlovchi konstruksiyalar (masalan likobchalar, bankachalar) tayyorlanadi. Alyuminiyning qadoqlangan mahsulotga zararli tahsirlanishining oldini olish uchun folga sunhiy materiallar (masalan polipropilen) bilan kombinatsiyalanadi.

Boshqa metallar ruxlangan va laklangan po'lat varaqlar ko'rinishida konserva sanoatida banka va idishlarni tayyorlash uchun qo'llaniladi.

Materiallardan tayyorlangan bankalar zich berkitilishi ularda bug', gaz va hidlardan himoyalanishi kerak bo'lgan pastasimon va suyuq (uglerod ikki oksidigi ega bo'limgan meva sharbatlari, yog'lar, moylar, asal va boshqalar), donali mahsulotlar (masalan kofe) va shuning bilan birga kukunsimon oziq-ovqat mahsulotlarini (kakao, sut kukuni) qadoqlash imkonini beradi. Ko'pgina hollarda bunday bankalar metall bankalarning o'rnida foydalaniladi.

Metall bankalar qalnligi 0,14-0,28 mm bo'lgan po'lat, bahzida esa alyuminiy varaqlaridan tayyorlanishi mumkin. Metall bankalarning tubi va qopqog'i yumaloq shakldagi metall varaqlaridan tayyorlanadi. Qopqog'i alohida tayyorlangan va qistirib qoyiladigan bankalar kuchli mustahkamlikka va qadoqlash xususiyatiga ega va mos yopiladigan vositalari mayjud bo'lganda kukunlar va suyuqliklarni qadoqlash uchun ham yaroqli bo'lshi mumkin. Bunday qopqog'i qo'zg'aluvchan bankalar kam mustahkamlikka ega bo'ladi va shikastlanishga kamroq sezgir bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda qo'llanilishi mumkin. Bu bankalarni to'ldirish va berkitish texnik darajasi turlicha bo'lgan sexlarda oson mexanizatsiyalashtirilishi mumkin.

Alyuminiy bankalar odatda turli qismlardan iborat bo'ladi va turli xil texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan tayyorlanadi. Qopqog'lari berkitilgan metall bankalar (konserva bankalari) suv, bug' va hidli moddalarning o'tishini oldini olinishi va sterilizatsiyalanishi mumkin. Mahsulot va tashqi muhit bilan tahsirlanishining oldini olish uchun metall bankalar himoya qoplami bilan qoplanadi. Qoplama qoplash, ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqib, oldindan yoki banka tayyor bo'lgandan so'ng amalga oshiriladi.

Metall bankalar maxsus himoyani talab qiladigan mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladi.

### **3. Polietilen idishlarda qadoqlash.**

Polietilen. Qadoqlash ishida polietilen boshqa polimerlar orasida etakchi o'rinni egallaydi, u plyonka, varaq, shishiriladigan shisha, qo'shimcha qoplama, varaq ashyolar, qopqoqlar, tinqinchalar va taglamalar, penoplastlar, matomas materiallar tayyorlashga ishlatiladi. Polietilen etilennenning polimerlanishidan hosil bo'lgan yuqori molekular mahsulotdir.

*P o l i e t i l e n.* Ko'pgina ijobjiy xususiyatlari va ishlab chiqarish tannarxining pastligi tufayli polietilen boshqa sunhiy materiallarga nisbatan keng qo'llanilmoqda. Ishlab chiqarish texnologiyasiga ko'ra past va yuqori zichlikdagi polietilen ishlab chiqariladi. YUqori zichlikdagi polietilenning fizik-mexanik xossalari va issiqlikka bardoshliligi zichligi past polietilenga qaraganda yuqoriyoq bo'ladi. Polietilen plenka suyuq kislota va ishqorlarga chidamlilik xossalariiga ham ega. Xona haroratida polietilen qattiq, zararsiz (zaharsiz), suvga chidamli va yuqori payvandlanish xossalariiga ega bo'lib, bular polietilenni turli oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda ishlatish imkonini beradi. Polietilenning strukturasi apolyar bo'lganligi uchun yozuv va rasmlarni bosish dastlabki tayyorgarlikdan so'ng amalga oshiriladi. Zichligi past polietilen suv va bug' o'tkazmaslik xossalariiga ega, ammo yog' va gazlarni o'tkazib yuboradi. Polietilenning kislorod va uglerod ikki oksidini o'tkazib yuborish xossalardan, saqlash vaqtida gaz almashinishini talab qiladigan mahsulotlari uchun qadoqllovchi material sifatida ishlatish imkonini beradi.

Mahsulotlarda yog' bo'lganda zichligi kichik polietilen plenkasi bo'kadi, ayniqsa yuqori haroratlarda polietilenden polimerlarning past molekulyar fraksiyalari yog' tafsirida ekstraksiyalanadi. SHuning uchun tarkibida yog' bo'lgan mahsulotlarni polietilenga qadoqlash tavsiya etilmaydi. Zichligi past polietilenning kamchiliklaridan yana biri haroratga bardoshliligining pastligi ( $90^{\circ}\text{C}$ ) bo'lib, bu uni oziq-ovqat mahsulotlarini sterilizatsiyalashda foydalanish imkonini bermaydi.

Zichligi yuqori bo'lgan maxsus ishlov berilgan polietilen yog' va boshqa birikmalarga chidamli, etarlicha haroratga bardoshli, mahsulotlarni joylab, bevosita qadoqlangan holda qizdirish imkonini beradi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Qog'oz va kartonning xossalari.
2. Etiketka qog'ozi tayyorlash.
3. Joylash qog'ozlari nima?
4. YUpqa o'rash qog'ozi nima uchun ishlatiladi.
5. Metallardan tayyorlangan qadoqlash materiallari.
6. Alyuminiyli folgadan foydalanish.
7. Polietilenden foydalanish.

## **7-MA'RUZA**

### **MARGARIN VA MAYONEZ MAHSULOTLARINI QADOQLASH**

#### **Reja:**

1. Margarin mahsulotlarini saqlash va tashish.
2. Margarin mahsulotlarini qadoqlash.
3. Mayonez mahsulotlarini qadoqlash.

#### **1.Margarin mahsulotlarini saqlash va tashish.**

Margarin mahsulotlari uzoq vaqt saqlanganda yoki tashishda buziladi. Oshpazlik, qandolatchilik va novvoylikda ishlatiladigan yog'lar margaringa qaraganda tez buzilmaydi. Lekin havo tarkibidagi kislorod bilan oksidlanishi mumkin, natijada perekisli birikmalar, erkin yog' kislolar yig'ilib qoladi.

Margarin sifatining buzilish sababi shundaki, suv-sut fazasi mog'orlaydi va boshqa mikroorganizmlar bilan zararlanadi. Omborxonalarda havo namligi yuqori bo'lganda , mog'orlash jarayoni tez kechadi.

YAxshi tanlangan tomizg'ida ivitilgan sutdan tayyorlangan margarin uzoq saqlanadi. Bu ko'rsatkichga mahsulot tayyorlash texnologik rejimlari, yog'li asos tarkibi, qadoqlash idishlarining zichligi tafsir qiladi.

Margarin mahsulotlari begona hidni tez yutib oladi, shu tufayli ularni alohida, boshqa mahsulotlar bo'limgan xonada saqlash kerak. Margarin mahsulotlarini saqlash harorati ( $0^{\circ}\text{ C}$ ), havoning namligi 80%dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Omborxonadan jo'natiladigan margarin mahsulotining harorati 0° C dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Margarin mahsuloti sifatini baholash. Margarin mahsulotlarining sifati amal qiluvchi davlat standarti , tarmoq standarti va organoleptik, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

Margarin sifatini baholash. Margarin mahsulotlari sifatiga qo'yiladigan talablardan biri — begona hid va maza bo'lmasligi, sariyoqqa o'xshash hid va mazaga ega bo'lishi kerak.

Margarin konsistenstiyasi tez eruvchi, plastik, zich, qirqilganda yuzasi yaltirashi hamda ko'rinishi quruq bo'lishi kerak. Bo'yagan margarin rangi butun massasi bo'yicha och sariq rang, shokoladli margarin rangi jigarrangdan to'q jigarranggacha bo'ladi. Margarin pachkalari ezilmagan, yorliqlari aniq bo'lishi lozim.

Maza va hidning buzilishi. Ivitilmagan sut qo'shib hid beruvchi moddalar qo'shilmaganda, hidsiz va mazasi nomahlum bo'lgan margarin olinadi. Mazasiz sut, yomon aromatizatorlar, yomon dezodoratsiyalangan yog' ishlatilganda bemaza margarin ishlab chiqariladi. YOmon tuz va sutning kuyundi mazasi mahsulotga taxir maza beradi. Kislotaliligi yuqori bo'lgan sut ishlatilsa, margarinda nordon maza hosil bo'ladi.

Margaringa mol yoki qo'y yog'i aralashib qolsa, mol yog'ining mazasi keladi. Achib ketgan sut ishlatilganda margarindan pishloq, tvorog mazasi keladi. Mahsulot metall idishda uzoq vaqt saqlansa, metall maza kelishi mumkin. Sovun qoldiqlari bo'lgan yog' ishlatilsa, margarinda ishqor maza bo'ladi.

Margarin konsistenstiyasi nuqsonlari. Margarin yumshoq, qattiq, uqalanib ketadigan konsistensiyali bo'lsa, bu margarin tarkibidagi yog' restepturasi noto'g'ri tuzilganligi yoki yog' aralashmasining qattiqligi yuqori bo'lidan dalolat beradi.

Sovitish rejimi noto'g'ri olib borilsa, margaringa ortiqcha mexanik ishlov berilsa, kristallar juda maydalanib ketsa ham margarin konsistenstiyasi buziladi. Loyqa tomchi hosil bo'lishi ivitilmagan yoki yaxshi ivitilmagan sut ishlatilganligini ko'rsatadi. Emulgator kam qo'silsa yoki sifati past bo'lsa, yirik sut tomchilarini hosil bo'ladi.

## 2.Margarin mahsulotlarini qadoqlash.

**Qadoqlash va rangidagi nuqsonlar.** Emulsiya bir maromda sovitilmasa, margarin yuzasi marmar tusiga ega bo'lmay, yo'l-yo'l va xol-xol bo'lib qoladi. Bo'yovchi modda sifatsiz bo'lsa yoki miqdori etarli bo'lmasa rangi och bo'ladi. Tayyor mahsulot rangi kulrangga yaqin bo'lsa, bu yog' yaxshi oqlanmaganligidan dalolat beradi. Margarin mahsulotini saqlash davrida taraning namlanib qolishi margarin emulsiyasining barqarorligi etarli emasligini ko'rsatadi. Margarinning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari uning oziqa qiymatini belgilaydi. Amaldagi davlat tarmoq standartlarida yog' miqdori, namlik va uchuvchan moddalar miqdori, erish harorati, kislotaliligi qathiy chegaralanib qo'yiladi.

Margarindagi yog' miqdori uning energetik qiymati, mahsulotning to'yimliligini belgilaydi va qaysi maqsadda ishlatalishiga qarab o'zgaradi. Margarindagi suv miqdori sut tarkibidagi shakar va tuz eritmalar bilan kiritilgan suvning umumiy miqdori bilan birga hisobga olinadi. Davlat standarti bo'yicha mahsulotning ko'pchilik turida namlik miqdori 17% atrofida, past kaloriyal uchun 24% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Margarindan ajratib olingan yog'ning erish harorati  $27^{\circ}\text{C}$  dan  $32^{\circ}\text{C}$  gacha, margarinning kislotaliligi 2 dan 2,5 gacha bo hlishi lozim. Margarin zavodlaridagi sanitarni-gigienik sharoit. Saqlashga chidamli va sifatli margarin mahsulotlari ishlab chiqarish zavoddagi sanitarni-gigienik tartib-qoidalariga rioya qilinishiga bog hliq. Binoning sanitarni holati. Ishlab chiqarish binolari ko'p tabiiy yorug'likka ega bo'lismi kerak; binoni etarli shamollatish uchun oynalar framuga bilan ta'minlanishi, yoz faslida asosiy mikrob tashuvchilar — pashshalardan himoya qilish uchun to'r bilan to'silishi kerak. Sut bo'limiga tozalik bo'yicha jiddiy talablar qo'yiladi, u boshqa bo'limlardan ajratilgan bo'lismi kerak va begonalar kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Devorlar kamida 2 metr balandlikkacha kafel bilan qoplanadi yoki moyli bo'yoq bilan bo'yaladi va haftada kamida bir marta yuviladi. Hamma binolarning pollari suv o'tkazmaydigan plitalar bilan qoplangan va kanalizatsiya suvi chiqib ketadigan tomonga qiya qilib yasaladi va bir kunda bir necha marta yuviladi. Devor va shipda mog'orlar paydo bo'lganda oqlashdan oldin maxsus antiseptik moddalar bilan ishlov beriladi. Ishlab chiqarish binolari, eshiklari va tutqichlari har kuni issiq sovunli suvda yuviladi. Ishlab chiqarish va maishiy binolar orasida to'g'ridan to'g'ri aloqa bo'lmasligi, kirish-chiqish eshiklari alohida bo'lismi kerak.

Sovitgich-omborxonalarda mahsulotning buzilishiga olib keluvchi asosiy sabab mikrofloralarning faoliyatidir, shu sababli bu erda yuqori sanitarni-gigienik shart-sharoitlarni ta'minlash uchun maxsus choralar ko'riliishi lozim. Omborlar mahsulotdan bo'shatilib davriy ravishda dezinfeksiyalab turiladi.

Margarin mahsulotini o'rash. Margarin mahsulotini o'rash uchun pergament, folga, polimer plyonka bilan qoplangan qog'oz va polimer qog'oz, paketlar, qutichalar va polimer plyonkali stakanchalardan foydalaniadi. Qattiq margarinni o'rashda kashirlangan folga ancha samarali hisoblanadi. Stakancha va quticha ko'rinishidagi idishlar past haroratda eruvchan va yuqori plastik margarinlarni qadoqlashda tejamli hisoblanadi.

Margarin zavodlarida pachkasiga 200—250 gr margarinni qadoqlash uchun firmasining unum dorligi minutiga 95—120 pachka bo'lgan qadoqlash avtomati o'rnatilgan. Bunday avtomatning asosiy qismi oltita porshenli qadoqlovchi kamerali uzluksiz aylanuvchi barabandan iborat. Kamera ta'minlovchi truba ro'parasida bo'lsa, porshen orqaga harakatlanadi va u to'ldirilgandan so'ng oldinga harakatlanib, margarinni o'rovchi seksiyaga o'tkazib yuboradi. Qutiga margarin pachkalarini avtomatik ravishda joylashtirish uchun qutini ochadigan va unga margarin pachkalarini joylashtiradigan agregat o'rnatiladi, u qadoqlovchi avtomat bilan

transportyor orqali bog hlanadi. SHtabel holida taxlangan karton quti (30 dona) taxlovchi mashinaga solinadi. Ish vaqtida taxlamning pastki qismi shakllantirish seksiyasiga suriladi. Ochilgan qutilar joylash seksiyasiga o'tkaziladi. Margarin pachkasi qadoqlash avtomatidan tasmali transportyor orqali, uzlusiz ravishda joylash seksiyasining qabul qilish maydoniga tushadi. Pachkalarni 4 qator qilib tergandan so'ng qutilar kassetlanadi. Qutilar mahsulot pachkasi bilan to'lgandan so'ng avtomat ravishda elimlanadi. <<Xamba» firmasining qadoqlash avtomati, 250 hajmdagi polietilen stakanlarga margarin to hIdirish va jipslab berkitish uchun mo'ljallangan. Liniya qadoqlash bloki va uzatish seksiyasidan iborat bo'lib, ikkita qadoqlash mashinasidan tashkil topgan. Uzatish seksiyasi stakan va qopqoqlar taxlamini yuklash, stakanlarga sana, transport belgilarini bosish mexanizmiga ega. 4 ta stakan bosim ostida tushadigan mahsulotni dozalash uchun dozatorga yuboriladi. Stakanni to'ldirish aniqligi ±2 g. Berilayotgan margarin miqdori qadoqlash avtomatining unumdorligidan 5% ko'proq bo'lishi zarur. Ortiqcha margarin buferli qurilma orqali qaytib bakka tushadi.

To'ldirilgan stakanlar bosma uzelida jipslab berkitiladi, tagiga sana qo'yadigan bosma mexanizmiga o'tkaziladi va o'rash mashinasiga jo'natiladi. O'rash mashinasini qadoqlash avtomatidan keyin o'rnatiladi, u qutilarni shakllantirish, ularni stakanlar bilan to'ldirish va elimlash uchun mo'ljallangan.

Monolit ko'rinishidagi margarin uzlusiz ishlovchi avtomatda bir vaqtning o'zida qutini margarin bilan to'ldirish va tortish bilan qadoqlanadi. Avtomat, gravimetrik to'ldirish tamoyili, yahni massa bo'yicha ishlaydi. U bitta ramaga montaj qilingan o'ng va chap siferblatli tarozidan tashkil topgan. Tarozilar elektron bloklar, elektr magnitli klapan, quyuvchi qurilma, ta'minlash regulatori, uch teshildi kran bilan ta hminlangan.

Tarozilar quyidagicha ishlaydi. Tortish platformasiga ochiq holda pergament yoki polietilen materiali bilan qoplangan qog'oz qutilar qo'yiladi. O'ng tomondagi qutini to'ldirish uchun quyuvchi qurilmaning elektr magnitli klapani avtomatik ravishda ochiladi. Klapan tarozi strelkasi berilgan mahsulotning belgilangan massasini ko'rsatmaguncha ochiq turadi va ish CHap taroziga o'tkaziladi, quyuvchi qurilmaning o'ngida esa margarin quylgan qutiga qo'yiladi. To'ldirilgan qutilar tarozi maydonidan rolikli transportyorga o'tkaziladi. Ta'minlash tezligi regulatori yordamida quti hajmi o'zgarganda, quyuvchi qurilmaga tushadigan mahsulot miqdorini o'zgartirish mumkin.

Agregal unumdorligi t/soatni tashkil qiladi. Mahsulot karton qutilarga 10, 15, 20 kg miqdorda qadoqlanishi mumkin.

### **3. Mayonez mahsulotlarini qadoqlash.**

Mayonez va boshqa yog' tutuvchi mahsulotlar <<Xassiya» tipidagi avtomatlarga qadoqlash uchun PET/PE ikki qatlamlı plyonkali material ishlab chiqilgan.

Material quruq kashirovlash usuli bilan olingan, unda polietilentereftalat va yuqori bosimli polietilen va past bosimli polietilen plyonkalari aralashmasidan foydalaniladi. Rangli bosma ikki qatlama orasiga qo'yiladi. Mayonezga bevosita tegib turadigan ichki qavatga polietilenlar aralashmasi joylashadi.

Mayonez qadoqlash uchun **PET/PE** ikki qatlamlari plyonkali materialni ishlab chiqarishga sog'liqni saqlash idoralari tomonidan ruxsat etilgan.

Mayonez uchun qopqoq va stakanchalarni ham «Illig» va «VanDam» firmasi uskunalariga pnevmo-shakllantirish usuli bilan olinadi.

3-jadval

	Markalar (nusxalar, navlar)	
Tashqi ko'rinishi a) yuzasi b) rangi	P74-EM	P73-EM
Ko'rsatkich nomi	tekis yirtiq, teshik, yoriq va burmalarsiz, chetlari to'g'ri qirqilgan	yirimshaffof shaffof, sariq, yoki shaffof havorang, emas, oq, sariq zangori tuslar tus bilan bilan
CHO' zilgandagi pishiqligi, MPa dan kam emas		
Tortilgandagi nisbiy cho'zilishi, % kam emas	120	120
Harorat bo'yicha yumshaSHi, °S dan kam emas	75-78	78-80
Nadrezli namunalarning zarbali qovushoqligi, kJ/m <sup>2</sup> dan kam emas		
Vodorod xlorid ajralib chiqishiga nisbatan harorat-bardoshligi (175 °C)	Mavjud emas	Mavjud emas
Qizdirishdagi usadka, % dan ko'p emas, suv yutishi, % dan ko'p emas		
Haroratbardoshligi, °c dan ko'p emas	Aniqlanmaydi	Aniqlanmaydi
Suvli tortmaning tahm va xidi	Hidsiz	Hidsiz

Uskunaning unumdorligi, dona/min: stakancha tayyorlash — 240; qopqoq tayyorlash — 250.

Termo-shakllantirish usuli bilan PVX plyonkalaridan polimer idishlar tayyorlash texnologik sxemasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: plyonka o'ramlarini

tayyorlash, stakanchalarni shakllantirish, stakanchalarning yon yuzasiga muhr urish, qopqoq tayyorlash, qopqoqlar yuzasiga muhr urish, tayyor mahsulot sifat nazorati, tayyor mahsulotning qadoqlanishi (o'rash).

4-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Me hyor
Begona qo'shimchalar miqdori	15
180 $^{\circ}\text{C}$ da issiqliq bardoshli, minutdan kam emas	
Namlik va uchuvchan moddalar massa ulushi % dan ko'p emas	
Oquvchanligi, % dan ko'p emas	15
Qotishma oquvchanlik ko'rsatkichi, g/ 10 min. dan ko'p emas	

Fizik-mexanik ko' natkichlariga ko'ra, kompozitsiya 4- jadvaldagagi talab va mehyorlarga javob berishi kerak.

PVXli kompozitsiyalarni yuqori harorat tafsirida ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida vodorod xlorid, yuqori nafas yo'llarigi salbiy tafsir qiluvchi vinil xlorid, dioktilftalat bug'lari ajralib chiqishi mumkin ( $175^{\circ}\text{C}$  dan yuqori). Vodorod xloridning ishchi zonasidagi mumkin bo'lgan chegaraviy konsentratsiyasi  $5 \text{ mg/m}^3$ . Kompozitsiya — qiyin yonuvchan kukunsimon massa.

### Takrorlash uchun savollar

1. Margarin mahsuloti sifatini baholash.
2. Margarin mahsulotini o'rash
3. Margarin mahsulotlarini qadoqlash va rangidagi nuqsonlar.
4. Mayonez mahsulotlarini qadoqlash materiallari hamda qadoqlash.

**8-MA’RUZA**  
**SOVUN VA YUVUVCHI VOSITALARNI QADOQLASH.**  
**Reja:**

1. Xo’jalik sovuni asosiga ishlov berish.
2. Xo’jalik sovuniga ishlov berishning texnologik sxemasi.
3. Atirsovun asosiga ishlov berish.

**1. Xo’jalik sovuni asosiga ishlov berish**

Sovunni sovitish va quritish. Sovitish jarayonida sovun kristallanadi va suyuq holatdan qattiq holatga o’tadi. Sovunning qattiqligi undagi yog’ kislota miqdori, yog’ aralashmasi titri, sovitish usuliga bog hliq bo’ladi.

Sovunni ikkita usul bilan quritish mumkin:

- yog’ kislotalarining konsentratsiyasini o’zgartirmasdan harorat pasayib borishi hisobiga (masalan, «mexanik-modern» qurilmasi);
- yog’ kislotasi konsentratsiyasi ortib borib, namlikning bug’lanishi hisobiga, bu usul afzalroqdir.


Quritish yog’ kislota konsentratsiyasini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Zamonaviy uskunalarda sovitish va quritish birlashtirilgan. Usulning mazmuni shundaki, qizdirilgan sovun vakuum kameraga sepilib quritiladi va sovitiladi.

Sovunni quritish uchun vakuum-quritish kamerasi (2.9-rasm) diametri 1500 mm va bo’yi 4000 mm bo’lgan silindrik apparat bo’lib, sferik qopqoq 3 dan, konus 7 dan va o’tish halqasi 8 dan tashkil topgan. Kamera markazidan val 4 o’tgan bo’lib, u chervyakli reduktor orqali elektr dvigateldan harakatlanadi. Aylanish chastotasi 12,4 ayl/min bo’lgan valga, issiq sovunni purkash uchun xizmat qiladigan ikkita forsunka 2 va kamera ichki devori, tubi va qopqoq’idagi sovunni qirib olish uchun xizmat qiladigan uch xil shaklli po’lat pichoqlar mahkamlangan. Devor va pichoq orasidagi oraliq masofa 0,1 mm dan ko’p emas.

Kameraning silindrik qismida bug’ ko’ylagi 6 bo’lib, yuqori konsentratsiyali

sovun tayyorlash uchun unga harorati 60—98<sup>0</sup>C bo’lgan issiq suv beriladi.

Vakuumli shnek-press (2.10-rasm) sovun qirindisiga mexanik ishlov berish, plastifikatsiyalash, presslash va brus qilib qoliplashga mo’ljallangan. SHnekli mashinani asosiy qismi, bu cho’yandan yasalgan, qarama-qarshi tomonga aylanadigan ikkita shnek 5 dir.




2.9-rasm.

Vakuum-quritish

kamerasi.

SHneklarning o'ramlarining qadami 200 dan 140 mm gacha o'zgaruvchan, diametri 250 mm va uzunligi 1270 mm ga teng. SHneklar stanina 1 ni ustiga o'rnatilgan presslash kamerasi 6 ga joylashtirilgan. SHnek-pressga sovun qirindisi vakuum-quritish kamerasining bunkeri bilan birlashtirilgan yuklash teshigi 7 orqali tushadi. SHneklar aylanganda sovun qirindisi shnekning konussimon bosh qismi 2 tomoniga siljiydi. SHnek o'ramlarining qadami o'zgaruvchan bo'lganligi, materialning harakatiga panjara 3 ni ko'rsatayotgan qarshiligi tufayli sovun qirindisi sekin-asta zichlashadi. Zichlashgan massa teshiklarining diametri 20 mm bo'lgan panjara orqali o'tkazilganda ishqalanadi, so'ngra konussimon bosh qismi 2 ga o'tadi, bu erda qo'shimcha presslanadi, zichlashadi va



2.10-rasm. Vakuumli shnek-press.

Sovun qirindisi shnek-pressdan to'rt qirrali brus ko'rinishida chiqadi. Mashinani bosh qismining chiqishiga to'rburchakli shayba o'rnatilgan, u sovun brusiga kerakli shaklni beradi.

Sovun massasi harakatlanayotganda ortiqcha qizib ketmasligi uchun presslash kamerasining ko'ylagi 4 bor, unga harorati  $12-15^{\circ}\text{C}$  bo'lgan sovuq suv beriladi.


Sovun brusiga silliq, yaltiroq va yoriqlarsiz tekis tus berish uchun shnekning konussimon bosh qismida issiq suv uchun bug' ko'ylagi bor. Issiq suvning harorati 30 dan  $90^{\circ}\text{C}$  gacha o'zgarib turadi va avtomatik termorostlagich yordamida rostlanadi. SHnek-pressning unumdorligi 1 t/soat.

## 2. Xo'jalik sovuni asosiga ishlov berishning texnologik sxemasi.

Xo'jalik sovuni asosiga ishlov berishning texnologik chizmasi (2.11-rasm).

Davriy (bevosita yoki bilvosita) yoki uzluksiz usul bilan tayyorlangan xo'jalik sovuni asosi ta'minlovchi idish 1 dan filtr 2 orqali va  $0,3\text{MPa}$  bosim ostida mehyorlovchi nasos 3 yordamida issiqlik almashuv kolonkasi 4 ga uzatiladi. Bu erda  $80-90^{\circ}\text{C}$  dan  $120-140^{\circ}\text{C}$  gacha isitiladi. So'ngra issiq sovun vakuumquritish kamerasi 5 ga beriladi. Bu erda sovun vakuum-quritish kamerasining valiga mahkamlangan ikkita purkagich orqali sochiladi. Bunda sovun tezlik bilan biroz namligini yo'qotib soviydi va qisman quriydi. Kameraning devorlariga yupqa qatlam bo'lib yopishib qolgan sovun valga o'rnatilgan pichoqlar yordamida qirib olinadi. Qirindi holidagi sovun ikki engli bunker 6 da ikki vakuum shnek-press 7 orasida taqsimlanadi. SHnek-pressda sovun plastifikatsiyalanadi, zich massa hosil qilib presslanadi va mashinadan sovun to'rt qirrali brus shaklida belgilash-kesish avtomat 8 dan o'tadi. U erda sovun

yuzasiga aylanuvchi valiklar yordamida zarur belgi-shtamp qo'yiladi. So'ngra bo'laklarga kesiladi. Tayyor sovun avtomat taxlagich 9 ga borib tushadi, yog'och yashiklarga taxlanadi va transportyor 10 yordamida omborga yuboriladi.



2.11-rasm. Xo'jalik sovuni asosiga ishlov berishning texnologik sxemasi.

Vakuum-kameradan chiqayotgan suv bug'i siklon-separator 11 da sovunli changning asosiy qismidan ajratiladi. U shnek-press 12 yordamida chiqarilib yuboriladi. So'ngra suv bug'i ikkinchi stiklon 13 da sovunli changning qoldiqlaridan tozalanib, bug' ejektor 14 orqali barometrik kondensator 15 ga yuboradi. U erga suv sig'im 16 dan beriladi. Barometrik kondensator 15 dan chiqayotgan suv quvur orqali barometrik quduqqa tushadi, u erdan tozalash tizimiga yuboriladi.

Kondensastiyanmagan bug' va gazlar tomchi-ajratgich 17 va tomchi tutgich 18 orqali vakuum-nasos 19 bilan so'rib olinadi. Vakuum-nasos sovituvchi suvning harorati  $20^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lganda qurilmada 2—4 kPa (15—20 mm sim. ust.) qoldiq bosimni ta'minlaydi. Bu tarkibida 78%gacha yog' kislotasi bo'lgan sovun ishlab chiqarishga etarli bo'ladi. Vakuum quritish kamerasining unumdorligi xo'jalik sovuni uchun soatiga 2 t. ga teng.

### 3. Atirsovun asosiga ishlov berish

Atirsovun asosiga ishlov berish xo'jalik sovuniga o'xshab vakuum-quritish kamerasi va mexanik ishlov berish uchun bir qator ketma-ket ishlaydigan shnekli mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Bizning korxonalarda unumdorligi 2 t/soat eLM liniyalari keng qo'llaniladi. Bahzilarda esa unumdorligi 4 t/soat bo'lgan «Massoni» liniyasi joriy qilingan.

ELM liniyasida atirsovun asosiga ishlov berish texnologik chizmasi (2.16-rasm). Atirsovun asosi sovun yig'gich 1 dan ta'minlovchi nasos 2 yordamida filtr 3 orqali

ta'minlovchi idish 4 ga haydaladi. U erdan mehyorlovchi nasos 5 orqali issiqlik almashuv kolonkasi 6 ga yuboriladi. Bu erda  $80-85^{\circ}\text{C}$  dan  $120-160^{\circ}\text{C}$  gacha isitiladi. Qizdirilgansovun 0,5 MPa bosim ostida vakuum-quritish kamerasi 7 ga kelib tushib, forsunkalar orqali purkaladi. Kameradagi qoldiq bosim 15—40 mm sim.ust. ga teng. Sovun qirindisi vakuum ostida ishlaydigan ikkilamchi shnek-press 8 ga kelib tushadi. U erda sovun qirindisi ikki marta zichlanadi, plastiklanadi, quritiladi, panjaradan siqilib chiqarib, pichoqlar yordamida mayda donalarga kesiladi. Sovunli vermeshel bunker 19 ga yuboriladi.


Bug'-gazli aralashma birinchi siklonga borib tushadi, u erda markazdan qochma kuch tafsiri va tezlik farqida sovunli chang ajralib, siklonning pastki qismiga o'tirib qoladi va shnek-press 11 yordamida chiqarib yuboriladi. So'ngra bug'-gazli aralashma nazorat sikloni 12 ga uzatilib, u erdan barometrik sovitgich 13 ga yuboriladi. Sovitgichda  $14-16^{\circ}\text{C}$  li sovuq suv bilan aralashadi. Suv barometrik quvur orqali 15 quduqqa oqib tushadi. Kondensatsiyalanmagan gazlar va havo vakuum-nasos 17 yordamida tomchi ajratgich 14 va tutgich 16 orqali so'rib olinadi.

Sovunli qirindi bunker 19 dan shluzli zatvor 20 orqali aralashtirgich shnek-press 21 ga kelib tushadi. U erda hid beruvchi moddalar, bo'yoqlar bilan yaxshilab aralashib, zichlanadi, panjaradan siqilgandan so'ng pichoq bilan kesilib, vermeshel hosil bo'ladi. Vermishel transportyor 22 orqali ikki pog'onali vakuum shnek-press 23 ga uzatiladi. U erda oxirgi ishlov beriladi va u erdan to'rt brusok holida siqib chiqariladi.

So'ngra sovun kesish mashinasи 24 ga borib, sovun bo'laklari shamol purkash tunneli 25 da issiq havo bilan quritiladi. Sovunning yuzasida hosil bo'lган qattiq qatlam shtamp tiniqligini oshiradi.


Sovun ikki jilg'ali shtamp-press 26 ga uzatilishdan oldin ikki oqimga ayirgich yordamida taqsimlanadi. SHtamplangan sovun o'raydigan avtomatdan o'tib, qadoqlashga yuboriladi. O'ralmagan sovun ishlab chiqarishda, sovun bo'laklari shtamp-pressdan keyin darhol qadoqlashga uzatiladi.

(Massoni» liniyasida atirsovun asosiga ishlov berishning texnologik sxemasi (2.17-rasm). Bu qurilmaning unumдорлиги 4 t/soat, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish darjasи yuqori, tarkibida 80% yog' kislotasi bor atirsovun ishlab chiqarishga imkon beradi. Sirkulatsiyalanadigan suv bilan sovitiladigan yuza kondensatorlarining mavjudligi oqovasiz texnologiyani ta'minlaydi.



2.16-rasm. Uzluksiz ishlaydigan ELM liniyasida atirsovun asosiga ishlov berish texnologik sxemasi.

Atirsovun asosi



2.17-rasm. «Massoni» liniyasida atirsovun asosiga ishlov berish texnologik sxemasi.

Restepturaga muvofiq quruq va suyuq ingredientlarni dozalash va aralashtirish maxsus moslama yordamida amalgalashgan. Ishlatilgan havoni tozalash uchun pnevmotransport ko'zda tutilgan. Hamma uskunalar zanglamaydigan po'latdan yasalgan. Qurilma quyidagicha ishlaydi.

Tarkibida kamida 62% yog' kislotasi va harorati 85—90<sup>0</sup>C bo'lgan atirsovun asosi sovun yig'gich 1 dan nasos 2 yordamida filtr 3 orqali 3,5 m<sup>3</sup> hajmli doimiy sathli sig'im 4 ga uzatiladi. Sovun asosi sig'im 4 dan shestemali nasos 5 bilan 0,6 MPa bosim ostida ikkita ketma-ket ulangan issiqlik almashtirgichlar 6 orqali atomizator 11 ga uzatiladi. Issiqlik almashish yuzasi 81,4 m<sup>2</sup> bo'lgan issiqlik almashtirgichlarda 0,6 MPa bosimli bug' bilan, sovun 140—145<sup>0</sup>C gacha qizdiriladi.

Atomizator (quritish kamerasi) vakuum ostida purkash usuli bilan sovunni quritishga xizmat qiladi. Kameradagi qoldiq bosim 5,03 kPa (40 mm sim. ust.)ga teng.

Qizdirilgan sovun purkagichlar bilan kamera devorlariga sepiladi, pichoq-qirgichlar yordamida qirib olinadi va qirindi holida 34—35<sup>0</sup>C haroratda birlamchi ikki shnekli ekstruder 10 ga tushadi, so'ngra qirindi vakuum-kamera orqali tugal ekstruder 9 ga o'tadi, bu erda sovun asosini zinchlash, presslash, plastifikatsiyalash va teshiklarining diametri 12 mm bo'lgan panjaradan zo'r lab o'tkazish sodir bo'ladi.

Atomizatordan chiqqan suv bug'i, sovun changi va gazlar siklon-separatorlar 12 va 13 ga boradi. Bu erda gaz oqimi bilan ilashib ketgan sovun zarrachalari markazdan qochma kuch tahsirida va gaz oqimi tezligining o'zgarishi natijasida siklonning tubiga cho'kadi. To'planib qolgan cho'kma shneklar 14 va 15 yordamida ekstruder 10 ga beriladi. Suv bug'lari va gazlar yuza kondensatori 16 ga boradi, bu erda kondensatsiyalanadi va barometrik quvur bo'y lab barometrik quduq 17 ga oqib tushadi. Bu erdan tarkibida sovun bo'lgan suv sovun pishirish qozonlariga yuboriladi. Havo va kondensatsiyalanmagan gazlar tomchi tutgich orqali vakuum-nasos 18 bilan so'rib olinadi.

YUza kondensatori 16 ni sovitish uchun liniya majmuasida mavjud bo'lgan freonli sovitish qurilmasida sovitilgan, harorati 18<sup>0</sup>C dan yuqori bo'limgan suvdan foydalilaniladi.

Tugal ekstruder 9 dan sovun ver misheli Venturi quvuri mavjud bo'ligan yuklash voronkasi 8 ga keladi va pnevmoo'tkazgich 7 bo'y lab ajratish sikloni 20 orqali sovitilgan sovunni saqlaydigan bunker 19 ga uzatiladi.

Tarkibida sovun changlari bo'lgan havo havo o'tkazgich 21 bo'y lab filrlash yuzasi 284 m<sup>2</sup> bo'lgan engchali filtr 22 ga boradi. Filtrni lozalash avtomatik holda, bosimi 0,5—0,75 MPa bo'lgan siqilgan havo bilan amalga oshiriladi.

Pnevmotransport tizimi uchun havoni siyraklashtirish havo puflagich bilan hosil qilinadi. Tozalangan havo havo o'tkazgich 23 orqali atmosferaga chiqarib yuboriladi.

Sovunga ishlov berish, unumdorligi 2 t/soatdan bo'lgan ikkita oqimda Olib boriladi. Bu oqimlar uskunalarini bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin. Masalan, bir xil sovun asosidan foydalanib ikki xil navli sovun ishlab chiqarish kerak bo'lsa, oqimlarda komponentlarni dozalash uchun turli uskunalar va atirsovun massasiga ishlov berish uchun turli usullar tanlanadi.

Firma tavsiya qilgan variantlardan biri bo'yicha sovun ver misheli bunker 19 dan BDM rusumli aralashtirgich 24 ga keladi. Bu erda qo'shimcha komponentlar (hid, rang beruvchi moddalar, antioksidant, plastifikator va boshqalar) qo'shiladi. BDM uzelida suyuq va kukunsimon qo'shimchalarni alohida dozalash, ularni sovun massasi bilan aralashtirish imkoniyati yaratilgan.

Suyuq ingredientlar haroratni  $50-60^{\circ}\text{C}$  ushlab turish uchun isituvchi (TEN)lar va aralashtirgichlar bilan ta'minlangan rezervuarlarda tayyorланади. Qo'shimchalarni kerakli miqdori nasosdozatorlar yordamida uzlucksiz holda aralashtirgichga uzatiladi, u erdan sovun asosi tilishlash uchun bir shnekli ekstruder 25 ga beriladi.

Diametri 8 mm bo'lgan sovun ver misheli ekstruder 25 dan lentali transportyor 26 yordamida uch valikli yanchish uskunasiga uzatiladi. Bu erda «**Bargsimon**» sovun hosil qilish bilan tilishlash davom ettiriladi. «**Bargsimon**» sovun lentali transportyor orqali sovun massasiga tugal ishlov berish, brus holida qoliplash uchun ekstruder «**Dupleks**» 29 ga beriladi.

Ekstruder konusidan chiqayotgan ikkita sovun brusi unumdorligi minutiga 200 sovun bo'lagi bo'ligan kesuvchi mashina 30 bilan bo'laklarga kesiladi. Sovun bo'laklari transportyor 31 yordamida ikki yo'nalishli shtamp-press 32 ga beriladi. Bu erda sovunni 100 va 200 gr. massali to'rtburchak, 150 gr. massali oval va figurali shakllari hosil qilinadi.

Sovun bo'lagiga yaltiroq tus berish va matritsan yuzasiga yopishib qolishini oldini olish uchun matritsa 55%li etilen glikol eritmasi bilan freonli sovitgich yordamida sovitiladi. Sovituvchi suyuqlikning harorati sovun titri va qo'shimcha moddalarning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, qo'shimchasiz, yuqori titrli sovunlar uchun  $(-10)\div(-12^{\circ}\text{C})$ , pa harorat past titrli yog'lovchi qo'shimchali hun  $(-25)\div(-30^{\circ}\text{C})$  sovunlar uchun bo'lishi kerak.

Kesish va shtamplashdan keyin sovunning ortiqcha va yaroqsiz bo'laklari transportyor yordamida ekstruder 29 ga qaytariladi.

SHtamplangan sovun bo'laklari ikkita transportyor yordamida bir, ikki va uch qavat qilib o'raydigan («Akma-711») firmasining o'rovchi mashinasi 34 ga beriladi. Sovun bo'lagining massasi 100 va 150 gr. bo'lsa, uch qavatli o'ram zarur,

200 gr li sovunga bir yoki ikki qavatlari o'ram kifoya qiladi. Mashinaning unumdorligi 100 gr. massali bo'laklar uchun minutiga 170+ 180, 150 gr. li bo'laklar uchun 140 va 200 gr. lilar uchun 120 bo'lakni tashkil qiladi.

YOrliqlarni yopishtirish uchun polivinilasetat emulsiyasidan foydalilanildi. YOpishtirilgan yorliqlarning qurishini tezlashtirish maqsadida sovun bo'laklari isituvchi transportyorga keladi. O'ralgan sovunlarning ikki oqimi tasmali transportyor 36 yordamida guruhlovchi tizim 37 ga yuboriladi. Bu erda bitta oqim shakllantirilib, («Akma-773-5-2T») firmasining taxlovchi avtomati 38 sovun bo'laklarini qatma-qat kartondan yassalgan qutilarga taxlaydi. Karton qutiga 100 gr. li sovun bo'lagidan 140 ta, 150 gr. Iidan 96 ta va 200 gr. Iidan 108 dona solinadi.

Sovun solingan karton qutilar banderollaydigan mashina 39 «Akma-784-N-TV» gaberiladi.

Karton qutilar transportyor 40 va ko'taruvchi uskuna 41 yordamida tayyor mahsulot omboriga yuboriladi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Sovunlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari haqida nimalar bilasiz?
2. Sovun polimorfizmi haqida qisqacha mahlumot bering.
3. Sovunli eritmaning fizik-kimyoviy xossasi haqida tushuntirib bering.
4. Davriy usulda sovun pishirish haqida gapirib bering.
5. Uzluksiz usulda xo'jalik sovuni tayyorlash haqida gapirib bering.
6. Atirsovun asosi qanday tayyorlanadi?
7. Sovunni qayta ishslash va uni tovar holatiga keltirish haqida qisqacha mahlumot bering.
8. Sovunni sovitish va quritish jarayonini tushuntirib bering.
9. Xo'jalik sovuniga ishlov berish texnologiyasi haqida gapirib bering.
10. Atirsovunga ishlov berish texnologiyasini qisqacha tushuntirib bering.
11. Xo'jalik va atirsovunlarning sifat ko'rsatkichlari qanday bo'lishi kerak?

## **9-MA'RUZA YOG'-MOY KORXONALARINING IKKILAMCHI MAHSULOTLARINI QADOQLASH**

### **Reja:**

1. Yog'-moy korxonalarining ikkilamchi mahsulotlari shulxa, kunjara va shrot.
2. Urug'larning kunjara va shroti tarkibi.
3. Fosfotid kansentrati
4. Shrot va kunjara va shulxani standart bo'yicha qadoqlash va saqlash

## **1. Yog'-moy korxonalarining ikkilamchi mahsulotlari shulxa, kunjara va shrot.**

Kunjara va shrot — bu zavodlarda moyli ekin urug'lari va makkajo'xori kurtagidan maydalab, moy olish natijasida hosil bo'ladigan qo'shimcha mahsulotlardir. Kunjara va shrot qishloq xo'jaligi hayvonlari doimo ishtaha bilan istehmol qiladigan eng qimmatli emdir. Ular xalqaro savdoda ham qimmatli ozuqa hisoblanadi.

**Kunjara** urug'lar presslab olinadi va buning natijasida undan moyning asosiy qismi ajraladi. Boshqacha qilib aytganda, bu presslangan yog'sizlantirilgan urug'lardir. Kunjaradagi moy miqdori, odatda, 6—9 % dan oshmaydi. U presslash usuli (sovuv yoki issiq) va qo'llaniladigan mashina tipigabog'liq. Qishloq xo'jaligi tipidagi zavodlarda kunjara olinganda, lining tarkibidagi moy zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan zavodlardan ishlab chiqarilgan kunjaranikiga qaraganda ko'p bo'ladi. Moydan tashqari, kunjarada urug' tarkibiga kiruvchi, deyarli, barcha moddalar saqlanadi.

Moyni sovuq presslash usuli bilan (urug'larni qizdirmasdan) olganda kunjara va urug' moddalari sifati bo'yicha urug' moddalaridan farq qilmaydi, issiq presslash usuli (urug'larni dastlabki qizdirish)da esa moddalarning bahzi bir o'zgarishi (oqsillar denaturatsiyasi va boshqalar) kechadi. Kunjara gidravlik presslar qo'llanilgan holda qalinligi 38 mm, uzunligi 900 mm. ga yaqin, kengligi 350 mm bo'lgan zinch presslangan plita ko'rinishida yoki uzlusiz ishlovchi shnekli presslarni qo'llagan holda shakli bo'yicha chig'anojni eslatuvchi bo'lakchalar ko'rinishda ishlab chiqariladi. Bahzan kunjara maydalangan ko'rinishda tayyorlanadi.

**Shrot** maydalangan moyli ekinlar urug'ini erituvchilar (benzin, dixlor etan va boshqalar) yordamida ekstraksiyalash yo'li bilan moyi olingan mahsulotdir. Ekstraksiyalash tugashi bilan erituvchilar urug' qoldiqlaridan haydalib, quritiladi, shuning uchun shrot hamma vaqt oquvchan mahsulot hisoblanadi. Ekstraksiyalashda moyning katta qismi erituvchi bilan ajraladi, shuning uchun shrot tarkibida uning miqdori ko'p emas (0,7-4 %).

Kunjara va shrot oqsilga boy, ko'p miqdorda kletchatka hamda pentozalarga ega. Ular mineral moddalarga, xususan, kaliy va fosforga serob. Ularda V va e guruh vitaminlari ancha mo'l. Oqsil miqdori jihatdan ular urug'dan ustun turadi va shuning uchun yuqori ozuqa qiymatini namoyon qiladi.

Qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun mo'ljallangan omixta emga turli kunjara va shrot - 5 %dan 35 % gacha, parrandalar uchun - 12 dan 20 % gacha quritiladi.

## **2. Urug'larning kunjara va shroti tarkibi.**

Fizikaviy holati bo'yicha omixta emning quyidagi turlari mavjud: *sochiluvchan, briketlangan, donador va galet ko hrinishidagi emlar.*

Hayvonlarning yoshi va boqilish turiga bog'liq holda omixta em assortimenti o'zgaradi. Omixta em ishlab chiqarish uchun shartli ravishda guruhlarga bo'linuvchi turli xil xomashyolar qo'llaniladi. Bu xom ashyolarning bahzi turlari mustaqil holda ozuqa mahsulotlari sifatida ishlatiladi, omixta em ishlab chiqarishda esa uning tarkibiga ingredientlar ko'rinishida kiritiladi. Omixta em zavodlariga kelib tushadigan xomashyolar ko'p hollarda ishlab chiqarish chiqindilari hisoblanadi.

*Kungaboqar kunjarasi va shroti.* Kungaboqar urug'laridan olinadi. Ular yuqori qiymatli oqsilga boy em hisoblanadi va chorva mollari tomonidan sevib istehmol qilinadi. 100 kg kungaboqar shrotining oziqaviy qiymati 104 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg kungaboqar shroti tarkibida 38,6 % xom protein; 3,6 % xom yog'; 14,1 % kletchatka; 1,38 % lizin; 1,84 % metinonin + sistin; 0,33 % kalsiy; 0,82 % fosfor va 0,94 % natriy mavjud. 100 kg shrot - 267 kkal almashinadigan energiyaga ega. Kungaboqar kunjarasining oziqaviy qiymati birmuncha yuqori. Tarkibida puchog'i ko'p bo'lgan kunjara va shrotni maydalash zarur.

*Zig'ir kunjarasi va shroti.* Zig'ir urug'idan yog' ishlab chiqarishda oli-nadi. Zig'ir kunjarasi suvda elim (shilimshik modda) hosil qilib bukadi. Bu xususiyat, zig'ir kunjarasining, hayvonlarning ichaklari devorini elim bilan qoplab olib, ularning yallig'lanishdan saqllovchi parhezboplilik xossa-larini tavsiflaydi.

Asosan yosh hayvonlarning, suvda tez bukmaganligi sababli baliqlarning omuxta emiga kiritiladi. 1 kilogramining tarkibida 200 mg sinil kislotasi bo'lgan zig'ir kunjarasi va shroti hayvonlarga berishga tavsiya etilmaydi. 100 kg zig'ir kunjarasi oziqaviy qiymati 113 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg zig'ir shroti tarkibida 31 % xom protein; 3,6 % xom yog'; 9,4 % sellyuloza; 1,12 % lizin; 0,8 % metionin + sistin; 0,33 % kalsiy; 0,14 % natriy; 0,14 % fosfor mavjud. 100 kg shrot - 288 kkal almashinadigan energiyaga ega.

*Eryong'oq kunjarasi va shroti.* O'simliklardan olinadigan eng yaxshi oqsilli em hisoblanadi. Oqsillar tarkibida 6 % gacha lizin mavjud. 100 kg kunjranning oziqaviy qiymati 124 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg eryong'oq kunjarasida tarkibida 40,3 % xom protein; 3,9 % xom yog'; 6,5 % sellyuloza; 1,59 % lizin; 1,01 metionin + sistin; 0,04 % kalsiy; 0,92 % fosfor va 0,05 % natriy mavjud. 100 kg kunjara - 310 kkal almashinadigan energiyaga ega.

*Soya kunjarasi va shroti.* Biologik qiymatiga ko'ra, tarkibida almashtinmaydigan aminokislotalar bo'lganligi sababli eng yaxshi oqsilli emlar-ga kiradi. Ayniqsa ular hayvon bolalari va parrandalar uchun yaxshi em hisoblanadi. 100 kg kunjarada 38,2 % xom protein; 7,2 % xom yog'; 5,3 sellyuloza; 2,78 %

lizin; 1,19 % metinonin + sistin; 0,43 % kalsiy; 0,69 % fosfor va 0,05 % natriy mavjud. 100 kg kunjara - 315 kkal almashinadigan energiyaga ega. Soya shroti ham taxminan shunday oziqaviy qiymatga ega.

*CHigit kunjarasi va shroti.* Tarkibida zaharli gossipol moddasi bo'lganligi sababli omuxta em ishlab chiqarishda cheklangan miqdorda ishlataladi. CHigit shrotidan hayvonlarning barcha turlari, ayniqsa yosh mollar zaharlangan. Tarkibidagi erkin gossipolning miqdoriga qarab kunjara va shrotning omuxta emga qo'shiladigan miqdorini keskin meyorlarga ko'ra belgilash lozim. 100 kg kunjaraning oziqaviy qiymati 106 oziqaviy birlikka to'g'ri keladi. 100 chigit kunjarasi tarkibida 20,6...34,9 % xom protein; 7,3 % xom yog'; 11...14 % sellyuloza; 1,59 % lizin; 1,03 metinonin + sistin; 0,31 % kalsiy; 0,97 % fosfor va 0,24 % natriy mavjud. 100 kg kunjara - 259 kkal almashinadigan energiyaga ega. CHigit shrotining oziqaviy qiymati 106 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrot tarkibida 37,8...45 % xom protein; 1,3 % xom yog'; 12,7 % sellyuloza; 1,86 % lizin; 1,37 % metinonin + sistin; 0,24 % kalsiy; 1,15 % fosfor va 0,25 % natriy mavjud. 100 kg shrot - 225 kkal almashinadigan energiyaga ega.

*Koriandr kunjarasi va shroti.* Bular koriandr mevalaridan efir moyi olishda hosil bo'ladigan qo'shimcha mahsulotlar hisoblanadi. 100 kg shrotning oziqaviy qiymati 66 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrotda 17,6 % xom protein; 1,1 % xom yog'; 25,7 % kletchatka; 0,67 % lizin; 0,42 % metinonin + sistin; 1,21 % kalsiy; 0,6 % fosfor va 0,25 % natriy mavjud. Koriandr kunjarasi va shroti faqat yirik qoramollarga mo'ljallangan omuxta emlarga 7...10 % miqdorda qo'shiladi.

*YOg'sizlantirilgan kanakunjit (oziqaviy) shroti.* Kanakunjit urug'la-ridan yog' olishda hosil bo'ladi. SHrot tarkibida ritsin bo'lmasligi kerak. SHrot sogni sigirlar, yirik qoramollar, bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalarni oziqlantirishga mo'ljallangan va yopiq suv havzalarida boqiladigan krap baliqlariga mo'ljallangan omuxta emlarga qo'shiladi. 100 kg shrotning oziqaviy qiymati 33 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrot tarkibida 36,4...40,9 % xom protein; 1,9 % xom yog'; 28,6 % sellyuloza; 1,22 % lizin; 1,57 % metinonin + sistin; 0,73 % kalsiy; 0,47 % fosfor va 0,08 % natriy mavjud.

*Makkajuxori oziqa shroti.* YOqimli hidga ega bo'lib, barcha turdag'i chorva mollari uchun yaxshi em bo'lib hisoblanadi. SHrot makkajuxori murtagidan yog' olishda hosil bo'ladi. 100 kg shrotning oziqaviy qiymati 116 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrotda 18,2 % xom protein; 1,9 % xom yog'; 7,6 % sellyuloza; 0,94 % lizin; 0,72 % metinonin + sistin; 0,05 % kalsiy; 0,36 % fosfor va 0,03 % natriy mavjud.

### 3. Fosfotid kansentrati

Fosfatid konsentrati. Ko'pchilik yog' zavodlarida yog'dagi fosfatidlar (letsitin) eritmasi asosiy ishlab chiqarishning oraliq mahsuloti sifatida hosil bo'ladi. Konsentrat tarkibida hayvonlar organizmida modda almashinuvini stimullaydigan kimmatlari biologik faol moddalar mavjud. 100 kg fosfatid konsentrating oziqaviy qiymati 350 oziqa birligiga to'g'ri keladi. Fosfatid konsentratida holin, tokoferol (E vitamini) kabi qimmatli moddalar mavjud. Fosfatid konsentrat kimyoviy tarkibiga ko'ra yog'larga yaqin turadi. Letsitining o'zi va uning tarkibidagi tokoferol, holin va boshqa moddalar biostimullovchi xossalarga ega. Fosfatid konsentrat och yoki tuk-jigari rangli surkaluvchan yoki quyuq suyuqlikdan iborat. Fosfatid konsentrat saqlashga chidamlı, 100 °S haroratgacha qizdirishga bardosh beradi, ammo ishlab chiqarish sharoitlarida uni 80 °S dan yuqori haroratgacha qizdirish tavsiya etilmaydi.

#### **4. Shrot va kunjara va shulxani standart bo'yicha qadoqlash va saqlash**

Kunjara va shrot mahsulotlarini qadoqlash, tamg'alash, tashish va saqlash ishlarini standartlashtirish. Kunjara, shrot, shulxani idishlarga solib qoplash uchun standartlar quyidagi meyorlarni belgilaydi: SHrot, shulxa, kunjara uchun 25; 30; 50; 60: kg; SHulxa, shrot va kunjarani polietilen plyonkasidan tayyorlangan paketlarga ham qadoqlash mumkin. shrot, (shulxa,) kunjara solingan paket va xaltalarning umumiy vazni 15-30 kg dan ortiq bo'limgan karton yoki fanera qutilarga qadoqlash mumkin. Paket va xaltachalarga koplangan SHulxa, shrot va kunjarani avtomobil transportida tashish uchun ular uskuna – idishlarga joylashtiriladi. Bundan tashqari shulxa, shrot va kunjarani yangi va ishlatilgan matoli qoplarga (50,70 kg) qoplash mumkin. Idish va qoplarning ustiga tipografik usulda yoki shtamp yordamida markalash tamg'asi bosiladi. Qoplash paytida har qaysi shulxa, shrot va kunjara solingan xaltaning ustiga o'lchami 6 x 9 sm li mustahkam elastik kartondan, xaltabop qog'oz yoki A rusumli qog'ozdan qirkib tayyorlangan markalash yorlig'i tikilgan yoki yopishtirilgan bo'lishi kerak. YOrliqda mahsulotni tavsiflovchi quyidagi mahlumotlar yozilgan bo'lishi kerak: ishlab chiqaruvchi o'rni va qaysi o'rniga qarashliligi; mahsulotning nomi (turi, navi, birinchi nav uni vitaminlashtirilgan bo'lsa, yirik shrift bilan ajratilib ko'rsatiladi); vazni (kg); ishlab chiqarish sanasi (yil, oy, chislo, smena nomeri); mahsulotga qo'yilgan standart belgisi. Standartga muvofiq har qaysi tur mahsulot idishning ustiga oziq-ovqat va energiyaviy qimmati: 100 gr mahsulotdagi oqsil, yog' va uglevod miqdorlari ko'rsatilladi. Mavjud standartlarga muvofiq SHulxa, shrot va kunjarani yopiq transport vositalarida shu transport turlarida mahsulot tashish qoidalariga muvofiq ravishda, shuningdek universal konteyner va paketlarda tashiladi. Shulxa, shrot va kunjarani temir yo'l transportida tashish

uchun yopiq vagonlardan foydalaniladi. Mahsulot xavo transportida tashilishi uchun ular albatta konteyner yoki yashiklarga joylashtirilgan bo'lishi shart.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Oziq-ovqat mahsulotlariga qanday standart talablar qo'yiladi?
2. SHulxa, shrot va kunjarani standartlashtirish qanday amalga oshiriladi?
3. Tayyor mahsulotlarni qadoqlash, idishlarga joylash va saqlashga qanday standart talablar qo'yiladi?
4. Fosfatid konstentrati nima?

### **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Qodirov Y.,RoziboevA.Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. Darslik-T; Fan va texnologiya-2014.-320b.
- 2 Qodirov Y.,Raximov M Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. Darslik.-T.,Uqtisod-Moliya 2013/-300b
- 3 QodirovV.,D. Ravshanov,A Ro'ziboev «Osimlik moylari ishlab chiqarish texhologuyasi»Darslik.-Cholpon,Tashkent.,-2014.-320b

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Arutyunyan N.S Arshiev E. A., Yanova L.I. Texnologiya pererabotki jirov.Uchebnik.-M Agropromizdat-1985-367s
2. Rukovodstvo po texnologii polucheniya ipererabotki rastitel'nix masel i jirov .Pod .redaksii.A.G Sergeeva L.Uchebnoe posobie.:BNIIJ tom2,- 1973,tom 3kn. 1,-1985.kn.2-1977
3. Arutyunyan N. S. Kornena E. P.,YanovaA. I.i dr. Texnologiya pererabotki jirov Uchebnik.2-e izd M.pishepromizdat,-1998.-451
4. Vasil'eva G.F. "Dezodarasiya v maslojiroviy promishlennosti." posobiye.- M-2003.-174s
5. Glushenkova A. I.,Markman A.A."Gidrogenizasiya jirov. Uchebnoe posobiye"
- 6 Zayseva L.B.,Nechaev A. P" Jiri I masla. ovremennie podxodi k modernizasii tradisionnih texnologii" Ushebnoe posobie.
- 7 Nechaev A. P.,Kochatkova A.A.I dr «Mayonezi» Uchebnoe posobiye Sankt-Peterburg.,-2000s74
- 8 QodirovV.,"YOg'larni qayta ishlash texnologiyasi." Labohotoriya mashg'ulotlari Uquv qo'llanma.T.Cholpon,-2005,-168b.
- 9 Arutyunyan N. S.,Koriyeva E.P.,Nesterova E.A.Rafinasiya masel I lirov». Ushebnoe posobie.Sankt –Peterburg.GUORD.-2004.-288s.

### **Internet saytlaru**

1. [www.jmcatalalystscom](http://www.jmcatalalysts.com)
- 2.[www.viniti.ru](http://www.viniti.ru)
- 3.[www.bASF-catalysts.com](http://www.bASF-catalysts.com)
- 4.[www.oilworld.ru](http://www.oilworld.ru)
- 5.[www.edi.uz](http://www.edi.uz).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM**  
**VAZIRLIGI**  
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI» kafedrasi

**5321000 – Oziq-ovqat texnologiyasi (yog'-moy mahsulotlari)**

**ta'lif yo'nalishi talabalari uchun**

**«YOG'-MOY MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QADOQLASH TEXNOLOGIYASI»**  
fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun

**USLUBIY KO'RSATMA**



**NAMANGAN – 2020**

5321000 – Oziq-ovqat texnologiyasi (yog'-moy mahsulotlari) talim yo'nalishi talabalari uchun o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Uslubiy ko'rsatma Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Oziq-ovqat texnologiyasi” kafedrasи yig'ilishi (2020 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - sonli bayonnomda ko'rib chiqilib, chop etishga tavsiya etildi.

Institut ilmiy-uslubiy Kengashining “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2020 yilda \_\_\_ - sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va chop etishga ruxsat etildi.

Tuzuvchilar:

PhD. D.A. O'ktamov

Assistent:

ass. Z. Voqqosov

Taqrizchi:

“Oziq-ovqat texnologiya” kaфedrasи

doss., t.ф.n. A.Xamdamov

## KIRISH

«Yog'-moy maxsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi» fanining vazifasi texnologik jarayonlarni va ularning nazariy asoslarini, o'simlik moylarini ishlab chiqarish texnologik rejimlari, shuningdek mahsulotning sifatini boshqarish asoslari, xom ashyo chiqindi, oraliq va tayyor mahsulotlarning tahlil usullarini chuqur va har tomonlama o'rgatishdir.

Ushbu uslubiy ko'rsatma «Yog'-moy maxsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi» fan dasturiga muvofiq tuzilgan bo'lib, Namangan muhandislik- texnologiya institutining 5321000 – Oziq-ovqat texnologiyasi (yog'-moy mahsulotlari) yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Ko'rsatmaning asosiy maqsadi talabalarining o'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi jarayonlarining moddiy, hamda yordamchi materiallar hisoblarini bajarishida yordam berishdir. Shuning uchun tahvilning bayoni bilan bir qatorda yog'-moy mahsulotlarini saqlash, qadoqlaqsh xamda, yordamchi materiallar xisobi, mahsulot balansiga tegishli malumotlar berilgan.

Bundan tashqari xom ashyo va materiallar vaqt birligiga (soat, sutka, yil) nisbatan ham hisoblanadi. Xom ashyo va materiallar sarfini xisoblash sanoatning malumotlariga va nazariy xisoblarga asoslanadi. Agar bir xil xom ashydandan bir necha xil maxsulot ishlab chiqarilsa, u xolda xom ashyo sarfi xar bir ishlab chiqarilgan maxsulotga nisbatan xisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi qaytmas isroflar xom ashyo va tayyor maxsulotni chiqish orasidagi farqdan xisoblanadi.

Xom ashyo, materiallar, isroflar sarfini xisoblash natijalari qulay bo'lishi uchun jadvalda keltiriladi. Bu jadval moddiy balans deb ataladi.

Bug', suv, energiya va xokazolarni sarfi va xom ashyo va materiallarning sarf bo'ladigan miqdoriga bog'liq bo'ladi.

«Yog'-moy maxsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi» fanidan ishchi o'quv dasturiga asosan 7 ta amaliy mashg'ulot belgilangan.

Uslubiy ko'rsatma oxirida adabiyotlar ro'yxati berilgan bo'lib, bu adabiyotlar sinov va imtihonlarga tayyorlanish uchun talabalarga yordam beradi.

## 1-AMALIY MASHG'ULOT

### MOYLI URUG'LARNI SAQLASHDA CHIQINDI VA YO'QOTISHLARNI XISOBLASH.

**Moyli urug'larni qabul qilib olish.** Yog'-moy sanoatida qayta ishlanayotgan barcha moyli urug'lar zavodlarga to'g'ridan-tug'ri shirkat va jamoa xo'jaliklaridan olib kelinadi. Faqatgina paxta chigit bundan mustasnodir. Chigit moy zavodlariga paxta tozalash zavodlaridan yetkazib beriladi. Umuman olganda moyli urug'lar avtomobil, temir yo'l va suv transporti yordamida tashiladi. Keltirilgan xar bir alohida miqdor urug'lar o'zining maxsus sifat belgilariga ega. Bular: namlik, ifloslik, moylilik, hamda paxta chigit uchun esa, qobiq ustidagi kalta momiq miqdori bilan belgilanadi.

Keltirilgan har bir partiyadan xom ashyning har yeridan turli chuqurlikda analiz uchun bir qancha miqdorda xom ashyo ajratib olinadi. Namuna uchun olingan xom ashyning yarimisi qopqog'i zich yopiladigan metall idishlarda yoki tselofan qopchalarda bir oy muddatda saqlab turiladi.

Olingen natijalar qabul qilingan urug'ning sifat va navini belgilaydi. Mabodo olingen analiz natijalari urug'ning sertifikatidagi ko'rsatkichdan farqli bo'lsa, xom ashyo yuboruvchi va qabul qiluvchi tashkilot o'rtasida bu farq "Sifat" markazi vakili ishtirokida o'zaro kelishuv yo'li bilan bir xulosaga kelinadi. Mabodo ikkala tomon odil bir fikrga kelisha olmasa, bu masala arbitraj yordamida hal qilinadi.

Zavodga etib kelgan xom ashyo maxsus torozilar (avtomobil, temir yul torozilari) yordamida tortiladi so'ngra, xom ashyo mexanizatsiyalashtirilgan moslamalar yordamida zavod omborlariga joylashtiriladi. Bu jarayonlar uchun maxsus avtomobil ag'dargichlar, vakuum-bo'shatgichlar, vibroko'priklar, ba'zan esa, o'z-o'zidan bo'shaydigan vagonlar ishlatiladi. Mahsulotni esa transport vositalari yordamida omborxonaning kerakli qismiga yo'naltirish uchun zavodda ishlatiladigan uzatuvchi vositalardan foydalilanadi. Bularga shneklar, redlerlar, tansport lentalari, o'zi yurar moslamalar, noriyalar, pnevmotransport va boshqalar kiradi.

**Moyli urug'larni saqlash.** Moyli urug'larni saqlash o'simlik moyi olish jarayonida asosiy hollardan biri hisoblanadi. CHunki to'g'ri tashkil qilingan saqlash sharoitlari urug'dagi asosiy moddalar – moy, oqsil va boshqa foydali mahsulotlar deyarli kamaymasdan saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Saqlash sharoitiga qo'yilayotgan talablarga javob bermagan taqdirda namlik, issiqlik, mikroorganizmlar va ba'zi bir kemiruvchi jonivorlar ta'sirida, birinchi galda asosiy modda – lipidlarning parchalanish jarayoni kuchayadi. Bunday xom ashydan olingen moy esa sifat jihatidan past, rangi yuqori, kislota soni katta, oksidlangan moddalar miqdorining ko'pligi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun keltirilgan xom ashyning turiga qarab, uni saqlash sharoitlari, omborxonaning esa texnik jihozlanishi me'yorida bo'lishi kerak. Keltirilgan xom ashyning sifati eng avvalo ekish uchun ishlatilgan urug'lik sifatiga bog'liq va shu bilan birgalikda urug'likning o'sishdagi vegetatsion sharoitiga, etilgan hosilning yig'ib olish sharoitiga, hamda moy zavodiga etib kelguncha daladagi saqlash sharoitlariga bog'liq. Ma'lumki xom ashyo tarkibida asosiy mahsulotdan tashqari yovvoyi o'simliklar urug'lari, asosiy o'simlikning bargi, gulbargi, poyasi, hamda atrof muhitdan aralashib qolgan organik, mineral va metall iflosliklar bilan birga bo'ladi. SHu bilan birgalikda asosiy xom ashyo va unga qo'shilib kelgan aralashmalar namliklari turlicha bo'ladi, ya'ni organik va mineral iflosliklarning namligi o'ta yuqori bo'lsa, asosiy xom ashyo namligi esa pastroq bo'ladi. Buning ustiga xom ashyo

tarkibidagi mikroorganizmlar va kemiruvchilarning miqdori aks ta'sir qilib, uning sifatini buza boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, asosiy ko'rsatkichlar me'yorda emasdaligini nazarda tutsak, moyli urug'larni saqlashdagi jarayonlar ancha murakkabligi namoyon bo'ladi. Saqlash jarayonida yuqori ko'rsatgichli faktorlar (namlik, ifloslik) ta'sirida urug'ning sifat jihatidan buzilishi oddiy ko'rinishda o'z-o'zidan qizib ketish hodisasi bilan belgilanadi. Albatta, urug'larni saqlash paytida o'z-o'zidan qizib ketish darajasigacha qoldirish mumkin emas. CHunki bu xodisa avval kichik bir hajmda yuz bersa, bir oz vaqtidan so'ng butun bir urug' uyumi hajmida yoyilib ketishi mumkin. Bu holda urug' xo'jaligi moddiy jixatdan katta talofat ko'radi va buning ustiga, qizish natijasida kuyib ketgan urug' ko'mirdek qattiq qatlam hosil qilib, nihoyatda katta kuch va mablag' hisobiga ombordan tashib chiqarishga to'g'ri keladi. SHu hodisa ro'y bermasligi uchun urug' saqlash xo'jaliklarida doimiy nazorat olib borish lozim. Bu nazorat urug' to'plamining turli joyida, har xil chuqurlikda harorat va kerak bo'lganda namlikni doimiy ravishda aniqlash yo'li bilan bajariladi.

**Moyli urug'larning fizik-texnik xususiyatlari.** Moyli urug'lar saqlanish davrida ularning qo'yidagi fizik xossalari hisobga olinadi: to'kiluvchanlik (sochiluvchanlik – sipuchest); o'z-o'zidan xillarga ajralib qolish (samosortirovanie); g'ovaklik (skvajistost); zichlik (plotnost); sorbtion xususiyatlar; issiqlik va harorat o'tkazuvchanlik.

**Sochiluvchanlik.** Moyli urug'larning sochiluvchanligi ularning **tabiiy qiyalik burchagi** qiymatiga bog'lik. To'kiluvchan moddalarning tabiiy qiyalik burchagi ularning gorizontal tekislikka nisbatan mahsulotning sirt yuzasi o'rtasida hosil qilingan burchagiga aytildi.

Tabiiy qiyalik burchagi mahsulot turiga qarab turlicha bo'ladi. Mahsulot qancha sochiluvchan va sirti silliq bo'lsa, tabiiy qiyalik burchagi shuncha kichik bo'ladi. Ushbu hususiyat moyli urug'lar joylanganda ularga qarab omborxonalarining turi va shakli tanlab olinadi. Ba'zi bir urug'lar uchun tabiiy qiyalik burchagi (graduslarda) qo'yidagicha: pista urug'i 31-45; kanakunjut 34-46; Soya 25-32; Zig'ir 27-34; Paxta chigit 42-45.

Mahsulotning bu xususiyati o'z yo'lida shu mahsulotning shakliga, o'lchamiga, namligiga va sirtning notekisligiga bog'lik. Umuman olganda tabiiy qiyalik burchagi mahsulotning ichki ishqalanish koeffitsientiga bog'lik bo'lib, koeffitsient kancha katta bo'lsa, tabiiy qiyalik burchagi ham shuncha katta bo'ladi. Yog'-moy ishlab chiqarish texnologiyasida sochiluvchanlik ba'zi bir o'rnlarda qo'l keladi. Bu esa mahsulotni bir apparatdan boshqasiga uzatish paytida transport vositasiz to'g'ridan-to'g'ri oqizish trubalaridan foydalanish imkonini beradi.

**O'z-o'zidan xillarga ajralishi.** Bu xususiyat urug'larning o'lchami va zichligiga qarab turli xillarga ajralib qolishiga sabab bo'ladi. Urug'larni saqlash va qayta ishslashda bu xodisa aks ta'sir etadi. CHunki ko'p xollarda xillarga ajralib kolgan mahsulotning laboratoriya analizlari bir xil ko'rsatgichlar buyicha turlicha qiymatga ega bo'ladi. Masalan, bir urug' uyumi uchun har xil namlik, har xil moylilik, turli zichliliklar chiqadi. SHu tufayli xom ashyoning ushbu xususiyatini e'tiborga olib, laboratoriya na'munalarini olayotgan paytda imkon boricha mahsulotning hamma yuzasidan, turli chuqurlikdan namuna olish muhim bo'ladi.

**G'ovaklik.** Xom ashyoning g'ovakligi deb, mahsulot zarrachalari orasidagi havo hajmining shu mahsulotning umumiy hajmiga nisbatiga aytildi. G'ovaklik mahsulotning namligi, zarrachalarning shakli va o'lchamlari, ularning sirt tuzilishi va bundan kelib chiqadigan ishqalanish va boshqa faktorlarga bog'liq. SHuning uchun ko'pchilik moyli urug'lar uchun g'ovaklik keng ko'lamda o'zgarib turadi. Masalan, kanop urug'i uchun g'ovaklik 35-45%,

kungaboqar uchun esa 60-80% gacha yetishi mumkin. Bir xil sharoitda bir turdag'i urug'lar uchun o'lchami kattaroq bo'lган urug'larning g'ovakligi katta va u uyum ostiga qarab asta-sekin kamayadi, chunki, yuqori qism mahsulot og'irligi ta'sirida pastki qatlamda g'ovaklik kamayadi.

**Urug' massasining zichligi.** Kattiq zarrachalar hajmining urug' massasining umumiy hajmiga nisbati urug' massasining zichligi deyiladi.

**Sorbtion xususiyatlari.** To'kiluvchan moddalarning sorbtion xususiyatlari ularning sorbtion sig'imi bilan belgilanadi. Sorbtion hajm deb, urug' massasining atrof muhitidan gaz yoki bug' xolidagi moddani qancha miqdorda sorbtsiyalash va desorbtsiyalash qobiliyatiga aytildi. Bu turkumda moyli urug'lar uchun suv bug'larini atrofdan yutib olish va chiqarib yuborish xususiyati (gigroskopichnost) muxim ahamiyatga ega. Gigroskopiklik atrof muhiddagi suv bug'larining partsial bosimiga bog'liq bo'ladi. Aniq bir sharoitda moyli urug'lar atrof muhiddan yutib olgan va o'zidan chiqarib yubarayotgan suv miqdori tenglashib, mahsulotning namligi mo'tadil bo'lib qoladi. Bu namlik **muvozanat namlik** (ravnovesnaya vlajnost) deb ataladi.

SHu narsa xarakterliki, havoning nisbiy namligi 100 % yoki koeffitsient jihatdan 1.0 ga teng bo'lganda, muvozanat namlik eng yuqori bo'ladi va aksincha havoning nisbiy namligi 0 % ( $k = 0.0$ ) bo'lganda muvozanat namlik eng kam bo'ladi. Sorbtsiya va desorbtsiya izotermalari moyli urug'lar uchun bir-biriga mos kelmaydi va bu farq **sorbtion gisterezis** deb nomlanadi. Bunday farq urug'larning ko'p komponentli mahsulot ekanligidan yuzaga keladi. Bir xil turdag'i mineral va organik moddalar uchun sorbtsiya va desorbtsiya chiziqlari bir-biriga mos keladi. Sorbtion gisterezis tufayli moyli urug'lar, hattoki bir yoki bir necha oy saqlangandan keyin ham, o'z namligini barcha zarrachalar uchun teng qilolmaydi, bu esa ilgari aytiganidek, mahsulotning haqiqiy namligini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. Namlik esa urug'ning saqlanish davomida havoning nisbiy namligiga qarab, o'zgarib turadi va shu bilan birgalikda namlik o'ta yuqori bo'lgan qismdan pastroq namlik bo'lgan qismga ko'chib o'tadi. Buni **namlikning migratsiyasi**, ya'ni siljishi deyiladi. Bundan tashqari, bir to'plam mahsulotning o'rtacha namligi uning haqiqiy namligini ko'rsatmaydi. O'rtacha namlikning o'zgarmay turishi esa namlikning qobiq va mag'izdagi turlicha miqdoriga bog'liqdir. Masalan, chigit massasining namligi 10% bo'ladigan bo'lsa  $V_s=10\%$ , mag'izining namligi  $V_a=8-8,5\%$ , qobig'inining namligi  $V_o=12-12,5\%$  bo'lishi mumkin. Bu farq urug' qobig'ida asosan suvga o'ch moddalar kletchatka, selluloza bo'lganligidan, mag'izida esa suvni qaytaruvchi moyli moddalar ko'pligidandir. SHuning uchun muvozanat namlik va xaqiqiy namlik urug'larni qanaqa sharoitlarda saqlanishini oldindan belgilab beradi, ya'ni aniqlangan namlik miqdoriga qarab saqlanayotgan urug' o'zi-o'zidan sekin asta quriydimi yoki yuqori namlik ta'sirida o'zi-o'zidan qizib ketadimi, shu aniqlaniladi. Urug' massasidagi harorat darajasi ham uning saqlanishida o'ziga yarasha ta'sir ko'rsatadi, ya'ni harorat yuqoriroq bo'lgan joydan, issiqlik ta'sirida, namlik harorat kamroq bo'lgan tamonga siljiydi. Yuqorida izoh qilingan o'zgarishlar urug'ni saqlash jarayonida namlik asosiy rol o'ynashini ko'ramiz. SHu tufayli urug'lar uchun kritik namlik tushunchasi ham kiritilgan, bu namlik shunday darajaga egaki, agarda mahsulotning namligi kiritik namligiga teng yoki undan oshsa xom ashyo tarkibida sezilarli darajada intensiv oksidlanish jarayonlari, xom ashyoning intensiv nafas olishi, ba'zi xollarda o'z-o'zidan qizish xodisasi ro'y beradi. Bu aks o'zgarish xom ashyo tarkibidagi asosiy yog'li moddalarni parchalanishiga va kelajakda olinadigan mahsulotni kamayishiga, sifatini pasayishiga olib keladi.

**Kritik namlik** deb, shartli ravishda, havoning nisbiy namligi 75% bo'lgandagi muvozanat namlikka teng bo'lgan miqdor olinadi. Xulosa qilib aytganda, urug' uzoq saqlanishi uchun uning

haqiqiy namligi kritik namligidan qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik yaxshi. CHunki namlik past bo'lsa barcha aks ta'sir etuvchi jarayonlar sekinlashadi yoki tartib jixatdan tuxtaydi. Moyli urug'larning kritik namligini quyidagi tenglama bilan aniqlash mumkin.

$$V_{kr}=14,5(100-M)/100, \%$$

bu erda: 14,5 — moyli urug'lar gelb qismining kritik namligi (moyini hisobga olmaganda); M — urug' moyliligi, % hisobida.

Urug' moyliligi yuqori bo'lsa uning kritik namligi kichik bo'ladi.

**Urug'lardagi mikrofloraning hayoti, faoliyati va ularning saqlash jarayoniga ta'siri.** Saqlanayotgan moyli urug'larning sifatiga xom ashya bilan kelib qolgan mikroorganizmlarning ta'siri bo'ladi. Xom ashya tarkibidagi mikroorganizmlar bular turli bakteriyalar va zamburug'lardir. Bularning xom ashyyoga ta'siri ayniqsa yuqori namlikda katta bo'lib, sirtdan karaganda sezilmaydi, aslida esa bakteriya va zamburug'lar urug'ning qobig'idan ichki mag'iziga o'tib tezlik bilan mag'izdagi oqsil va yog'li moddalarni buzib tashlaydi. Buzilish asosan mog'orlash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bakteriya va zamburug'lar bilan zararlangan xom ashyonini nihoyatda tezlik bilan quritishga yo'naltirish lozim, aks xolda ko'p miqdorda va aksariyat hollarda butunlay lipidlar parchalanib ketishi mumkin. Bakteriyalar bilan zararlangan xom ashyonining birinchi belgisi, xom ashya donalarining ustki yaltiroq qismi va silliqligi yo'qolishi bilan belgilanadi. Agar zararlanish davom etsa, xom ashya donachalarining shakli saqlanib qolgan holda ularning mexaniq qattikligi yo'qolib, ozgina kuch ta'sirida ezilib, uqlanib ketadi. To'liq zararlangan xom ashya esa, unga tegish bilan kulsimon moddaga aylanadi. Mikroorganizmlar bilan birgalikda xom ashyyoga aks ta'sir etuvchi, mayda kemiruvchi jonivorlar ham bo'ladi.

Moyli urug'lar mikroorganizmlar uchun yaxshi ozuqaviy muhit hisoblanadi. Namligi yuqori, iflos aralashmali ko'p bo'lgan xom ashyyoda mikroorganizmlar va mayda zararkunandalar tez rivojlanadi hamda ko'payadi. Ayniqsa mog'or zabrug'lari katta xavf tug'diradi. Mog'or zambrug'lari urug' qobig'idagi klechatkani gidrolizlab, urug' qobig'ini buzadi va boshqa mikroorganizmlar, zararkunandalar uchun mag'izga o'tishga yo'l ochib beradi. Urug'larni saqlash uchun omborxonalarga joylashtirishdan oldin mikrofloralar bilan zararlangan urug'lar albatta tozalanishi va lozim topilgan paytda, quritilishi kerak.

**Turli moyli urug'larni saqlash sharoitlari.** Barcha turdag'i moyli urug'lar uchun ishlatalayotgan omborxonalar quruq bo'lishi kerak, pol yer osti suvlaridan izolyatsiyalangan bo'lishi, devorlar oqlangan yoki bo'yalgan bo'lishi lozim. Tom yomg'ir va qor suvlarini o'tkazmasligi, eshiklar zich yopilishi kerak. Omborxona urug' tashlanishidan oldin barcha chiqindilardan, xar xil kemiruvchilardan tozalanishi va mumkin bo'lgan pereparatlar bilan dezinfektsiya qilinishi kerak. Asosiy talab shundan iboratki, omborxona toza, quruq va yaxshi ventilyatsiyalananadigan bo'lishi lozim. Saqlashning asosiy usullari yirik o'lchamli urug'lar uchun to'kib saqlash, mayda o'lchamli urug'lar uchun esa qoplarda, maxsus konteynerlarda yoki siloslarda bajariladi.

1. Kanakunjut (keleshevina) urug'ining saqlanishi. Bu urug'ning namligi 6% gacha bo'lganda omborxonaga to'kilib, urug'ning qalinligi 5m gacha bo'lgan qalinlikda saqlanishi mumkin. Agar namligi 6% dan yuqori bo'lsa, unda saqlanayotgan urug'ning qalinligi 3m gacha kamaytirilishi kerak. Moboda, kanakunjut urug'i qop yoki konteynerlarda saqlansa, ularni to'kiladigan urug' bilan aralashtirmaslik kerak.

2. Konop, indov - bu urug'lar o'lchamlari mayda bo'lishiga qaramasdan namligi 8% gacha bo'lganda to'kish yo'li bilan saqlash mumkin. Namligi yuqori bo'lganda uzoq saqlamasdan qayta ishlash lozim.

2. Xantal (gorchitsa) urug'i - bu urug' saqlanishidan oldin imkon boricha to'la tozalanishi lozim, aks xolda tez buziladi. Saqlanayotgan gorchitsa urug'ining namligi 8% dan oshmasligi kerak.

3. Soya urug'i - tarkibida 50% gacha oqsil modda bo'lganligi sababli u nihoyatda gigroskopik hususiyatga ega. SHuning uchun soya urug'i saqlash jarayonida tez buziladi. O'zoq muddat saqlanayotgan urug' namligi 11% dan oshmasligi kerak.

4. Kungaboqar urug'i - moyliligi yuqori bo'lganligi sababli kritik namligi ancha past, shuning uchun uzoq muddatga mo'ljallab saqlanayotgan kungaboqar urug'i namligi 6-7 %dan oshmasligi kerak. Kungaboqar va soya urug'lari silos tipidagi omborxonalarida saqlanishi lozim.

5. Paxta chigit (o'rta tolali navi) - ustida 4,5% dan oshiq bo'lgan lint qoplami bo'lganligi tufayli bu urug'ning oquvchanligi juda past, shuning uchun paxta chigit poli tekis yoki qiya bo'lgan usti yopiq mexanizatsiyalangan omborlarda saqlanadi. Uzoq muddatga (2-oydan oshiq) mo'ljallab saqlanayotgan chigit namligi 1-3 navlar uchun 9% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Namligi 9% dan katta bo'lgan va 4-nav chigitlari birinchi galda saqlanmasdan qayta ishlanishi lozim. Omborxonalarining hajmi yetishmagan hollarda o'rta tolali paxta chigiti ochiq maydonchalarda ham piramida shaklida saqlanishi mumkin.

Ingichka tolali paxta chigiti ustidagi lint qavati 4,5% dan kam bo'lib, asosan tepasi yopiq, poli qiya bo'lgan omborxonalarida saqlanadi.

**Omborxonalarining turlari.** Katta miqdordagi urug'larni qayta ishlashgacha minimal yo'qotishlar bilan saqlash murakkab va mas'uliyatli ish hisoblanadi. Moyli urug'larni qayta ishlovchi korxonalar to'xtamasdan ishlash uchun xomashyo zahirasiga ega bo'lishi kerak. Zahira miqdori korxonani ishlab chiqarish quvvatiga bog'liq bo'lib, kungaboqar uchun 90 kunga, soya uchun esa 30-50 kunga, paxta chigiti uchun 40 kunga etadigan bo'lishi lozim. Korxonani bir maromda sifatlari xom ashyo bilan ta'minlab turish va uning katta miqdorini saqlash uchun yog'-moy zavodlarida katta hajmga ega bo'lgan omborlar mavjud.


Moyli urug'lar omborlari tushirish – yuklash operatsiyalarini mexanizatsiyalashgani darajalariga qarab bir necha turga bo'linadi: silosli omborlar yoki elevatorlar, qiya yoki gorizontal polli chayla tipidagi mexanizatsiyalashgan omborlar, buntli maydonlar va qavatli omborlar. Urug'larning xususiyatlariga qarab, katta qatlamda saqlay oladigan omborlarga silosli yoki elevatorli omborxonalar kiradi.

**Elevator tipli ombori** tuzilishi dumaloq yoki kvadrat shaklidagi vertikal temir betonli yoki metall 2-siloslar (yachevkalar)dan iborat. Silosli omborxonalarining ichida urug'lar saqlanib, ularning tor biqin tomoniga quritish – tozalash 1-minorasi biriktirilgan (2.1-rasm). Siloslarning tepe qismida moyli urug'larni to'kish uchun bir necha qator 3-transportyor lentalari o'rnatalgan.

Metalldan yasalgan elevatorlar devoridan issiqlik yaxshi va tez o'tishi ularning kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Bunday siloslar ichidagi haroratning keskin o'zgarishi natijasida devorlar atrofidagi namlik kondensatsiyalananadi va yon qatlamdagi urug'larning namligi ortib ketadi. Bundan tashqari metalldan yasalgan silos devorlari korroziyaga uchraydi. Temir betondan yasalgan elevatorlar keng tarqalgan. Monolit temir betondan iborat silos korpusining yachevkasi dumaloq shaklda bo'lib, diametri 6 va balandligi 30m ni tashkil etadi. YAcheyska diametri 12m va undan katta bo'lgan siloslar qurilishi va ekspluatatsisi iqtisodiy jihatdan tejamlidir. To'rtta dumaloq silos yachevkalari oralig'idagi bo'shliq (yulduzchalar) ham urug'larni saqlash uchun ishlatiladi.

Elevatorli ombor tarkibiga urug'larni qabul qilish va uzatish uskunlari, tozalash, quritish bo'limlari va silos korpusi kiradi. Elevatorli urug' saqlash ombori kuchli transport vositalari bilan jihozlangan bo'lib, ular urug'larni qabul qilish ishlarida siloslarni to'ldirish, siloslar


ichidagi urug'larni aralashtirish va ishlab chiqarish uchun berishga xizmat qiladi. Odatda, bu operatsiyalar bir biriga bog'liq bo'limgan holda bajariladi.



2.1-rasm. Tozalash-quritish minorali elevator

Kamchiliklari, unda yomon sochiluvchan urug'larni (masalan paxta chigitini) saqlash imkonini yo'qligi, hamda siloslarga yuklash va bo'shatishda yoki saqlash davrida yuqori qatlam bosimini pastki qatlamga ta'siri natijasida sinib ketishi mumkin bo'lgan mo'rt yoki yumshoq qobiqli urug'larni saqlash imkonining yo'qligidir.


**Mexanizatsiyalashgan omborlar.** Bu tipdag'i omborlar poli qiya qurilgan bo'lib, urug'ning pastki galareyadagi transport vositasiga uzatish uchun qulaylik yaratadi. Mexanizatsiyalashgan omborlar (2.3-rasm) bir qavatli bino bo'lib, unda quyi va yuqori galareyalar ichida 1-, 2-, 3- va 4-lentali transportyor qurilmalari mavjud. Ular yordamida urug'larni gorizontal yo'nalishda omborxonaning istalgan nuqtasiga va keraklicha ishlab chiqarishga uzatish mumkin. Bunday omborlarning pollari qiya bo'lib, bu narsa urug'larni qayta ishlash uchun yoki omborxonaning boshqa bo'limiga uzatish uchun lentali transportyorga sirg'alib tushishiga imkon yaratadi. Urug'lar 5- va 6-ventilyatorlar yordamida faol shamollatib turiladi. Bunday omborxonalarining eni 8-32 metr, balandligi 15 m gacha, uzunligi turlicha bo'ladi.



2.3-rasm. Mexanizatsiyalashgan ombor

Mexanizatsiyalashgan omborlarning afzalligi shuki, ularda yuklash va bo'shatish ishlari to'liq mexanizatsiyalashgan va elevator tipidagi omborlar kabi baland emas. Kamchiligi esa, katta maydon egallaydi, zichlashib qoladigan urug'larni masalan, paxta chigitini saqlash imkonini bo'lmaydi.

**CHayla tipidagi omborxonalar** (skladi shatrovogo tipa) Bu omborxonalarning poli tekis bo'lib, turli xildagi urug'lar va shu jumladan paxta chigitini saqlash mumkin. Tekis polli omborxonalarning ikki biqinida erosti temirbeton galareyalari bo'lib, ulart ichida lentali transporterlar o'rnatilgan. Ular orqali moyli urug'lar omborxonaning tor tomonidagi minora ichiga o'rnatilgan noriyaga uzatiladi. Bu noriya chigitni omborxona tepasidagi trasportyor lentasiga uzatib, xom ashyo omborxonaning istalgan bo'limiga to'kilishi mumkin yoki urug'lar sanoatga yo'llanadi. Omborxonadan moyli urug'lar galareyalardagi lentalarga tuynuklar orqali oqiziladi. Omborxonaning o'rta qismidan xom ashyo o'ziyurar yuklovchi-bo'shatuvchi mexanizmlar yordamida galareya ustidagi tuynulkarga yetkazib beriladi.




2.4-rasm. Chayla tipidagi ombor

Tekis polli chayla tipidagi omborlarda (2.4-rasm) urug’lar yuqoridan lentali transportyor (1) yordamida yuklanadi, bo’shatish esa harakatlanuvchi don bo’shatgich yoki 2-lentali transportyor yordamida amalga oshiriladi. Aynan shu transportyor (2) yordamida urug’lar tozalashga, yoki qayta ishlashga yuboriladi. Chayla tipidagi omborxonalar 5 va 10 ming tonnali bo’ladi.

**Paxta chigit saqlanadigan omborlar** sig’imi 36 ming t bo’lib, o’zaro oraliq minora bilan birlashtirilgan ikkita chayladan iborat (2.5-rasm).

Ombor temir betondan qurilgan. Urug’larni navlar bo'yicha saqlash uchun, hamda yong’inga nisbatan xavfsizlikni hisobga olib, ombor har biri 30 m dan bo’lgan 4ta sektsiyaga bo’lingan. Urug’ qabul qilish moslamasidan 3-noriya orqali yuqori galereyadagi 1-lentali transportyoriga uzatiladi. Sektsiyalar bo’ylab urug’ni taqsimlanishi uchun lentali konveyerga 2-tushiruvchi moslama o’rnatilgan. Ombordagi urug’larni tozalashga yuborish uchun ishlatiladigan lentali konveyerlar er osti kanaliga o’rnatiladi. Kanal kengligi 3,2 m va chuqurligi 1,7 m bo’ladi. CHigit ombordan qayta ishlashga 4-shneklar orqali, KSHP-5 shnekli yuklagich va lentali transportyorlar yordamida jo’natiladi.



2.5-rasm. Paxta chigitini saqlash ombori

Urug'larning o'z o'zidan qizib ketishini oldini olish maqsadida tez-tez shamollatib turiladi. Buning uchun chayla tipidagi omborlarda shamollatish moslamalari o'rnatilgan.

## 2-AMALIY MASHG'ULOT

### YOG' VA MOYLARNI SAQLASHDA CHIQINDI VA YO'QOTISHLARNI XISOBLASH

Korxonaning moy va yog' omborlari quyidagilarni ta'minlaydi: — sutka va yilning istalgan vaqtida moy va yog'larni qabul qilish va jo'natish; — moy va yog'larni qabul qilish, saqlash va jo'natishning barcha jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish; — saqlanayotgan moy va yog'larni qabul qilib olish, saqlash hamda jo'natishda yo'qotish va sarflar minimal darajada bo'lgani holda, ularning oziqa sifatlarini maksimal darajada saqlab qolish.

Baklarning zaruriy hajmi ko'pgina omillar bilan belgilanadi, ularga moy va yog'lar assortimenti, yog'larning korxonadagi sutkalik aylanmasi, kelib tushishi va jo'natilishidagi notekislik, shuningdek, korxona faoliyatining turli tomonlari bilan bog'liq boshqa shart-sharoitlar kiradi. Ana shunga muvofiq korxona quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- temiryo'l sisternalarida tashiladigan yog hlarni qabul qilish va jo'natish uchun to'kish-quyish qurilmalari;
- avtosisterna va bochkalarida tashiladigan yog'larni qabul qilish va jo'natish uchun to'kish-quyish qurilmalari;
- moy baklari;
- temiryo'l va avtomobil yo'llari.

Qator hollarda korxonalarning o'zida temiryo'l va avtomobil sisternalarini tozalash uchun yuvish-bug'lash punktlari mavjud. Korxona hududida alohida inshoot va qurilmalarning joylashishi mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqib, turlicha bo'lishi mumkin. Baklar yong'inga qarshi yoriqlarga rioya qilgan holda o'rnatiladi. Bundan tashqari, qo'shni inshootlarda avariya holati yuzaga kelganda baldarga zarar etmasligi ham ko'zda tutiladi. Yonma-yon joylashgan

ikkita moy baki o'rtasidagi eng kam masofa ularning eng kattasi diametrining yarmidan kichik bo'lmasligi zarur. Alohidat turgan moy baldari va umumiy hajmi  $10000\text{ m}^3$  dan oshmaydigan bak guruhlari joy relefini hisobga Olgan holda yaxlit er ko'tarmasi, yonmaydigan devor yoki ikkalasi bilan ham to'silgan bo'lishi kerak. Bu to'siqlar moy baldariga zarar etganda yog'ning korxona hududiga oqib chiqishining oldini oladi.

Er ko'tarmasi yoki devor moy baldariga zarar etganda qulab ketmasligi va moy to'siqlik tashqariga oqib ketmasligini hisobga olib o'rnatilishi lozim. Er ko'tarmasi va to'siqlik devor o'z balandligi bo'ylab zarar etgan va ag'darilib ketgan baldardan oqib chiqqan moyning dinamik zarbasiga bardosh berishi kerak. Ko'tarma yoki devor balandligi to'silayotgan maydon kattaligini hisobga olib belgilanadi, to'siqlik balandligi to'silgan baklardan oqib chiqqan moyning ko'tarilishi mumkin bo'lgan darajasidan 0,2 m baland bo'lishi, ammo **I** m dan past bo'lmasligi lozim.

Moy baklari ularning er sathidagi qismi hajmidan kichik bo'limgan hajmdagi chuqurlikka joylashtirilishi mumkin. Chuqurlik balandligi **I** m dan past bo'limgan to'siqlik bilan o'raladi.

Baldar joylashtirilishining taxminiy chizmasi quyidagicha ko'rsatilgan: asfalt yoki beton bilan qoplangan maydonda baldar joylashtirilgan; moy baklari atrofidagi hudud to'kilgan moy yoki yog'ni tutib qolish uchun mo'ljallangan moy yig'uvchi tomonga qarab qiyalik (0,004 dan kam emas) bo'lishi kerak, yig'ilgan moy tezlik bilan tortish uchun nasos stanstiyasidan moy yig'uvchi tomonga moy quvuri tortiladi. Er ko'tarmasi yoki to'suvchi devor bilan o'ralgan baldarning har bir guruhida to'siqning yuqorisidan kamida ikkitadan o'tish joyi jihozlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini va tashqi ko'rinishini, saqlanishini, tashish va savdoga chiqarish sanitark-gigienik sharoitlarini yaxshilash, hamda mahsulotning turi va navi, massasi, istehmol qilish haqida kerakli mahlumotlarni bayon etish uchun ularni zamonaviy materiallardan foydalanib qadoqlash - dolzarb vazifalardan biridir.

Qadoqlashning vazifasi, mahsulotni ishlab chiqarishdan istemol qilishgacha bo'lgan davrda miqdori, tarkibi va sifatini, istehmolchilik xossalari o'zgarishidan himoyalash, yahni mahsulotning belgilangan mehyorlardan chetga chiqishining oldini olishdan iborat. Qadoqlashning bu vazifasi mahsulotni mexanik, fizik, kimyoiy, ob-havo va biologik ta'sirlardan saqlashni nazarda tutadi.

Qadoqlashning xushbichim shakli, chiroyli ko'rinishi nafaqat qadoqlangan mahsulotni, balki uni ishlab chiqaruvchisini va hatto ishlab chiqarayotgan boshqa mahsulotlar uchun ham reklama vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bahzi hollarda qadoqlash chiroyli, xushbichim, takrorlanmas ko'rinishda bo'lishi talab qilinsa, boshqa hollarda oddiy bo'lishi talab qilinadi. Masalan unni chiroyli bezak berilgan idishga qadoqlashning hojati bo'limgan holda, qandolat mahsulotlarini un solinadigan qoplarga qadoqlash hech bir talabga javob bermaydi.

### **3-AMALIY MASHG'ULOT SHROT VA SHULXANI SAQLASHDA CHIQINDI VA YO'QOTISHLARNI HISOBBLASH.**

Kunjara va shrot — bu zavodlarda moyli ekin urug'lari va makkajo'xori kurtagidan maydalab, moy olish natijasida hosil bo'ladigan qo'shimcha mahsulotlardir. Kunjara va shrot qishloq xo'jaligi hayvonlari doimo ishtaha bilan iste'mol qiladigan eng qimmatli yemdir. Ular xalqaro savdoda ham qimmatli ozuqa hisoblanadi.

**Kunjara** urug'lar presslab olinadi va buning natijasida undan moyning asosiy qismi ajraladi. Boshqacha qilib aytganda, bu presslangan yog'sizlantirilgan urug'lardir. Kunjaradagi moy miqdori, odatda, 6—9 % dan oshmaydi. U presslash usuli (sovuv yoki issiq) va qo'llaniladigan mashina tipiga bog'liq. Qishloq xo'jaligi tipidagi zavodlarda kunjara olinganda, lining tarkibidagi moy zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan zavodlardan ishlab chiqarilgan kunjaranikiga qaraganda ko'p bo'ladi. Moydan tashqari, kunjarada urug' tarkibiga kiruvchi, deyarli, barcha moddalar saqlanadi.

Moyni sovuq presslash usuli bilan (urug'larni qizdirmasdan) olganda kunjara va urug' moddalarini sifati bo'yicha urug' moddalaridan farq qilmaydi, issiq presslash usuli (urug'larni dastlabki qizdirish)da esa moddalarning ba'zi bir o'zgarishi (oqsillar denaturasiyasi va boshqalar) kechadi. Kunjara gidravlik presslar qo'llanilgan holda qalinligi 38 mm, uzunligi 900 mm. ga yaqin, kengligi 350 mm bo'lgan zinch presslangan plita ko'rinishida yoki uzlusiz ishlovchi shnekli presslarni qo'llagan holda shakli bo'yicha chig'anoqni eslatuvchi bo'lakchalar ko'rinishda ishlab chiqariladi. Bahzan kunjara maydalangan ko'rinishda tayyorlanadi.

**SHrot** maydalangan moyli ekinlar urug'ini erituvchilar (benzin, dixlor etan va boshqalar) yordamida ekstraksiyalash yo'li bilan moyi olingen mahsulotdir. Ekstraksiyalash tugashi bilan erituvchilar urug' qoldiqlaridan haydalib, quritiladi, shuning uchun shrot hamma vaqt oquvchan mahsulot hisoblanadi. Ekstraksiyalashda moyning katta qismi erituvchi bilan ajraladi, shuning uchun shrot tarkibida uning miqdori ko'p yemas (0,7-4 %).

Kunjara va shrot oqsilga boy, ko'p miqdorda kletchatka hamda pentozalarga ega. Ular mineral moddalarga, xususan, kали va fosfoga serob. Ularda V va e guruh vitaminlari ancha mo'l. Oqsil miqdori jihatdan ular urug'dan ustun turadi va shuning uchun yuqori ozuqa qiymatini namoyon qiladi.

Qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun mo'ljallangan omixta yemga turli kunjara va shrot - 5 %dan 35 % gacha, parrandalar uchun - 12 dan 20 % gacha quritiladi.

### **Urug'larning kunjara va shroti tarkibi.**

Fizikaviy holati bo'yicha omixta emning quyidagi turlari mavjud: *sochiluvchan, briketlangan, donador va galet ko'rinishidagi yemlar*.

Hayvonlarning yoshi va boqilish turiga bog'liq holda omixta em assortimenti o'zgaradi. Omuxta yem ishlab chiqarish uchun shartli ravishda guruhlarga bo'linuvchi turli xil xomashyolar qo'llaniladi. Bu xom ashylarning ba'zi turlari mustaqil holda ozuqa mahsulotlari sifatida ishlatiladi, omuxta yem ishlab chiqarishda esa uning tarkibiga ingredientlar ko'rinishida kiritiladi. Omuxta yem zavodlariga kelib tushadigan xomashyolar ko'p hollarda ishlab chiqindilari hisoblanadi.

**Kungaboqar kunjarasi va shroti.** Kungaboqar urug'laridan olinadi. Ular yuqori qiymatli oqsilga boy yem hisoblanadi va chorva mollari tomonidan sevib iste'mol qilinadi. 100 kg kungaboqar shrotining oziqaviy qiymati 104 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg kungaboqar shroti tarkibida 38,6 % xom protein; 3,6 % xom yog'; 14,1 % kletchatka; 1,38 % lizin; 1,84 % metinonin + sistin; 0,33 % kalsiy; 0,82 % fosfor va 0,94 % natriy mavjud. 100 kg shrot - 267 kkal almashinadigan energiyaga ega. Kungaboqar kunjasining oziqaviy qiymati birmuncha yuqori. Tarkibida p'chog'i ko'p bo'lgan kunjara va shrotni maydalash zarur.

**Zig'ir kunjarasi va shroti.** Zig'ir urug'idan yog' ishlab chiqarishda olinadi. Zig'ir kunjarasi suvda elim (shilimshik modda) hosil qilib bukadi. Bu xususiyat, zig'ir kunjasining, hayvonlarning ichaklari devorini yelim bilan qoplab olib, ularning yallig'lanishdan saqlovchi parhezboplilik xossalalarini tavsiflaydi.

Asosan yosh hayvonlarning, suvda tez bukmaganligi sababli baliqlarning omuxta yemiga kiritiladi. 1 kilogramining tarkibida 200 mg sinil kislotasi bo'lgan zig'ir kunjarasi va shroti hayvonlarga berishga tavsiya etilmaydi. 100 kg zig'ir kunjarasi oziqaviy qiymati 113 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg zig'ir shroti tarkibida 31 % xom protein; 3,6 % xom yog'; 9,4 % selluloza; 1,12 % lizin; 0,8 % metionin + sistin; 0,33 % kalsiy; 0,14 % natriy; 0,14 % fosfor mavjud. 100 kg shrot - 288 kkal almashinadigan energiyaga ega.

*Yeryong'oq kunjarasi va shroti.* O'simliklardan olinadigan eng yaxshi oqsilli yem hisoblanadi. Oqsillar tarkibida 6 % gacha lizin mavjud. 100 kg kunjraning oziqaviy qiymati 124 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg eryong'oq kunjarasida tarkibida 40,3 % xom protein; 3,9 % xom yog'; 6,5 % selluloza; 1,59 % lizin; 1,01 metionin + sistin; 0,04 % kalsiy; 0,92 % fosfor va 0,05 % natriy mavjud. 100 kg kunjara - 310 kkal almashinadigan energiyaga ega.

*Soya kunjarasi va shroti.* Biologik qiymatiga ko'ra, tarkibida almashinmaydigan aminokislotalar bo'lganligi sababli eng yaxshi oqsilli yemlarga kiradi. Ayniqsa ular hayvon bolalari va parrandalar uchun yaxshi yem hisoblanadi. 100 kg kunjarada 38,2 % xom protein; 7,2 % xom yog'; 5,3 selluloza; 2,78 % lizin; 1,19 % metionin + sistin; 0,43 % kalsiy; 0,69 % fosfor va 0,05 % natriy mavjud. 100 kg kunjara - 315 kkal almashinadigan energiyaga ega. Soya shroti ham taxminan shunday oziqaviy qiymatga ega.

*Chigit kunjarasi va shroti.* Tarkibida zaharli gossipol moddasi bo'lganligi sababli omuxta yem ishlab chiqarishda cheklangan miqdorda ishlatiladi. Chigit shrotidan hayvonlarning barcha turlari, ayniqsa yosh mollar zaharlangan. Tarkibidagi erkin gossipolning miqdoriga qarab kunjara va shrotning omuxta yemga qo'shiladigan miqdorini keskin meyorlarga ko'ra belgilash lozim. 100 kg kunjaraning oziqaviy qiymati 106 oziqaviy birlikka to'g'ri keladi. 100 chigit kunjarasi tarkibida 20,6...34,9 % xom protein; 7,3 % xom yog'; 11...14 % selluloza; 1,59 % lizin; 1,03 metionin + sistin; 0,31 % kalsiy; 0,97 % fosfor va 0,24 % natriy mavjud. 100 kg kunjara - 259 kkal almashinadigan energiyaga ega. Chigit shrotining oziqaviy qiymati 106 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrot tarkibida 37,8...45 % xom protein; 1,3 % xom yog'; 12,7 % selluloza; 1,86 % lizin; 1,37 % metionin + sistin; 0,24 % kalsiy; 1,15 % fosfor va 0,25 % natriy mavjud. 100 kg shrot - 225 kkal almashinadigan energiyaga ega.

*Koriandr kunjarasi va shroti.* Bular koriandr mevalaridan efir moyi olishda hosil bo'ladi. Shrot tarkibida risin bo'lmasligi kerak. Shrot sog'in sigirlar, yirik qoramollar, bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalarni oziqlantirishga mo'ljallangan va yopiq suv havzalarida boqiladigan krap baliqlariga mo'ljallangan omuxta yemlarga qo'shiladi. 100 kg shrotning oziqaviy qiymati 33 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrot tarkibida 36,4...40,9 % xom protein; 1,9 % xom yog'; 28,6 % selluloza; 1,22 % lizin; 1,57 % metionin + sistin; 0,73 % kalsiy; 0,47 % fosfor va 0,08 % natriy mavjud.

*Yog'sizlantirilgan kanakunjit (oziqaviy) shroti.* Kanakunjit urug'laridan yog' olishda hosil bo'ladi. Shrot tarkibida risin bo'lmasligi kerak. Shrot sog'in sigirlar, yirik qoramollar, bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqalarni oziqlantirishga mo'ljallangan va yopiq suv havzalarida boqiladigan krap baliqlariga mo'ljallangan omuxta yemlarga qo'shiladi. 100 kg shrotning oziqaviy qiymati 33 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrot tarkibida 36,4...40,9 % xom protein; 1,9 % xom yog'; 28,6 % selluloza; 1,22 % lizin; 1,57 % metionin + sistin; 0,73 % kalsiy; 0,47 % fosfor va 0,08 % natriy mavjud.

*Makkajo'xori oziqa shroti.* Yoqimli hidga ega bo'lib, barcha turdag'i chorva mollari uchun yaxshi yem bo'lib hisoblanadi. SHrot makkajo'xori murtagidan yog' olishda hosil bo'ladi. 100 kg shrotning oziqaviy qiymati 116 oziqa birligiga to'g'ri keladi. 100 kg shrotda 18,2 % xom protein; 1,9 % xom yog'; 7,6 % selluloza; 0,94 % lizin; 0,72 % metionin + sistin; 0,05 % kalsiy; 0,36 % fosfor va 0,03 % natriy mavjud.

## **SHrot va kunjara va shulxani standart bo'yicha qadoqlash va saqlash**

Kunjara va shrot mahsulotlarini qadoqlash, tamg'lash, tashish va saqlash ishlarini standartlashtirish. Kunjara, shrot, shulxani idishlarga solib qoplash uchun standartlar quyidagi me'yorlarni belgilaydi: Shrot, shulxa, kunjara uchun 25; 30; 50; 60: kg; Shulxa, shrot va kunjarani polietilen plyonkasidan tayyorlangan paketlarga ham qadoqlash mumkin. Shrot, (shulxa,) kunjara solingan paket va xaltalarning umumiy vazni 15-30 kg dan ortiq bo'limgan karton yoki fanera qutilarga qadoqlash mumkin. Paket va xaltachalarga koplangan Shulxa, shrot va kunjarani avtomobil transportida tashish uchun ular uskuna – idishlarga joylashtiriladi. Bundan tashqari shulxa, shrot va kunjarani yangi va ishlatilgan matoli qoplarga (50,70 kg) qoplash mumkin. Idish va qoplarning ustiga tipografik usulda yoki shtamp yordamida markalash tamg'asi bosiladi. Qoplash paytida har qaysi shulxa, shrot va kunjara solingan xaltaning ustiga o'lchami 6 x 9 sm li mustahkam elastik kartondan, xaltabop qog'oz yoki A rusumli qog'ozdan qirkib tayyorlangan markalash yorlig'i tikilgan yoki yopishtirilgan bo'lishi kerak. Yorliqda mahsulotni tavsiflovchi quyidagi mahlumotlar yozilgan bo'lishi kerak: ishlab chiqaruvchi o'mni va qaysi o'rniqa qarashliligi; mahsulotning nomi (turi, navi, birinchi nav uni vitaminlashtirilgan bo'lsa, yirik shrift bilan ajratilib ko'rsatiladi); vazni (kg); ishlab chiqarish sanasi (yil, oy, sana, smena nomeri); mahsulotga qo'yilgan standart belgisi. Standartga muvofiq har qaysi tur mahsulot idishning ustiga oziq-ovqat va energiyaviy qimmati: 100 gr mahsulotdagi oqsil, yog' va uglevod miqdorlari ko'rsatiladi. Mavjud standartlarga muvofiq Shulxa, shrot va kunjarani yopiq transport vositalarida shu transport turlarida mahsulot tashish qoidalariga muvofiq ravishda, shuningdek universal konteyner va paketlarda tashiladi. Shulxa, shrot va kunjarani temir yo'l transportida tashish uchun yopiq vagonlardan foydalilanadi. Mahsulot xavo transportida tashilishi uchun ular albatta konteyner yoki yashiklarga joylashtirilgan bo'lishi shart.

### **SHrotning qayta ishlash uskunalarini**

Ekstraktordan chiqayotgan shrot tarkibida 25-40% gacha erituvchi va qisman suv bo'ladi. YUqori ozuqaviy va em xususiyatlariga ega bo'lган, uzoq vaqt saqlaganda buzilmaydigan, sifati pasayib ketmaydigan hamda havfsiz transportlash mumkin bo'lган shrot olish maqsadida ekstraktordan chiqqan shrot qayta ishlanadi. Buning uchun, avvalo shrot tarkibidagi erituvchini to'liq bug'latish, so'ng esa namligi va harorati bo'yicha kondensiyalash kerak. SHu usulda tayyorlangan shrot saqlanishga kelayotganda uning harorati 35-40<sup>0</sup>S dan oshmasligi, namligi 7-10%, erituvchi miqdori 0,1 %. dan ko'p bo'lmassligi kerak.

### **SHrotning erituvchini bug'latish uskunalarini**


Bu maqsadda uch xil apparatlar qo'llaniladi: qasqonli bug'latkichlar – tosterlar, bularda materialdan erituvchi aralashtirib turilgan qatlama xaydaladi; shnekli bug'latkichlar – bularda shrotning erituvchi qisman muallaq qatlama xaydaladi; maxsus qurilmalarda muallaq holatdagi mahsulotdan erituvchi qizdirilgan erituvchi bug'lari oqimida xaydaladi.

**O'n qasqonli toster** (2.48-rasm). U kolonna turidagi apparat bo'lib o'nta bir-birining ustida joylashgan 7-qasqonlardan iborat. Har bir qasqonning 11-bug' ko'ylagi mavjud bo'lib, ularga 18-patrubok orqali bug' uzatiladi, kondensat esa ko'yakdan 12-patrubok orqali chiqariladi. Har bir qasqonning osti 10-bug' bo'shlig'i bilan ta'minlangan, unga bug' 19-patrubok orqali uzatiladi, kondensat esa 8-patrubokdan chiqib ketadi. Butun qasqonlar bo'ylab vertikal ichi bo'sh (poliy) o'q o'tgan, u esa, pastdan 23-reduktor orqali 24-elektrosvigateldan

harakatlanadi. O'qda har bir qasqonda ikkitadan 6-pichoq maxkamlangan, ular shrotni bir me'yorda aralashtirish va bir qosqondan boshqasiga uzatish uchun xizmat qiladi. Shu o'q orqali 16-patrubokdan ochiq bug' beriladi.

2.48-rasm. O'n qasqonli  
bug'latgich (toster):

- 1-shrot patrubogi;
  - 2-shnek uzatmasi;
  - 3-shrot shnegini;
  - 4-richagli mexanizm;
  - 5-luk-laz;
  - 6-pichoq;
  - 7-qasqon;
  - 8-kondensat uchun patrubok
  - 9-bo'sh o'q (poliy val);
  - 10-bug' bo'shlig'i;
  - 11-bug' ko'ylagi;
  - 12-kondensat patrubogi;
  - 13-shrot kiradigan patrubok;
  - 14-kengaytirilgan kamera;



Bundan tashqari har bir qasqonga 20-patrubok orqali ochiq bug' uzatish ko'zda tutilgan. SHrot bir qasqondan ikkinchisiga taglikdagi 26-teshiklar orqali o'tadi. Teshiklar 21-segmentli o'tkazuvchi klapanlar bilan yopiladi, klapan material to'ldiruvchi 22-sath rostlagich bilan 4-richagli mexanizm orqali ulangan. Har bir qasqonning tagligida erituvchi va suv bug'lari tosterning ustki 14-kengaytirilgan qismiga o'tishi uchun 25-teshiklari mavjud. Tosterdan erituvchi va suv bug'lari 15-patrubok orqali chiqariladi.

Ekstraktordan shrot shnekli ta'minlagich yordamida tosterga 13-patrubok orqali uzatiladi, apparatdan tayyor shrot 2-induvidal uzatmali 3-bo'shatuvchi shnek yordamida 1-patrubokdan chiqariladi. Shrot namunasi 17-patrubok orqali ajratib olinadi. Har bir qasqon 5-lyuk-laz bilan jihozlangan. Termometr va manometr o'rnatish uchun patruboklar mavjud.

Apparat quyidagicha ishlaydi. Ekstraktordan shrot shlyuzli zatvor va ta'minlagichdan tosterning ustki qismi – kengaytirilgan kameraga uzatiladi va shrot ta'minlagichda kerak bo'lsa suv bilan namlanadi. Ustki qasqondan shrot uzlusiz ravishda qolgan qasqonlarga birin-ketin uzatiladi, har bir qasqonda mahsulot ma'lum vaqt bo'ladi (mahsulotning tosterdan o'tish umumiyligi 55-65min). Namlik bir me'yorda taqsimlanishi va suv bilan erituvchi bug'lanishi kerak. Qasqonlarda shrot yopiq bug' yordamida qizdiriladi, ochiq bug' bilan bug'lanadi va pichoqlar bilan aralashtiriladi. Har bir qasqonda mahsulot qatlamining balandligi bir xil ushlanib turiladi ( $400\ mm$ ). Har bir qasqondagi erituvchi va suv bug'lari qasqonlarning ostidagi teshiklardan 14-kengaytirilgan qismiga yuboriladi, bu erda dastlab shrot zarrachalardan tozalanadi so'ng esa 15-patrubok orqali ho'l shrot ushlagichga jo'natiladi.

SHrot tosterdan chiqayotganda harorati  $100-105^{\circ}\text{S}$ , namligi 8,5-10% va erituvchi miqdori 0,05% dan oshiq bo'limgan xolda 3-shnek va shlyuli zatvor orqali chiqarib yuboriladi.

#### O'n qasqonli shrot bug'latgichning texnik tavsifi

Ish unumi (shrot bo'yicha), <i>t/kun</i>	170 gacha
Uzatmaning quvvati, <i>kVt</i>	
aralashtirgich o'qi	48
bo'shatuvchi shnek	2,2
Aylanish tezligi, <i>ayl/min</i>	
aralashtirgich o'q	28
bo'shatuvchi shnek	63
Ishchi bosim (bug' ko'yaklarida va qasqon ostida), <i>MPa</i>	0,8
ochiq bug' ichi bo'sh valda	0,25
Ishchi harorat qosqon osti va korpus bug' ko'yaklarida, ${}^{\circ}\text{S}$	180-200
apparat ichida	120

Gabarit o'lchamlari (eni x balandligi), mm

4320x10930

Massasi (uzatmasi bilan), kg

19000

**Yetti qasqonli toster (Germaniya).** “Ekstexnik” tizimida yetti qasqonli toster qo'llaniladi. Konstruksiyasi bo'yicha o'n qasqonli tosterning analogi bo'pib, undan qasqonlar soni bilan farqlanadi. Yuqorigi to'rtta qasqonda erituvchi bug'larini xaydash, keyingi ikkita qasqonda shrotni quritish va oxirgi qasqonda sovutish jarayoni amalga oshiriladi. Ba'zi bir korxonalarida olti qosqonli toster (Polsha) ham ishlataladi.

Yog'-moy sanoatida oxirgi paytlarda tosterlar keng qo'llanilmoqda va shnekli bug'latgichlarning o'rnini to'liq egallab bormoqda. Qasqonli bug'latgichlar shnekli bug'latgichlarga nisbatan yuqori texnologik natijalarga erishib, shnekli bug'latgichlardagi bir qator kamchiliklardan holidir.

Erituvchini shrotdan tosterlarda haydalganda mahsulotga issiqlik berish bosimi  $1,0 \text{ MPa}$  bo'lgan bug'ni bug' ko'yaklariga uzatish yo'li bilan ham, ochiq bug'ni mahsulotga berish yo'li bilan ham bajariladi. Tosterlarni ishlatalish natijasida quyidagi afzalliklarga erishiladi: shrotni namlik va issiqlik ta'sirida qayta ishslash jarayonini boshqarish engillashadi, bu esa, harorati va namligi bo'yicha kondisiyalangan sifatlari shrot olish imkonini beradi; mahsulotning o'ta qizib qurib ketishi va maydalanishi yuz bermaydi, bu o'z navbatida, ko'p miqdorda chang hosil bo'lishini oldini oladi, shrot transportirovkalanayotganda ishqalanish oqibatida statistik elektr zaryadlari hosil bo'lishi susayadi, materialni saqlash sharoitlari yaxshilanadi, yo'qotishlar kamayadi; shrotdan erituvchini uchirish shnekli bug'latgichlarda qaraganda effektiroq va to'laroq boradi; shrotga issiqlik va namlik ta'siri bir tekisda bo'lib, materialning ayrim qismlarida o'ta qizib ketish hollari yuz bermaydi, toksik va nohush moddalarning zararsizlantirilishi uchun sharoitlar yaratiladi va shrotning ta'mi va ozuqaviy sifati yuqorilashadi.

Bugungi kunda ND-1250M, MEZ, MEM va boshqa turdag'i ekstraksiya tizimlaridagi shnekli bug'latgichlar qasqonli shrot bug'latgichlarga almashtirilgan.


### **Shrotdan erituvchi haydalganda hosil bo'lgan benzin bug'**

#### **aralashmalarini tozalovchi uskunalar**

Erituvchi va suv bug'larini shrot zarrachalaridan tozalash uchun bug'latgich va kondensatorlar orasida quruq va ho'l shrot ushlagichlar o'rnatiladi. Quruq shrot ushlagichlar benzin, suv bug'lari aralashmasidan shrot zarrachalarini gravitasiya kuchi ta'siri ostida ajratadi. Ho'l shrot ushlagichlar issiq suv ( $85-95^{\circ}\text{S}$ ) yoki issiq erituvchi ( $55-60^{\circ}\text{S}$ ) bilan shrot zarrachalarini yuvib ushlab tozalaydi. Ba'zi bir ekstraksiya tizimida erituvchi bug'laridan shrot changlarini ushlab qolish uchun ham quruq, ham xo'l shrot ushlagichlardan foydalilanildi.

**ND-1250 ekstraksiya tizimidagi kamerali xo'l shrot ushlagich** (2.49-rasm) 4-silindrik korpus, 6-tegis qopqoq va 2-konussimon tagqopqoqdan iborat. Apparatning yuqori qismida 5-ajratuvchi to'siq, ostida esa 11-qaytaruvchi to'siq mavjud. Apparatning qopqog'ida ikkita 7-, va 8-patruboklar joylashgan, bittasidan bug'lar kiritiladi va ikkinchisidan chiqariladi. Kiruvchi patruboklar tagida 9-forsunkalar o'rnatilgan bo'lib, ulardan issiq yuvuvchi suv purkaladi. Iflos va

shlamli suvlarni chiqarish uchun uskuna ostida 1-patrubok ko'zda tutilgan. SHrot ushlagich ikkita 3-lyuk-laz bilan jixozlangan, hamda forsunkalar ishini kuzatish uchun 10-ko'rish oynasi ham mavjud.



Kamerali xo'l shrot ushlagich:

- 1-patrubok;
- 2-konussimon taglik;
- 3-lyuk-laz;
- 4-korpus;
- 5-ajratuvchi to'siq;
- 6-qopqoq;

Erituvchi va suv bug'lari shrot zarrachalari bilan quruq shrotushlagichdan keyin xo'l shrotushlagichga uzatiladi va bu erda forsunkalardan issiq suv ( $85\text{-}95^{\circ}\text{S}$ ) purkaladi. SHrot ushlagichda issiq suv ishlatilganligi uchun erituvchi bug'larning kondensasiyasi yuz bermaydi. Suv bilan olib ketilayotgan shrot zarrachalari – shlam uskunaning qaytaruvchi bo'shlig'idan o'tib apparatning konussimon qismida yig'iladi va 1-patrubok orqali shlam bug'latgichlarga yuboriladi. Shrot zarrachalaridan tozalangan benzin bug'lari to'siqni aylanib o'tib, chiqaruvchi patrubokdan keyingi o'rnatilgan kondensatorga yuboriladi. Kamerali shrotushlagichlar odatda quruq shrot ushlagichlar bilan birgalikda oldinma-ketin qo'llaniladi.

**Siklonli ho'l shrotushlagich** (2.50-rasm) ekstraksiya liniyalari tarkibiga tosterlar kiritilgan bo'lsa qo'llaniladi (ND-1250 M, MEZ-350, De-Smet va boshqalar).

Siklonli ho'l shrot ushlagich silindrik shaklda bo'lib 9-korpus va 2-konussimon tagqopqoqdan iborat. Silindrik korpusda shrot changlari bilan ifloslangan erituvchi va suv bug'lari kirishi uchun 3-patrubok o'rnatilgan. Bu truba korpusga urinma yo'sinda o'rnatilgan. Apparatning ichida tozalangan erituvchi va suv bug'lari aralashmasi chiqishi uchun 8-markaziy truba mavjud. Tashqi silindr va markaziy truba orasidagi halqali bo'shliqqa shrot changlari bilan kirib kelgan suv-erituvchi bug'lari 6-forsunkalar orqali issiq suv bilan purkaladi. Har bir forsunkaning to'g'risida ularning ishini kuzatish uchun 7-ko'rish oynasi joylashtirilgan. SHlamli suvlarni chiqarish uchun 10-patrubok ko'zda tutilgan. Bundan tashqari apparatning konussimon

qismida, apparat ichida bosim ko'tarilsa, bug'larni chiqarib yuborish uchun 1-saqlovchi gidravlik zatvor o'rnatilgan.

Markaziy trubaning ustki qismida benzin bug'lari yo'lida 5-forsunkalar o'rnatilgan bo'lib, ular qo'shimcha ravishda erituvchi bug'laridan zarrachalarni issiq suv purkash yo'li bilan ushlab qolishga mo'ljallangan. Shu erda 4-lyuk ham o'rnatilgan bo'lib, nazorat va ta'mirlash ishlari uchun xizmat qiladi.

### 2.50-rasm. Siklonli ho'l shrot ushlagich:


1-gidravlik zatvor;

2-taglik;

3-patrubok;

4-lyuk;

5,6-forsunkalar;



Erituvchi va suv bug'lari aralashmasi shrot zarrachalari bilan tashqi silindr va markaziy truba orasidagi halqali bo'shliqga 3-urinma truba orqali kirib keladi va aylanma harakatga uchraydi. Markazdan qochma kuch ta'siri ostida shrotning qattiq zarrachalari tashqi silindrning devorlariga uriladi va bir vaqtning o'zida issiq suv bilan yuviladi. Hosil bo'lgan shlam apparatning konussimon qismidan 10-patrubok orqali shlambug'latgichlarga tushiriladi. Tozalangan erituvchi - suv bug'lari esa, markaziy truba orqali kondensasiyaga jo'natiladi.


Ba'zi bir ekstraksiya qurilmalarda ho'l shrot ushlagichlarda issiq suv o'rniga isitilgan erituvchi ishlataladi.

**Shlambug'latgich** (2.51-rasm) To'liq payvandlab tayyorlangan uskuna bo'lib, 6-silindrik korpus bilan elliptik 2- va 7-qopqoqlardan tashkil topgan. Apparat ochiq bug' uzatish uchun 20-injektor va yopiq bug' berish uchun 18-zmeevik bilan ta'minlangan. Apparatning ustki qismida erituvchi bug'lari va havo aralashmasi chiqadigan 8-patrubok va 19-qaytaruvchi zont mavjud. Apparatning tagida iflos suvlarni chiqarish uchun 13-patrubok, 12-uchtomonli kran o'rnatilgan.

Bularning yordamida apparatdan chiqayotgan shlamli suv 17-truba orqali 14-varonkaga quyiladi. Bu erdan iflos suvlari sex tashqarisida o'rnatilgan benzin ushlagichlarga yoki tozalash qurilmalariga yuboriladi.

Silindrik korpusning markaziy qismid ikkita 9-lyuk-laz, emulsion va shlamli suvlari kirishi uchun 10-patrubok, 5-sath o'lchagich va issiq suv chiqib ketishi uchun 3-patruboklar mavjud. Zmeevikga bug' kiritish va undan kondensat chiqarish 11- va 4 -patruboklar yordamida bajariladi. 17-trubaning burilish joyida 16-havo patruboki va sovuq suv berish uchun 15-trubkasi o'rnatilgan. Apparat 1-tayanch oyoqlarga o'rnatilgan.

Bug'latgich quyidagiicha ishlaydi. Avval apparat toza suv bilan to'ldiriladi, so'ng 0,3 MPa bosimli bug' zmeevikga uzatiladi va termoregulyator yordamida 90-95°С gacha qizdiriladi va shu harorat avtomatik ravishda ushlab turiladi. So'ng apparatga emulsiyali, shlamli va boshqa oqava suvlari ho'l shrotushlagichdan va sexning boshqa apparatlaridan oqizib tushiriladi. Bug'-havo aralashmasi apparatdan 8-patrubok bilan chiqarilib, erituvchi bug'larini kondensatsiyalash uchun trubkali kondensatorga yo'naltiriladi. Iflos suv va shlam aralashmasi apparatdan 13-patrubok orqali chiqarib yuboriladi va apparatning o'rta qismida qolgan issiq suv 3-patrubok orqali nasos yordamida xo'l shrot ushlagichga betinim uzatib turiladi.



2.51-rasm. Shlam bug'latgich:

1-suyanchiq oyoqlar; 2-taglik; 3-patrubok; 4-patrubok; 5-sath ko'rsatgich; 6-korpus; 7-qopqoq; 8-patrubok; 9-lyuk- laz; 10-patrubok; 11-patrubok; 12-kran; 13-patrubok; 14-voronka; 15-patrubok; 16-

#### Shlam bug'latgichning texnik tavsifi

Xajmi, $m^3$	0,8
--------------	-----

Zmeeviklarning isitish yuzasi, $m^2$	10
--------------------------------------	----

Gabarit o'lchamlari: balandligi x eni, mm	2355x2600
---	-----------

Massasi, kg	700
-------------	-----

## 4-AMALIY MASHG'ULOT

### YOG'-MOY MAHSULOTLARINI QADOQLASHDA CHIQINDI VA YO'QOTISHLARINI HISOBBLASH

Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini va tashqi ko'rinishini, saqlanishini, tashish va savdoga chiqarish sanitark-gigienik sharoitlarini yaxshilash, hamda mahsulotning turi va navi, massasi, istehmol qilish haqida kerakli mahlumotlarni bayon etish uchun ularni zamonaviy materiallardan foydalanib qadoqlash - dolzarb vazifalardan biridir.

Qadoqlashning vazifasi, mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'mol qilishgacha bo'lган davrda miqdori, tarkibi va sifatini, istehmolchilik xossalari o'zgarishidan himoyalash, yahni mahsulotning belgilangan me'yordan chetga chiqishining oldini olishdan iborat. Qadoqlashning bu vazifasi mahsulotni mexanik, fizik, kimyoviy, ob-havo va biologik ta'sirlardan saqlashni nazarda tutadi.

Qadoqlashning xushbichim shakli, chiroyli ko'rinishi nafaqat qadoqlangan mahsulotni, balki uni ishlab chiqaruvchisini va hatto ishlab chiqarayotgan boshqa mahsulotlar uchun ham reklama vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bahzi hollarda qadoqlash chiroyli, xushbichim, takrorlanmas ko'rinishda bo'lishi talab qilinsa, boshqa hollarda oddiy bo'lishi talab qilinadi. Masalan unni chiroyli bezak berilgan idishga qadoqlashning hojati bo'limgan holda, qandolat mahsulotlarini un solinadigan qoplarga qadoqlash hech bir talabga javob bermaydi.

Vazifasiga ko'ra qadoqlash va joylash vositalari ikki guruhga bo'linadi: qattiq va yumshoq. Yumshoq qadoqlash vositalari o'zining shaklini saqlab tura olmaydi, uning tuzilishi qadoqlangan mahsulotning shakliga bog'liq bo'ladi. YUmshoq qadoqlash va joylash vositalari. Ulardan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda paketlar, xaltachalar va xaltalardan foydalaniladi. Bu vositalarni tayyorlash uchun material sifatida qog'oz, sintetik plenka va kombinatsiyalangan materiallar ishlatiladi.

**Paketlar va xaltachalar.** Paketlar va xaltachalarning asosiy afzallikkari - massasi va egallab turgan hajmining kichikligi, past tannarxidir. Bu qadoqlash qoliplari qo'lda ham, mashinalar yordamida ham mahsulotlarni joylash imkonini beradi. Paketlar va xaltachalarga mahlumotlar va reklama matnlarining bosmasi ham yaxshi qabul qilinadi. Sochiluvchan va donador mahsulotlarni qadoqlashda ikkisi ham bir xilda yaroqli hisoblanadi. Paketning xaltachadan farqi shundaki uning yonlari buklanmagan, to'ldirilgan holatda tekis holatda bo'ladi.

**Xaltalar.** Ko'p qatlamli qog'oz xaltalar (2 dan 6 qavatgacha) 1m<sup>2</sup> ning massasi 70-80 g bo'lган natron qog'ozdan tayyorlanadi. Ularning mustahkamligi 25-50 kg gacha mahsulotni joylash imkonini beradi. Qog'oz xaltalar bir yoki bir necha qavat sintetik materialdan, yoki bu materiallarning qog'oz bilan kombinastiyalari bilan almashtirilishi mumkin. Bunday xaltalar namlikka chidamli, ozgina bug' o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi. Qog'oz xalatalar ikki turda ishlab chiqariladi: ochiq va yopiq (klapanli). So'nggisi kukunsimon mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladi. Ochiq xaltalar qiya va buklangan tubli bo'ladi. Bunday xaltalar xaltachalar kabi tikiladi va payvandlanadi. Sunhiy materiallardan tayyorlangan xaltalar asosan namligi yuqori bo'lган mahsulotlarni qadoqlashda yaroqli hisoblanadi.

To'qimachilik sanoatida tabiiy (zig'irpoya-jut-kanop tolalaridan) va sun'iy tolalardan xaltalar tayyorlanadi.

**To'rxalta.** To'rxalta sintetik iplarga mo'ljallangan to'qimachilik kalavasidan tayyorlanadi. To'rxalta mahsulotlarni mexanik ta'sirlardan himoyalay olmaydi. To'rxaltalar ko'pincha meva-sabzavot mahsulotlarini joylash uchun qo'llaniladi.

Qattiq qadoqlash va joylash vositalari. Qattiq qadoqlash vositalarining fazoviy shakli qadoqlangan mahsulotning o'lchami va xossalariiga ta'sir ko'rsatmaydi. Tashqi mexanik ta'sirlarda qattiq qadoqlash vositasining shakli juda kam o'zgaradi yoki umuman o'zgarmaydi va shu bilan shikastlanishlarga sezgir bo'lgan mahsulotlarni samarali himoyalaydi.

Qattiq qadoqlash vositalari qog'ozdan, kartondan, sun'iy materiallardan, metall, shisha, yog'och materiallardan tayyorlanishi mumkin.

**Qutilar** (yashiklar). Qadoqlash vositalarining bu turdag'i konstruksiyasiga karton qutilarni misol qilib keltirish mumkin.

Karton qutilar turli konstruksiyalarda va turli ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha tayyorlanadi. Ishlatiladigan materialidan kelib chiqib qutilar ishlov berilmagan va yuzasi silliqlangan bo'lishi mumkin.

Mahsulotlarini qadoqlashga mo'ljallangan yashiklar quruq bo'lishi kerak (yashik materialining namligi 12 % dan oshmasligi kerak). Bu quti va yashiklardan ko'p marta foydalanish mumkin.

**STilindrsimon bankalar.** Bunday bankalarning asosiy shakli bo'lib ichi bo'sh silindr hisoblanadi. STilindrsimon bankalarning afzalliklaridan bo'lib, ularning mustahkamligi va turg'unligi, mahsulotni joylash va berkitishdagi qulayliklari hisoblanadi. Ishlab chiqarish va omborxonalar maydonlaridan foydalanish samaradorligining pastligi, tashish va saqlashga xarajatlarning ko'pligi asosiy kamchiliklaridan hisoblanadi.

**Kombinatsiyalangan materialdan tayyorlangan silindrsimon bankalar.** Bankalar qog'oz, metall va sintetik materiallar kombinatsiyasidan tayyorlanishi mumkin. Ularning doimiy komponenti bo'lib, qog'oz-sunhiy material yoki alyuminiyli folga-qog'oz kombinatsiyasidan iborat o'rma qog'oz hisoblanadi. Bankaning ishlov beriladigan qismi metalldan (oqartirilgan yoki laklangan po'lat yoki alyuminiy varag'i) yoki sintetik materialdan (polietilen, polisterol) tayyorlanishi mumkin. Bunday bankalarning qopqog'i maxsus ko'rinishlarda (masalan purkagich vazifasini bajaruvchi) tayyorlanishi mumkin. Berkitilish usullari xuddi metall bankalarniki singari bo'ladi.

Kombinatsiyalashgan materiallardan tayyorlangan bankalar zinch berkitilishi ularda bug', gaz va hidlardan himoyalanishi kerak bo'lgan pastasimon va suyuq (uglerod ikki oksidigi ega bo'limgan meva sharbatlari, yog'lar, moylar, asal va boshqalar), donali mahsulotlar (masalan kofe) va shuning bilan birga kukunsimon oziq-ovqat mahsulotlarini (kakao, sut kukuni) qadoqlash imkonini beradi. Ko'pgina hollarda bunday bankalar metall bankalarning o'rnida foydalaniladi.

Metall bankalar qalinligi 0,14-0,28 mm bo'lgan po'lat, bahzida esa alyuminiy varaqlaridan tayyorlanishi mumkin. Metall bankalarning tubi va qopqog'i yumaloq shakldagi metall varaqlaridan tayyorlanadi. Qopqog'i alohida tayyorlangan va qistirib qo'yiladigan bankalar kuchli mustahkamlikka va qadoqlash xususiyatiga ega va mos yopiladigan vositalari mavjud bo'lganda kukunlar va suyuqliklarni qadoqlash uchun ham yaroqli bo'lishi mumkin. Bunday qopqog'i qo'zg'aluvchan bankalar kam mustahkamlikka ega bo'ladi va shikastlanishga kamroq sezgir bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda qo'llanishi mumkin. Bu bankalarni to'ldirish va berkitish texnik darajasi turlicha bo'lgan sexlarda oson mexanizatsiyalashtirilishi mumkin.

Alyuminiy bankalar odatda turli qismlardan iborat bo'ladi va turli xil texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan tayyorlanadi.

Qopqog'lari berkitilgan metall bankalar (konserva bankalari) suv, bug' va hidli moddalarning o'tishini oldini olinishi va sterilizatsiyalanishi mumkin. Mahsulot va tashqi muhit bilan ta'sirlanishining oldini olish uchun metall bankalar himoya qoplami bilan qoplanadi. Qoplama qoplash, ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqib, oldindan yoki banka tayyor bo'lgandan so'ng amalga oshiriladi.

Metall bankalar maxsus himoyani talab qiladigan mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladi.

### **1. Qadoqlashda qo'shimcha va yordamchi materiallar**

**Yelim.** Qadoqlash uchun tabiiy va sintetik yelimdan foydalilanadi. Tabiiy yelimlar minerallardan, o'simliklardan va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan bo'lishi mumkin. Sintetik yelimlarni ishlab chiqarish uchun issiqlik ta'sirida yumshaydigan va qotadigan sintetik smolalar va sunhiy moddalardan foydalilanadi.

Tarkibi va konsistensiyasiga ko'ra yelimlar qattiq, suyuq, suvda yoki organik erituvchilarda eriydigan, suvli dispersiya ko'rinishida bo'lishi mumkin.

*O'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlar.* O'simliklardan tayyorlangan yelimlar orasida tarkibida kraxmal mayjud bo'lgan yelimlar katta ahamiyatga ega. Termik ishlov berish natijasida suvga aralashtirilgan bug'doy, makkajo'xori va kartoshka kraxmali kleysterланади, natijada qog'ozlarni yelimlash uchun yaroqli, quruq moddalarining miqdori kam bo'lgan yelim tayyor bo'ladi, ammo yelimlash jarayoni uzoq davom etadi. Kimyoviy moddalar qo'shilganda kraxmalning eruvchanligi ortadi va yelimlash mustahkamligi oshadi. Foydalanishdan oldin bunday yelimni sovuq suvda eritish kerak, xolos.

K r a x m a l d e k s t r i n y e l i m i - modifikatsiyalangan kraxmaldan iborat. U och sariq rangdagi kukun, issiq suvda istalgan nisbatlarda eriydi. Dekstrindan quruq moddalarining miqdori katta bo'lgan va bog'lanish kuchi yuqori bo'lgan yelim tayyorlanadi. Yelimlash tez amalga oshadi va bu yelimdan katta tezlikda ishlovchi qadoqlash mashinalarida foydalanish mumkin. Kraxmal asosida tayyorlangan yelim qutilar va xaltalarni tayyorlash va berkitishda, turli xil qog'ozlarni yelimlash, yorliqlarni yopishtirishda keng qo'llaniladi.

*Hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlar.* Hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlarda oqsillar asos bo'ladi.

Kazein - sutdan kislotalar yordamida cho'ktirish yo'li bilan tayyorlanadi. Kazein oddiy suvda bo'kadi, ammo ishqorli suvda eriydi. Quriganidan so'ng kazein elastik, yaxshi yopishuvchi qatlam hosil qiladi; kazein yelimi asosan qog'oz va pergamentni ishonchli yelimlaydi, u ko'pincha metall bankalar, shisha va chinni idishlarga yorliqlarni yopishtirishda ishlatiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mo'ljallangan qadoqlash vositalarini yelimlashda shuni unutmaslik kerakki, barcha o'simlik va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlar mikroorganizmlar uchun yaxshi oziqaviy muhit hisoblanadi, shuning uchun ularga konservlovchi moddalar qo'shish kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda hayvonlardan tayyorlangan yelimlar hidining yoqimsizligi uchun qo'llanilishi chegaralangan.

*Sintetik yelimlar.* Keyingi yillarda sintetik smolalar asosida tayyorlangan yelimlar keng qo'llanilmoqda. Ularning tez ommaviylashuviga sabab, ular qadoqlash vositalarini yelimlashga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Sintetik yelimlardan polivinilalakat yelimi kengroq tarqalgan. Bu yelim oq rangli elastik plenka hosil qiluvchi tez boshlang'ich yelimlash xossalariga ega. yelimning xossalarini yaxshilash uchun plastifikatorlar va to'ldiruvchilar qo'llaniladi. Sintetik yelimlar qog'oz, karton, viskoza plenkasi, alyuminiyli folga va sintetik materialarni yelimlashga yaroqli hisoblanadi, qutilar va paketlarni tayyorlash va berkitish, yorliqlarni yopishtirishda keng qo'llaniladi. Elimlovchi qatlamning yuqori turg'unligi yelimning turiga bog'liq. Sintetik yelimlarning haroratga bardoshliligi o'rtacha.

Polivinilalakat - kolloidlardan tuzilgan va suvli eritma ko'rinishida qo'llaniladigan yuqori sifatli yelim. Uning yelimlash kuchi tabiiy manbalardan tayyorlangan yelimlarga qaraganda ancha baland. yelimning kamchiligi bo'lib suvga chidamliligining pastligi hisoblanadi.

*Lasteks* sunhiy kauchukning suvdagi dispersiyasidan iborat. U yelimlovchi moddasining elastikligi sababli keng qo'llanilmoqda. Lateks namlanganidan so'ng yelimlovchi xossaga ega bo'ladi lentalar va etiketkalar tayyorlashda ishlatiladi.

Yopishqoq lentalar. Yopishqoq lentalar qadoqlash va joylash vositalirining tarkibiy qismlarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Lentalarning o'zi yelmanuvchi, namlangandan yoki qizdirilgandan so'ng yopishqoq bo'ladi turlari ham mavjud.

*Yopishqoq qog'oz lentalar.* 1 m<sup>2</sup> ning massasi 40-50 yoki 70-90 g bo'lgan natron qog'ozdan tayyorlanadi. Qog'ozning 1 m<sup>2</sup> yuzasiga 20-24 g suyakdan tayyorlangan yelim surkaladi. yelimlash kuchi yelimlovchi qavatning sifati va yelimlash sharoitlariga (masalan nisbiy namlikka) bog'liq bo'ladi.

*O'zi yelmanuvchi yopishqoq lentalar* - bir tomonidan yelimlovchi moddali qavatga, ikkinchi tomonidan ajratuvchi (qoidasiga ko'ra silikon qavati) qavatga ega bo'ladi.

Lentaning yelimlash kuchi deyarli o'zgarmaydi va atrof muhit sharoilariga bog'liq bo'lmaydi. O'zi yelmanuvchi lentaga viskoza, polivinilxlorid yoki poliester plenka va qog'oz material bo'lib xizmat qiladi.

Bog'lagichlar. Qandolat mahsulotlari qadoqlangan qutichalar, paketlar va xaltachalarni bezatish va bog'lash uchun turli materiallar ishlatiladi. Ko'pgina hollarda buldyug va ipak lentalar bog'lagich sifatida qo'llaniladi.

*Buldyug* - tolalarni yelimlab tayyorlangan kambar (ensiz) lenta ko'rinishidagi sariq, qizil va yashil rangli bog'lagichdir. U qandolatchilik korxonalariga g'altakka o'ralgan 1000 yoki 2000 m uzunlikdagi lenta ko'rinishida keltiriladi.

*Ipak tasma* viskoza ipagidan tayyorlanadi va uni eni 12 mm ga teng. Bu bog'lagichning ko'pincha ochiqroq ranglari ishlatiladi.

### **3. Moy va yog'larni barqaror saqlashga ta'sir qiluvchi omillar.**

Yog' va moylarni uzoq vaqt saqlaganda ularning sifati buziladi. Bunday sabablardan biri moylarning kislород bilan reaksiyaga kirishib, organoleptik ko'rsatkichlari va biologik xususiyatlarini yomonlashtiruvchi hidlanish mahsulotlari hosil bo'lishidir. SHuning uchun moylarni sifatli saqlash uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

Moylar saqlanganda gidrolitik va oksidlanish natijasidagi buzilishlari iloji boricha kam bo'lishi kerak. Masalan: rafinatsiyalanmagan, gidratlangan, kungaboqar va soya moyi kislota soni oliv nav uchun 0,5 mg KON va I - nav uchun 1,75 mg KON dan oshmasligi kerak. Rafinatsiyalanmagan gidratlangan va rafinatsiyalangan moylar uchun perekis soni 0,25% dan oshmasligi kerak.

Gidralitik jarayonlarni moy sifatiga ta'sirini kamaytirish uchun moylarni 0, I %dan ko'p bo'limgan namlikda saqlashga qo'yiladi, saqlash nam atmosfera havosi bilan ta'sirlashmagan holda amalga oshiriladi.

Moylarni oksidlanishdan saqlashni muhim omili uni havo kislorodi bilan ta'sirlashishini kamaytirish hisoblanadi, bunga germetik idishlarni qo'llash bilan erishish mumkin. Yana idish shaklini tanlash, yahni havo bilan ta'sirlashish yuzasi eng kichik bo'lishi kerak, inert gazlardan foydalanish (kislorodni haydash uchun va yog' yuzasida himoya qatlam hosil qilish uchun), moylarni deaeratsiya qilish va boshqalar. Lekin shuni e'tiborga olish kerakki, inert gazlarning kislorod bilan hatto 3%li aralashmasi amalda moyni oksidlanishdan himoyalay olmaydi, bir qator hollarda saqlanayotgan moy sifatining buzilishi qayd etilgan.

Harorat oshishi bilan moy komponentlarining kislorod bilan ta'sirlanishining oshishini hisobga olib, moylarni saqlashni imkon boricha past harorat va issiqlikdan yaxshi himoyalangan idishlarda saqlash maqsadga muvofiq.

Metall idishlardan moyga metall katalizatorlari oksidlanib o'tishining oldini olish uchun idish maxsus himoya qatlami bilan qoplangan yoki tegishli metall, masalan, titan quymalaridan tayyorlangan bo'lishi kerak.

Qotib qolgan moy va yog'larni qizdirish hollarida ularni suvslash va joyni qizdirishga yo'l qo'yilmaydi, bu hol mahsulot sifatining keskin pasayishiga olib keladi.

Boshlang hich yog' va moylarning sifatini saqlash uchun ularning eskilari bilan aralashishi maqsadga muvofiq emas, buning uchun haydashda alohida quvur tizimi qo'llanishi kerak.

Moylarning oksidlanishi murakkab jarayon bo'lib, erkin radikallar ishtirokida zanjir mexanizmi bo'yicha ketadi. Erkin radikal  $R^{\bullet}$  oksidlanish jarayonining zanjirini boshlovchi aktiv bir bo'lak hisoblanadi. Molekular kislorod ta'sirida erkin radikal yangi perekis radikali hosil qiladi. U esa boshqa yog' kislotsasi bilan reaksiyaga kirishib, yana dastlabki erkin radikal va oksidlanish reakstiyasining asosiy mahsuloti bo'lgan yog' kislotsasining gidroperekisi hosil bo'ladi. Jarayonga yangi kislorod va yog' kislotalari molekulalari jalg' etilib, zanjirli reakstiya davom etadi. Bu reakstiyaning tezlik konstantasi qo'shbog'lar soni ortishi bilan ortib boradi.

Agar reakstiya muhitida o'zgaruvchan valentli metallar bo'lsa, xususan, ikki valentli temir, yog' kislotalari gidroperekislari parchalanib, yangi erkin radikallar hosil qiladi. Ular esa, o'z navbatida, yangi oksidlanish zanjir reaksiyalarini boshlaydi. Oksidlanish jarayoni yangi fazaga tarmoqlangan zanjirli oksidlanish fazasiga o'tadi. Oksidlanish jarayonini tezlashtiruvchi birikmalar proksidantlar deb ataladi. Oksidlanish jarayonining turg'un ikkilamchi mahsulotlari moyda to'planib, yangi oksidlanish zanjir reaksiyalarining manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, oksidlanish jarayonida karbonil birikmalarining ishtiroki moylarda quyi molekular erkin yog' kislotalarning to'planishiga Olib keladi. YOg' kislotalar gidroperekislarning hosil bo'lish zanjirli jarayoni bilan bir vaqtida erkin radikallarning bir-birlari yoki ingibitorlar molekulalari bilan reaksiyaga kirishib, oksidlanish jarayonining ikkilamchi kam faol mahsulotlari yoki yangi yog' kislota molekulasi bilan reaksiyaga kirishmaydigan radikallar hosil bo'lishi mumkin. Natijada oksidlanish reaksiyasi zanjiri uziladi. Bunday oksidlanish zanjirini uzuvchi moddalarga tabiiy (tokoferollar) va sunhiy antioksidantlar kiradi. Moylarda birlamchi oksidlanish mahsulotlarining (perekislar va gidroperekislar) miqdori perekis soni bilan xarakterlanadi. Oziqa moylari uchun perekis soni 0,02 dan 0,30% oralig'ida bo'lib, 0,5%dan oshmasligi kerak.

Moylardagi ikkilamchi oksidlanish mahsulotlari strukturalarining murakkab va turli bo'lganligi uchun karbonil yoki benznid sonlari bilan tavsiflanadi.

Oziqa kungaboqar moylarida karbonil birikmalar 0,5—12 mg% bo'lib, dezodoratsiyalanmagan kungaboqar moyida esa 5 mg% korich aldegididan oshmasligi kerak.


Oziqa moylarida petroleyn efirida erimaydigan oksidlanish mahsulotlari 0,1—0,5% oralig'ida bo'lib, 1% dan oshmasligi kerak.

Moylarning oksidlanishi ularning organoleptik ko'rsatkichlarining (ta'mi va hidi) o'zgarishiga olib keladi. Saqlangan hid va ta'mi aniq sezilayotgan moylarning yuqorida keltirilgan sifat ko'rsatkichlariga ahamiyat berish kerak.

Ayrim qattiq yog'lar, xususan, konditer yog'lari uchun turli darajada oksidlanganligini ko'rsatuvchi perekis sonining meyorlari belgilangan. Qattiq yog'larning perekis soni 0,025%dan oshiq bo'lmasa, yog' yaxshi saqlangan hisoblanadi. Perekis soni 0,65%dan oshiq bo'lsa, yog' juda taxir bo'ladi.

Oksidlanish reaksiyasining tezlashishi moylarning tarkibi va saqlash sharoitiga bog'liq. Avvalambor yog' kislota tarkibiga bog'liq bo'lib, to'yinmaganlik darajasining oshishi oksidlanish reaksiyasi tezligini oshiradi. Uchta qo'shbog'i bo'lgan yog' kislotali yog'larning oksidlanishiga chidamliligi juda past bo'ladi.

Oksidlanishni boshlab va tezlatib boruvchi moddalar guruhiga moylar tarkibida bo'ladigan gidroperekislar kiradi. Oksidlanishning boshlang'ich davrida gidroperekislar soni kam bo'lganida yog' kislotalarining parchalanishi quyidagi reaksiya bo'yicha boradi:



Gidroperekislar konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, gidroperekislar dimerlarining parchalanishi quyidagicha ketadi:



Yangi moyga 10%gacha oksidlangan moyning qo'shilishi, ya'ni perekis birikmalarining oz miqdori ham moyning saqlash davridagi chidamlilagini sezilarli pasaytiradi.

1-jadval

Moylarning turlari	Temir	Mis
Rafinatsiyalangan kungaboqar	0,5-1,5	0,005-0,1
Rafinatsiyalanmagan paxta	2,7-6,3	0,1-0,2
Rafinatsiyalanmagan soya	0,9-2,5	0,02-0,11

Yuqorida aytib o'tilganidek, metallar ham moylarning oksidlanishini tezlashtiradi. Moylarda metallar moy kislotalari tuzlari shaklida bo'lib, ko'pgina metallar fosforitlar tarkibiga kiradi. Shuning uchun moylar gidratatsiya va rafinatsiyalagandan so'ng ular miqdori 5—10 barobar kamayadi. Moylar uzoq saqlansa, idish (tara) metalining moyga o'tishi kuzatiladi. Moy va yog'larning oksidlanishiga ko'proq mis, temir, marganes ta'sir ko'rsatadi. Moylardagi mis va temirning og'irlik ulushi mg/kg da ifodalanib, 1-jadvalda ko'rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

Yuqorida aytib o'tilganidek, moylar oksidlanishining oldini olish uchun antioksidantlar ham qo'llaniladi. Sun'iy antioksidantlar toksik (zaharli) bo'lganligi sababli ularning miqdori yog' og'irligidan (0,28%dan) oshmasligi kerak.

Shu bilan birga, oksidlanish tezligiga turli qisqa to'lqin uzunligiga ega bo'lgan nurlanishlar (**Y**-radiastiya, ultrabinafsha nurlanish va hokazo) ham ta'sir qiladi. Bunda ham oksidlanish jarayonining rivojlanishida ishtirok etuvchi erkin radikallar hosil bo'ladi. Jigarrang yoki to'q yashil rangli shisha idishda saqlanayotgan moyning saqlanish muddati rangsiz shisha idishda saqlanish muddatidan 1,5—2 marta uzayadi.

## 5-AMALIY MASHG'ULOT


### YOG'-MOY MAXSULOTLARINI QADOQLASHDA USKUNALARINI TANLASH VA HISOBBLASH.

Yog' sifatini saqlash va yog' -moy sanoatida savdo madaniyatini oshirish uchun so'nggi yillarda iste'mol uchun mayda idishlarga qadoqlangan yog' assortimentlari ko'paymoqda. Yog'lar 0,5—2,0 litr hajmli shisha idishlarga va asosan, polimer material — polivinilxloriddan tayyorlangan, polietelen qopqoqli idishlarga qadoqlanmoqda.

Mayda idishlarga qadoqlaydigan zamonaviy liniyalar ishlab chiqaradigan firmalar qatorida <<Krupp-Kauteks» (Germaniya), <<Reno-pak» (SHvetsariya) va Steka» (Fransiya) firmalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yog'larni <<Steka» (Fransiya) firmasining uskunalarida qadoqlash (2. I -rasm). Past bosimli kompressor 1 dan chiqayotgan 0,75 MPa bosimdagи siqilgan havo ressiver 2 orqali yuqori bosimli kompressor 3 ga keladi. U erdan ressiver 4 orqali 3,5 MPa bosim ostida siqilgan havo puflovchi avtomat 5 ga beriladi. PET preformalar 6 korobkada yig'iladi va butilkalar puflash avtomati 5 ga uzatiladi. Bu yerda soatiga 1500 donagacha hajmi 1 litr bo'lgan butilkalar yasaladi va monoblok-butilkaga yog' quyish avtomati 7 ga uzatiladi. Monoblokka bir vaqtning o'zida rafinatsiyalangan yog' kelib tushadi va butilkalar yog' bilan to'ldiriladi. Monoblok butilkalarni chayqash, yog' bilan to'ldirish va tiqinlarni mahkamlash moslamalari bilan jihozlangan. To'ldirilgan va tiqinlari yopilgan PET butilkalar yorliq yopishtiruvchi mashina 8 orqali o'rovchi moslama 9 ga uzatiladi. Bu yerda butilkalar 6 donadan qilib, polietilen plyonkaga o'ralib, paketlar hosil qilinadi.

Paketlar qizdirish tunneli 10 orqali o'tib, 11 qurilmada poddonlarga taxlanadi va folga bilan o'raladi. So'ngra bloklar 14 aravacha 13 yordamida tayyor mahsulot omboriga jo'natiladi. Bo'sh va yog' bilan to'ldirilgan PET butilkalarni uzatish transportyor 12 yordamida amalga oshiriladi. Qadoqlash liniyasining unumdarligi kuniga 40 tonnaga teng.



2.1-rasm. «Steka» firmasining yog'larni PET idishlarga qadoqlash liniyasi

Vazifasiga ko'ra qadoqlash va joylash vositalari ikki guruhgа bo'linadi: qattiq va yumshоq. Yumshоq qadoqlash vositalari o'zining shaklini saqlab tura olmaydi, uning tuzilishi qadoqlangan mahsulotning shakliga bog'liq bo'ladi. Yumshоq qadoqlash va joylash vositalari. Ulardan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda paketlar, xaltachalar va xaltalardan foydalilaniladi. Bu vositalarni tayyorlash uchun material sifatida qog'oz, sintetik plenka va kombinatsiyalangan materiallar ishlataladi.

**Paketlar va xaltachalar.** Paketlar va xaltachalarning asosiy afzalliklari - massasi va egallab turgan hajmining kichikligi, past tannarxidir. Bu qadoqlash qoliplari qo'lda ham, mashinalar yordamida ham mahsulotlarni joylash imkonini beradi. Paketlar va xaltachalarga

mahlumotlar va reklama matnlarining bosmasi ham yaxshi qabul qilinadi. Sochiluvchan va donador mahsulotlarni qadoqlashda ikkisi ham bir xilda yaroqli hisoblanadi. Paketning xaltachadan farqi shundaki uning yonlari buklanmagan, to'ldirilgan holatda tekis holatda bo'ladi.

**Xaltalar.** Ko'p qatlamlili qog'oz xaltalar (2 dan 6 qavatgacha) 1m<sup>2</sup> ning massasi 70-80 g bo'lган natron qog'ozdan tayyorlanadi. Ularning mustahkamligi 25-50 kg gacha mahsulotni joylash imkonini beradi. Qog'oz xaltalar bir yoki bir necha qavat sintetik materialdan, yoki bu materiallarning qog'oz bilan kombinasiyalari bilan almashtirilishi mumkin. Bunday xaltalar namlikka chidamli, ozgina bug' o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi. Qog'oz xalatalar ikki turda ishlab chiqariladi: ochiq va yopiq (klapanli). So'nggisi kukunsimon mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladi. Ochiq xaltalar qiya va buklangan tubli bo'ladi. Bunday xaltalar xaltachalar kabi tikiladi va payvandlanadi. Sunhiy materiallardan tayyorlangan xaltalar asosan namligi yuqori bo'lган mahsulotlarni qadoqlashda yaroqli hisoblanadi.

To'qimachilik sanoatida tabiiy (zig'irpoya-jut-kanop tolalaridan) va sun'iy tolalardan xaltalar tayyorlanadi.

**To'rxalta.** To'rxalta sintetik iplarga mo'ljallangan to'qimachilik kalavasidan tayyorlanadi. To'rxalta mahsulotlarni mexanik ta'sirlardan himoyalay olmaydi. To'rxaltalar ko'pincha meva-sabzavot mahsulotlarini joylash uchun qo'llaniladi.

Qattiq qadoqlash va joylash vositalari. Qattiq qadoqlash vositalarining fazoviy shakli qadoqlangan mahsulotning o'lchami va xossalariiga ta'sir ko'rsatmaydi. Tashqi mexanik ta'sirlarda qattiq qadoqlash vositasining shakli juda kam o'zgaradi yoki umuman o'zgarmaydi va shu bilan shikastlanishlarga sezgir bo'lган mahsulotlarni samarali himoyalaydi.

Qattiq qadoqlash vositalari qog'ozdan, kartondan, sunhiy materiallardan, metall, shisha, yog'och materiallardan tayyorlanishi mumkin.

**Qutilar** (yashiklar). Qadoqlash vositalarining bu turdag'i konstruksiyasiga karton qutilarni misol qilib keltirish mumkin.

Karton qutilar turli konstruksiyalarda va turli ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha tayyorlanadi. Ishlatiladigan materialidan kelib chiqib qutilar ishlov berilmagan va yuzasi silliqlangan bo'lishi mumkin.

Mahsulotlarini qadoqlashga mo'ljallangan yashiklar quruq bo'lishi kerak (yashik materialining namligi 12 % dan oshmasligi kerak). Bu quti va yashiklardan ko'p marta foydalanish mumkin.

**Silindrsimon bankalar.** Bunday bankalarning asosiy shakli bo'lib ichi bo'sh silindr hisoblanadi. Silindrsimon bankalarning afzalliklaridan bo'lib, ularning mustahkamligi va turg'unligi, mahsulotni joylash va berkitishdagi qulayliklari hisoblanadi. Ishlab chiqarish va omborxonalar maydonlaridan foydalanish samaradorligining pastligi, tashish va saqlashga xarajatlarning ko'pligi asosiy kamchiliklaridan hisoblanadi.

**Kombinatsiyalangan materialdan tayyorlangan silindrsimon bankalar.** Bankalar qog'oz, metall va sintetik materiallar kombinatsiyasidan tayyorlanishi mumkin. Ularning doimiy komponenti bo'lib, qog'oz-sunhiy material yoki alyuminiyli folga-qog'oz kombinatsiyasidan iborat o'rama qog'oz hisoblanadi. Bankaning ishlov beriladigan qismi metalldan (oqartirilgan yoki laklangan po'lat yoki alyuminiy varag'i) yoki sintetik materialdan (polietilen, polisterol) tayyorlanishi mumkin. Bunday bankalarning qopqog'i maxsus ko'rinishlarda (masalan purkagich vazifasini bajaruvchi) tayyorlanishi mumkin. Berkitilish usullari xuddi metall bankalarniki singari bo'ladi.

Kombinatsiyalashgan materiallardan tayyorlangan bankalar zinch berkitilishi ularda bug', gaz va hidlardan himoyalanishi kerak bo'lgan pastasimon va suyuq (uglerod ikki oksidigi ega bo'limgan meva sharbatlari, yog'lar, moylar, asal va boshqalar), donali mahsulotlar (masalan kofe) va shuning bilan birga kukunsimon oziq-ovqat mahsulotlarini (kakao, sut kukuni) qadoqlash imkonini beradi. Ko'pgina hollarda bunday bankalar metall bankalarning o'rniда foydalaniladi.

Metall bankalar qalinligi 0,14-0,28 mm bo'lgan po'lat, ba'zida esa alyuminiy varaqlaridan tayyorlanishi mumkin. Metall bankalarning tubi va qopqog'i yumaloq shakldagi metall varaqlaridan tayyorlanadi. Qopqog'i alohida tayyorlangan va qistirib qo'yiladigan bankalar kuchli mustahkamlikka va qadoqlash xususiyatiga ega va mos yopiladigan vositalari mavjud bo'lganda kukunlar va suyuqliklarni qadoqlash uchun ham yaroqli bo'lishi mumkin. Bunday qopqog'i qo'zg'aluvchan bankalar kam mustahkamlikka ega bo'ladi va shikastlanishga kamroq sezgir bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda qo'llanilishi mumkin. Bu bankalarni to'ldirish va berkitish texnik darajasi turlicha bo'lgan sexlarda oson mexanizatsiyalashtirilishi mumkin.

Alyuminiy bankalar odatda turli qismlardan iborat bo'ladi va turli xil texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan tayyorlanadi.

Qopqog'lari berkitilgan metall bankalar (konserva bankalari) suv, bug' va hidli moddalarning o'tishini oldini olinishi va sterilizatsiyalanihi mumkin. Mahsulot va tashqi muhit bilan ta'sirlanishing oldini olish uchun metall bankalar himoya qoplami bilan qoplanadi. Qoplama qoplash, ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqib, oldindan yoki banka tayyor bo'lgandan so'ng amalga oshiriladi.

Metall bankalar maxsus himoyani talab qiladigan mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladi.

## **6-AMALIY MASHG'ULOT YOG'-MOY KORXONALARNING IKKILAMCHI MAXSULOTLARINI QADOQLASHDA USKUNALARНИ TANLASH VA HISOBBLASH**

Kunjara va shrot mahsulotlarini qadoqlash, tamg'lash, tashish va saqlash ishlarini standartlashtirish. Kunjara, shrot, shulxani idishlarga solib qoplash uchun standartlar quyidagi meyrlarni belgilaydi: Shrot, shulxa, kunjara uchun 25; 30; 50; 60: kg; Shulxa, shrot va kunjarani polietilen plynokasidan tayyorlangan paketlarga ham qadoqlash mumkin. shrot, (shulxa,) kunjara solingan paket va xaltalarning umumiy vazni 15-30 kg dan ortiq bo'limgan karton yoki fanera qutilarga qadoqlash mumkin. Paket va xaltachalarga koplangan SHulxa, shrot va kunjarani avtomobil transportida tashish uchun ular uskuna – idishlarga joylashtiriladi. Bundan tashqari shulxa, shrot va kunjarani yangi va ishlatilgan matoli qoplarga (50,70 kg) qoplash mumkin. Idish va qoplarning ustiga tipografik usulda yoki shtamp yordamida markalash tamg'asi bosiladi. Qoplash paytida har qaysi shulxa, shrot va kunjara solingan xaltaning ustiga o'lchami 6 x 9 sm li mustahkam elastik kartondan, xaltabop qog'oz yoki A rusumli qog'ozdan qirkib tayyorlangan markalash yorlig'i tikilgan yoki yopishdirilgan bo'lishi kerak. Yorliqa mahsulotni tavsiflovchi quyidagi mahlumotlar yozilgan bo'lishi kerak: ishlab chiqaruvchi o'mi va qaysi o'rniga qarashliligi; mahsulotning nomi (turi, navi, birinchi nav uni vitaminlashtirilgan bo'lsa, yirik shrift bilan ajratilib ko'rsatiladi); vazni (kg); ishlab chiqarish sanasi (yil, oy, chislo, smena nomeri); mahsulotga qo'yilgan standart belgisi. Standartga muvofiq har qaysi tur mahsulot idishning ustiga oziq-ovqat va energiyaviy qimmati: 100 gr mahsulotdagi oqsil, yog' va uglevod miqdorlari ko'rsatilladi. Mavjud standartlarga muvofiq Shulxa, shrot va kunjarani

yopiq transport vositalarida shu transport turlarida mahsulot tashish qoidalariga muvofiq ravishda, shuningdek universal konteyner va paketlarda tashiladi. Shulxa, shrot va kunjarani temir yo'l transportida tashish uchun yopiq vagonlardan foydalaniladi. Mahsulot xavo transportida tashilishi uchun ular albatta konteyner yoki yashiklarga joylashtirilgan bo'lisi shart.

*A l y u m i n i y l i f o l g a*. Oziq-ovqat mahsulotlarini yumshoq qadoqlash uchun faqatgina alyuminiyli folgadan foydalaniladi. U A5 va A6 (GOST 11069) va AD1 (GOST 4784) markadagi yupqa alyuminiy varag'idan tayyorlanadi. YUzasining holatiga ko'ra folga qoyidagi markalarga bo'linadi: FG (silliq), FL (laklangan, rangsiz lak bilan qoplangan), FO (boyalgan, rangli lak bilan qoplangan) va FT (siqilgan). Folga kombinatsiyalashgan bezak bilan - FOT (boyalgan va siqilgan) holda ishlab chiqarilishi mumkin. Folganing yuzasini qoplash uchun faqatgina Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsat etilgan lak va boyoqdan foydalanish mumkin. Yumshoq qadoqlash uchun toblanganidan so'ng kuydirilib tayyorlanadigan yumshoq, toza, sog'liqqa ta'siri bo'lмаган alyuminiyli folgadan foydalaniladi. Alyuminiyli folga yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik xossasiga ega, yorug'likdan saqlaydi va issiqlik nurlanishing mahlum qismini ushlab qoladi. Nazariy tomondan olib qaraganda folga suv, suv bug'i, yog', moy, gaz va aromatik moddalarning o'tishidan ishonchli himoya vositasi hisoblanadi. Ammo yupqa folgani ishlab chiqarish jarayonida mahlum bir g'ovaklik hosil bo'ladi va yuqorida nomlangan moddalar shu g'ovakliklardan o'tishi mumkin. Qalinligi 0,015-0,030 mm bo'lgan folga butunlay g'ovaksiz hisoblanadi.

Alyuminiyning o'ziga xos tomoni shundaki, u kislorodga nisbatan o'ta ta'sirchan bo'lgani holda oddiy iqlim ta'sirlariga chidamli hisoblanadi. Bu shu bilan tushuntiriladi, alyuminiyning yuzasida tezda bir tekis yupqa oksid qavati hosil bo'lib, bu qavat alyuminiyni bundan keyingi oksidlanishdan himoyalaydi. Alyuminiyli folganing ijobjiy xossalari - yumshoqligi, egiluvchanligi, elastikligi va yozuv va rasmlarni yaxshi qabul qilishidir.

Mexanik mustahkamligining pastligi uchun alyumin folga qadoqlash maqsadlarida kombinatsiyalashgan holda qo'llaniladi. Mahlum bir kombinatsiyada alyuminiyni termik payvandlash imkoniyati tug'iladi. Chuqur so'rish orqali yarim qattiq va qattiq qadoqlovchi konstruksiylar (masalan likobchalar, bankachalar) tayyorlanadi. Alyuminiyning qadoqlangan mahsulotga zararli ta'sirlanishing oldini olish uchun folga sunhiy materiallar (masalan polipropilen) bilan kombinatsiyalanadi.

Boshqa metallar ruxlangan va laklangan po'lat varaqlar ko'rinishida konserva sanoatida banka va idishlarni tayyorlash uchun qo'llaniladi.

Materiallardan tayyorlangan bankalar zich berkitilishi ularda bug', gaz va hidlardan himoyalanishi kerak bo'lган pastasimon va suyuq (uglerod ikki oksidigi ega bo'lмаган meva sharbatlari, yog'lar, moylar, asal va boshqalar), donali mahsulotlar (masalan kofe) va shuning bilan birga kukunsimon oziq-ovqat mahsulotlarini (kakao, sut kukuni) qadoqlash imkonini beradi. Ko'pgina hollarda bunday bankalar metall bankalarning o'rnida foydalaniladi.

Metall bankalar qalinligi 0,14-0,28 mm bo'lgan po'lat, bahzida esa alyuminiy varaqlaridan tayyorlanishi mumkin. Metall bankalarning tubi va qopqog'i yumaloq shakldagi metall varaqlaridan tayyorlanadi. Qopqog'i alohida tayyorlangan va qistirib qoyiladigan bankalar kuchli mustahkamlikka va qadoqlash xususiyatiga ega va mos yopiladigan vositalari mavjud bo'lganda kukunlar va suyuqliklarni qadoqlash uchun ham yaroqli bo'lisi mumkin. Bunday qopqog'i qo'zg'aluvchan bankalar kam mustahkamlikka ega bo'ladi va shikastlanishga kamroq sezgir bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda qo'llanilishi mumkin. Bu bankalarni

to'ldirish va berkitish texnik darajasi turlicha bo'lган sexlarda oson mexanizatsiyalashtirilishi mumkin.

Alyuminiy bankalar odatda turli qismlardan iborat bo'ladi va turli xil texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan tayyorlanadi. Qopqog'lari berkitilgan metall bankalar (konserva bankalari) suv, bug' va hidli moddalarining o'tishini oldini olinishi va sterilizatsiyalanishi mumkin. Mahsulot va tashqi muhit bilan ta'sirlanishining oldini olish uchun metall bankalar himoya qoplami bilan qoplanadi. Qoplama qoplash, ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqib, oldindan yoki banka tayyor bo'lgandan so'ng amalga oshiriladi.

Metall bankalar maxsus himoyani talab qiladigan mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladi.

## **7-AMALIY MASHG'ULOT YORDAMCHI MATERIALLAR HISOBI**

### **1. Qadoqlashda qo'shimcha va yordamchi materiallar**

**Yelim.** Qadoqlash uchun tabiiy va sintetik yelimdan foydalaniladi. Tabiiy yelimlar minerallardan, o'simliklardan va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan bo'lishi mumkin. Sintetik yelimlarni ishlab chiqarish uchun issiqlik ta'sirida yumshaydigan va qotadigan sintetik smolalar va sunhiy moddalardan foydalaniladi.

Tarkibi va konsistensiyasiga ko'ra yelimlar qattiq, suyuq, suvda yoki organik erituvchilarda eriydigan, suvli dispersiya ko'rinishida bo'lishi mumkin.

*O'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlar.* O'simliklardan tayyorlangan yelimlar orasida tarkibida kraxmal mavjud bo'lган yelimlar katta ahamiyatga ega. Termik ishlov berish natijasida suvga aralashtirilgan bug'doy, makkajuxori va kartoshka kraxmali kleysterlanadi, natijada qog'ozlarni yelimlash uchun yaroqli, quruq moddalarining miqdori kam bo'lган yelim tayyor bo'ladi, ammo yelimlash jarayoni uzoq davom etadi. Kimyoviy moddalar qo'shilganda kraxmalning eruvchanligi ortadi va yelimlash mustahkamligi oshadi. Foydalanishdan oldin bunday yelimni sovuq suvda eritish kerak, xolos.

K r a x m a l d e k s t r i n g e l i m i - modifikatsiyalangan kraxmaldan iborat. U och sariq rangdagi kukun, issiq suvda istalgan nisbatlarda eriydi. Dekstrindan quruq moddalarining miqdori katta bo'lган va bog'lanish kuchi yuqori bo'lган yelim tayyorlanadi. Yelimlash tez amalga oshadi va bu yelimdan katta tezlikda ishlovchi qadoqlash mashinalarida foydalanish mumkin. Kraxmal asosida tayyorlangan yelim qutilar va xaltalarni tayyorlash va berkitishda, turli xil qog'ozlarni yelimlash, yorliqlarni yopishtirishda keng qo'llaniladi.

*Hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlar.* Hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlarda oqsillar asos bo'ladi.

Kazein - suttan kislotalar yordamida cho'ktirish yo'li bilan tayyorlanadi. Kazein oddiy suvda bo'kadi, ammo ishqorli suvda eriydi. Quriganidan so'ng kazein elastik, yaxshi yopishuvchi qatlam hosil qiladi; kazein yelimi asosan qog'oz va pergamentni ishonchli yelimlaydi, u ko'pincha metall bankalar, shisha va chinni idishlarga yorliqlarni yopishtirishda ishlatiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mo'ljallangan qadoqlash vositalarini yelimlashda shuni unutmaslik kerakki, barcha o'simlik va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan yelimlar mikroorganizmlar uchun yaxshi oziqaviy muhit hisoblanadi, shuning uchun ularga konservlovchi moddalar qo'shish kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda hayvonlardan tayyorlangan yelimlar hidining yoqimsizligi uchun qo'llanilishi chegaralangan.

*Sintetik yelimlar.* Keyingi yillarda sintetik smolalar asosida tayyorlangan yelimlar keng qo'llanilmoqda. Ularning tez ommaviylashuviga sabab, ular qadoqlash vositalarini yelimlashga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Sintetik yelimlardan polivinilalik - yelimi kengroq tarqalgan. Bu yelim oq rangli elastik plenka hosil qiluvchi tez boshlang'ich yelimlash xossalariga ega. yelimning xossalarini yaxshilash uchun plastifikatorlar va to'ldiruvchilar qo'llaniladi. Sintetik yelimlar qog'oz, karton, viskoza plenkasi, alyuminiyli folga va sintetik materiallarni yelimlashga yaroqli hisoblanadi, qutilar va paketlarni tayyorlash va berkitish, yorliqlarni yopishtirishda keng qo'llaniladi. Elimlovchi qatlamning yuqori turg'unligi yelimning turiga bog'liq. Sintetik yelimlarning haroratga bardoshliligi o'rtacha.

Polvinalik - kolloidlardan tuzilgan va suvli eritma ko'rinishida qo'llaniladigan yuqori sifatli yelim. Uning yelimlash kuchi tabiiy manbalardan tayyorlangan yelimlarga qaraganda ancha baland. yelimning kamchiligi bo'lib suvga chidamliliginig pastligi hisoblanadi.

*Lateks* sunhiy kauchukning suvdagi dispersiyasidan iborat. U yelimlovchi moddasining elastikligi sababli keng qo'llanilmoqda. Lateks namlanganidan so'ng yelimlovchi xossaga ega bo'ladi lentalar va etiketkalar tayyorlashda ishlatiladi.

Yopishqoq lentalar. Yopishqoq lentalar qadoqlash va joylash vositalirining tarkibiy qismlarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Lentalarning o'zi yelimlanuvchi, namlangandan yoki qizdirilgandan so'ng yopishqoq bo'ladi turlari ham mavjud.

*Yopishqoq qog'oz lentalar.* 1 m<sup>2</sup> ning massasi 40-50 yoki 70-90 g bo'lgan natron qog'ozdan tayyorlanadi. Qog'ozning 1 m<sup>2</sup> yuzasiga 20-24 g suyakdan tayyorlangan yelim surkaladi. yelimlash kuchi yelimlovchi qavatning sifati va yelimlash sharoitlariga (masalan nisbiy namlikka) bog'liq bo'ladi.

*O'zi yelimlanuvchi yopishqoq lentalar* - bir tomonidan yelimlovchi moddali qavatga, ikkinchi tomonidan ajratuvchi (qoidasiga ko'ra silikon qavati) qavatga ega bo'ladi.

Lentaning yelimlash kuchi deyarli o'zgarmaydi va atrof muhit sharoitariga bog'liq bo'lmaydi. O'zi yelimlanuvchi lentaga viskoza, polivinilxlorid yoki poliester plenka va qog'oz material bo'lib xizmat qiladi.

Bog'lagichlar. Qandolat mahsulotlari qadoqlangan qutichalar, paketlar va xaltachalarni bezatish va bog'lash uchun turli materiallar ishlatiladi. Ko'pgina hollarda buldyug va ipak lentalar bog'lagich sifatida qo'llaniladi.

*Buldyug* - tolalarni yelimlab tayyorlangan kambar (ensiz) lenta ko'rinishidagi sariq, qizil va yashil rangli bog'lagichdir. U qandolatchilik korxonalariga g'altakka o'ralgan 1000 yoki 2000 m uzunlikdagi lenta ko'rinishida keltiriladi.

*Ipak tasma* viskoza ipagidan tayyorlanadi va uni eni 12 mm ga teng. Bu bog'lagichning ko'pincha ochiqroq ranglari ishlatiladi.

## **ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Gordon L. Robertson.Food Packaging: Principles and Practice; 3 edition. CRC Press-USA,2012,686 pages.
2. Qodirov Y.,Ro'ziboyev A. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. Darslik.-T.: Fan va texnologiya.-2014.-320b
3. Y.Qodirov, D.Ravshanov, A.Rizaboev "O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi". Darslik. "Cho'lpon", Toshkent, 2014, - 320 b

### **Qo'shimcha adabiyotlar.**

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga duramiz, Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil. 488 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi.48 b.t."O'zbekiston", 2017yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz..56 b.t."O'zbekiston", 2016 yil.
7. Rukovostvo po texnologi polucheniya I pererabotki rastitelnix masel I jirov./Ped. Redaksiya. A.G. Sergeyeva L. Uchebnoye posobiye.: VNIJ tom 1-5,-1973,1985,1977
8. Zayseva L.V., Nachayev A.P. "Jiri I masla: sovremennix podxodi k modernizatsi traditsionníx texnologiy" Uchebnoye posobiye.-M.: DeLi plus,-2013-152s
9. Nachayev A.P, Kochatkova A.A,idr. "Mayonezi" Uchebnoye posibie. Sank-Peterburg.:-2000.s.74.
10. Aratyunyan. N.S., Kornena E.P.,Nesterova E.A. "Rafinatsiya masel I jirov". Uchebnoye posibiye. Sank-Peterburg. GIORD.-2004.-288s.
11. Qodirov Y. "Yog'larni qayta ishlash texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari". O'quv qo'llanma. T.: Cho'lpon,-2005,-168b.

### **Internet saytlari**

- 12. [www.jmcatalysts.com](http://www.jmcatalysts.com)**
- 13. [www.viniti.ru](http://www.viniti.ru)**
- 14. [www.bASF-catalysts.com](http://www.bASF-catalysts.com)**
- 15. [www.oilworld.ru](http://www.oilworld.ru)**
- 16. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)**

# **MUSTAQIL TA’LIM MASHG’ULOTLARI**

#### **4. Mustaqil ta’lim**

**3-jadval**

<b>T/r</b>	<b>Mustaqil ta’lim mavzulari</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
<b>8-semestr</b>		
1	Moylarni saqlashda sodir bo’ladigan kimyoviy o’zgarishlar	4
2	Yog’ va moylarning anizidin soni.	4
3	Yog’ va moylarning perekis soni	4
4	Yog’ va moylarning termik parchalanishi	4
5	Shrotni saqlashda namlikning roli	4
6	Margarin saqlash omborlari	4
7	Mayonez saqlash omborlari	4
8	Moylarni shisha idishlarda saqlashning o’ziga xosligi	4
9	Suyuqsovunlarni qadoqlash	4
10	Atirsovunlarni qadoqlash	4
<b>Jami</b>		<b>40 soat</b>

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish tizimli tarzda, yahni uzlucksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o’zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko’rishi kerak.

# GLOSSARY

## VII. GLOSSARIY

<b>1</b>	<b>Texnologik sxema</b>	bu biror bir xom-ashyoa ishlov berish, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan jaryonlarning birin-ketinlik bilan amalga oshirilishining mashina uskunalarini ko'rsatgan holatidagi tasviri
<b>2</b>	<b>Texnologik jarayon</b>	bir joyda, bir vaqt oraliida ishlov berilayotgan xom ashyyoga ko'rsatilayoan tasiri.
<b>3</b>	<b>Texnologik liniyaning unumdorligi</b>	vaqt birligida (bir soatda, bir smenada yoki bir sutkada) ishlab chiqarilgan mahsulotning maksimal miqdori
<b>4</b>	<b>Texnologik rejim</b>	bu texnologik jarayonning holatini son qiymatlari (harorat, namlik, bosim va boshqalar) orqali ifodalash
<b>5</b>	<b>Texnologik jarayonni strukturaviy sxemasi</b>	bu biror bir texnologik jarayonni yoki biror bir mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik jaryonlarni nomini birin ketinlik bilan yozib chiqish
<b>6</b>	<b>Xom ashyo balansi</b>	biror bir mahsulot ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar vaqtida mahsulotni miqdorini o'zgarishi (mahsulotni chiqitga chiqishi, yuqotishlari)
<b>7</b>	<b>To'kiluvchanlik</b>	Moyli urug'larning tukiluvchanligi ularning tabiiy kiyalik burchagi qiymatiga bog'lik. Tukiluvchan moddalarning tabiiy qiyalik burchagi ularning gorizontal tekislikka nisbatan mahsulotning sirt yuzasi o'rtaida hosil qilingan burchagiga aytildi
<b>8</b>	<b>O'z-o'zidan xillarga ajralish</b>	Bu xususiyat urug'larning o'lchami va zichligiga qarab turli xillarga ajralib qolishiga sabab bo'ladi. Urug'larni saqlash va qayta ishlashda bu xodisa aks ta'sir etadi. Chunki ko'p xollarda xillarga ajratib kolgan mahsulotning laboratoriya analizlari bir xil ko'rsatgichlar buyicha turlicha qiyamatga ega bo'ladi. Masalan, bir urug' uyumi uchun xar xil namlik, xar xil moylilik, turli zichliliklar chiqadi. Shu tufayli xom shyoning ushbu xususiyatni e'tiborga olib, laboratoriya namunalarini olayotgan paytda imkon boricha mahsulotning hamma yuzasidan, turli chukurlikdan namuna olinish muxim bo'ladi
<b>9</b>	<b>G'ovaklik</b>	Xomashyoning g'ovakligi deb mahsulot zarrachalari orasidagi havo hajmining shu mahsulotning umumiy hajmiga nisbatiga aytildi. G'ovaklik mahsulotning namligi, zarrachalarning shakli va o'lchamlari, ularning sirt tuzilishi va bundan kelib chiqadigan ishkalanish va boshqa

		faktorlarga boglik. Shuning uchun ko'pchilik moyli urug'lar uchun g'ovaklik keng ko'lamda o'zgarib turadi. Masalan, kanop urug'i uchun g'ovaklik 35-45%, kungaboqar uchun esa 60-80% gacha etishi mumkin.
<b>10</b>	<b>Urug' massasining zichligi</b>	Kattiq zarrachalar xajmining urug' massasining umumiy xajmiga nisbati urug' massasining zichligi deyiladi
<b>11</b>	<b>Sorbstion sig'im</b>	Tukiluvchan moddalarning sorbstion xususiyatlari ularning sorbstion sig'imi bilan belgilanadi. Sorbstion hajm deb urug' massasining atrof muhitidan gaz yoki bug' xolidagi moddani qancha miqdorda sorbstiyalash va desorbstiyalash kobiliyatiga aytildi
<b>12</b>	<b>Quruq xolda saqlash</b>	Moyli urug'larni bu holda saqlash juda keng tarqalgan bo'lib eng arzon va oson usuldir. Ma'lumki, quruq xolda saqlanayotgan xom ashyo namligi kritik namlikdan imkoniyat boricha past bo'lishi lozim.
<b>13</b>	<b>Sovitilgan holatda saeqlash</b>	Moyli urug'larning kam issiqlik va harorat o'tkazuvchanligini hisobga olib, ularni saqlashdan oldin bir marotaba sovitib olinsa, bu holat o'zoq muddat saqlanib turishi mumkin. Albatta, sovitilgan xom ashyo tarkibida barcha aks ta'sir etuvchi jarayonlar sust ketadi, lekin bu usulda saqlash uchun omborxonalar deyarlik germetik bo'lishi va maxsus sovutish moslamalari bilan jixozlangan bo'lishi lozim
<b>14</b>	<b>Havosiz joyda saqlash</b>	Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlardan ma'lumki xom ashyo havosiz joyda saqlansa unda faqatgina anaerob nafas olish jarayoni bo'ladi. Bu esa o'z yo'lida xom ashyonи nisbatan o'zoqroq vaqt saqlash imkonini beradi
<b>15</b>	<b>Konop, indov</b>	bu urug'lar o'lchamlari mayda bo'lishiga qaramasdan namligi 8% gacha bo'lganda to'kish yo'li bilan saqlash mumkin. Namligi yuqori bo'lganda o'zoq saqlamasdan qayta ishlash lozim.
<b>16</b>	<b>Shnekli presslar</b>	Yo-moy sanoatda mezgadan moy ikki bosqichda dastlabki va oxirgi ajratib olinmoqda. Mezgadan presslash usulida dastlabki moyni ajratish, xom ashyo tarkibidagi moyni oxirigacha ekstraktsiyalash usulida yoki moyni oxirigacha ajratishda ekspeller presslari qullanilganda oldin amalga oshiriladi
<b>17</b>	<b>Alifatik uglevodorodlar</b>	Benzin-erituvchi, o'simlik moylari ishlab-chikarishda keng qullaniladi. Moy ekstraktsiya sanoatida ishlatiladigan benzin neftni krekinglab olingan mahsulot bo'lib, u arzon, moylar yaxshi eriydi va qurilmalarga nisbatan neytral. Benzin suvda erimaydi. Tez portlovchi benzin bularining past kontsentratsiyasi 1,2%, yuqori

		kontsentratsiyasi 7%. Benzin buglari havodan 2,7 marotiba oir, shu sababdan ham ular polda va burchaklarda to'planadi
<b>18</b>	Aromatik uglevodorodlar	Benzol molekulyar massasi 78,12 va qaynash harorati 80,20 °C bo'lgan suyuqlik. O'z-o'zidan alangalanish harorati 580 °C
<b>19</b>	Diffuziya jarayoni	Qattiq ovaksimon material tarkibidan ekstraktsiya usulida moy olish diffuziyalash jarayoni bo'lib, bunda molekulyar va konvektiv diffuziyalar ro'y beradi
<b>20</b>	Misstellaning distillyastiyasi	Ma'lumki, misstella o'z tarkibida konstantrasiyasiga qarab bir muncha miqdor moy va qolgan qismi benzindan iboratdir. Shu misstella tarkibidan benzinni uchirib yuborib benzinsiz moy olish jarayonini distillyastiya deb ataymiz

**yog'-moy mahsulotlari** — o'simlik moylari yoki o'simlik moylari hamda hayvon moylari va yog'lari asosida (dengiz sut emizuvchilari va baliq moylarini hisobga olganda) ozuqaviy qo'shimchalar va boshqa ingrediyentlar, suv qo'shib yoki qo'shmasdan olingen o'simlik moylari va mahsulotlar;

**ozuqaviy yog'-moy mahsulotlari** — taom tayyorlashda iste'mol uchun yoki oziq-ovqat sanoatining turli tarmog'ida qo'llaniladigan yog'-moy mahsulotlari.

3.2. Ozuqaviy yog'-moy mahsulotlari ta'riflari:

**moyli xomashyo** — moyli o'simliklarning urug'lari va mevasi, o'simliklar turlarining moyli qismlari;

**o'simlik moyi fraksiyasi** — birlamchi o'simlik moyi va uning fraksiyalari erish haroratidan farqli erish haroratiga ega bo'lgan, o'simlik moyi fraksiyalarining yoki o'simlik moyini fraksiyalash jarayonida ajratib olingen yog' kislotasi glitseridlarining aralashmasi;

**o'simlik moyi** — moyli xomashyodan ajratib olingen, yog' miqdori 99 foizdan kam bo'lмаган yog' kislotalarining glitseridlari va ularga yondosh moddalarning aralashmasi;

**rafinatsiyalanmagan o'simlik moyi** — yirik va mayda qattiq zarrachalardan tozalangan, lekin to'liq rafinatsiyalash jarayonlaridan yoki bu jarayonlarning ba'zilaridan o'tmagan moy;

**rafinatsiyalanmagan paxta moyi** — yirik va mayda qattiq zarrachalardan tozalangan, keyinchalik rafinatsiyalangan paxta moyi olish maqsadida faqat qayta ishslash (rafinatsiyalash, dezodoratsiyalash)ga mo'ljallangan oraliq mahsulot;

**muzlatilgan o'simlik moyi** — quyqalardan tozalangan va past haroratda mumli moddalarni ajratish jarayonidan o'tgan o'simlik moyi;

**gidratatsiyalangan o'simlik moyi** — tarkibidagi fosforli moddalardan tozalangan o'simlik moyi;

**rafinatsiyalangan o'simlik moyi** — rafinatsiyalashning to'liq yoki to'liq bo'lмаган tozalash jarayonlaridan o'tgan o'simlik moyi;

**dezodoratsiyalangan rafinatsiyalangan o'simlik moyi** — dezodoratsiyalash jarayonidan o'tgan rafinatsiyalangan o'simlik moyi;

**aralash o'simlik moyi** — turli xil nisbatlarda aralashtirilgan o'simlik moylarining aralashmasi;

**xushbo'ylantirilgan o'simlik moyi** — ta'm va hid beruvchi qo'shimchalar qo'shilgan o'simlik moyi;

**tabiiy o'simlik qo'shimchali o'simlik moyi** — tabiiy o'simliklar ekstraktlari qo'shilgan o'simlik moylari;

**modifikatsiyalangan o'simlik moylari** — modifikatsiyalash (genetik jihatdan modifikatsiyalashdan tashqari) jarayonlaridan biri gidrogenizatsiyalash, pereeterifikatsiyalash, fraksiyalashga uchragan o'simlik moylari;

**(salomas) gidrogenizatsiyalangan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan moy (yog')** — o'simlik moylarini gidrogenizatsiyalab hayvon yog'i, dengiz sutevizuvchilari va baliq moylarini qo'shib yoki qo'shmasdan olingan, rafinatsiyalash va dezodoratsiyalash jarayonidan o'tgan ozuqaviy mahsulotlar uchun xomashyo;

**pereeterifikatsiyalangan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan moy (yog')** — o'simlik moylariga hayvon yog'larini, dengiz sutevizuvchilari va baliq moylarini qo'shib yoki qo'shmasdan pereeterifikatsiyalash va dezodoratsiyalashdan o'tgan ozuqaviy mahsulotlar uchun xomashyo;

**mahsus qo'llanishga mo'ljallangan yog'lar (non, qandolat mahsulotlari, pishiriq uchun yog'lar va boshqalar)** — tarkibidagi yog'ning massa ulushi 98 foizdan kam bo'limgan, turli sanoat tizimlarida qo'llash uchun modifikatsiyalangan va (yoki) modifikatsiyalanmagan o'simlik moylaridan hayvon yog'lar yoki ularning aralashmasini qo'shib yoki qo'shmasdan, shuningdek, ozuqaviy qo'shimcha va ingrediyyentlar qo'shib yoki qo'shmasdan olingan yog'li mahsulot;

**margarin** — tarkibidagi yog'ning massa ulushi 20 foizdan kam bo'limgan, modifikatsiyalangan va (yoki) modifikatsiyalanmagan o'simlik moylaridan hayvon yog'ları yoki ularning aralashmasini qo'shib yoki qo'shmasdan, suv, sut va (yoki) uni qayta ishlab olingan mahsulotlar, shuningdek, ozuqaviy qo'shimcha va ingrediyyentlar qo'shib yoki qo'shmasdan tayyorlangan emulsiyali yuqori dispersli yog'li mahsulot;

**qattiq margarin** — plastik zinch konsistensiyaga ega va 20 +/-2 °S haroratda o'z shaklini saqlab turadigan margarin;

**yumshoq margarin** — 10 +/-2°S haroratda plastik yumshoq konsistensiyaga ega margarin;

**suyuq margarin** — suyuq konsistensiyaga ega suyuq margarining aniq qo'llanish doirasiga ko'ra ma'lum haroratda bir xil emulsiya xususiyatini saqlab qoluvchi margarin;

**sut yog'ining o'rnini bosuvchi mahsulot** — tarkibidagi yog'ning massa ulushi 99 foizdan kam bo'limgan modifikatsiyalangan va (yoki) modifikatsiyalanmagan o'simlik moylaridan, erish harorati 36°S dan ko'p bo'limgan, 36°Sa tarkibidagi qattiq triglitseridlarning massa ulushi 5 foizdan, yog' kislotalari miqdoridagi to'yingan kislotalarning massa ulushi esa 65 foizdan ko'p bo'limgan ozuqaviy qo'shimchalar qo'shib yoki qo'shmasdan olingan mahsulot;

**kakao moyining ekvivalenti** — tarkibidagi yog'ning massa ulushi 99 foizdan kam bo'limgan, kakao moyiga turli nisbatlarda mos keladigan, qayta kristallizatsiyalishi zarur bo'lgan, kakao moyiga xos fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega va yog' kislotsasi tarkibidagi laurin kislotasining massa ulushi 1 foizdan yuqori bo'limgan, 2-oleodi to'yingan triglitseridlarning massa ulushi 50 foizdan kam bo'limgan, modifikatsiyalanmagan o'simlik moylaridan (ellipse, borneo, palma, sal, shi, kokum, mango mag'zi) va ularning fraksiyalaridan ozuqaviy qo'shimchalar va boshqa ozuqaviy ingrediyyentlar qo'shib yoki qo'shmasdan olingan mahsulotlar;

**SOS — turdag'i kakao moyini yaxshilovchilar (SOS mahsulotda 2-oleodistearin mavjudligini ko'rsatadi)** — kakao yog'iga turli nisbatlarda yuqori darajada mos keladigan, qayta kristallizatsiyalishi zarur bo'lgan, asosiy tarkibi 2-oleodistearin (70 foizgacha)dan iborat, yog' kislotsasi tarkibidagi laurin kislotasining massa ulushi 1 foizdan yuqori bo'limgan, modifikatsiyalanmagan o'simlik moylaridan (ellipse, borneo, palma, sal, shi, kokum, mango mag'zi) va ularning fraksiyalaridan ozuqaviy qo'shimchalar va boshqa ozuqaviy ingrediyyentlar qo'shib yoki qo'shmasdan olingan, tarkibidagi yog'ning massa ulushi 99 foizdan kam bo'limgan mahsulotlar;

**POP — turdag'i kakao moyining o'rnini bosuvchilar (POP mahsulotda 2-oleodipalmitin mavjudligini ko'rsatadi)** — kakao moyiga turli nisbatlarda qisman mos keladigan (25 foizdan kam emas), qayta kristallizatsiyalishi zarur bo'lgan, asosiy tarkibi 2-oleodipalmitin (50 foizgacha)dan iborat, yog' kislotsasi tarkibidagi laurin kislotasining massa

ulushi 1 foizdan yuqori bo‘lмаган, модификатсиyalанмаган о‘симлик moyларидан (ellipse, borneo, palma, sal, shi, kokum, mango mag‘zi) va ularning fraksiyalarидан va (yoki) модификатсиyalangan о‘симлик moyларига ozuqавиy qо‘shimchalar va boshqa ozuqавиy ingrediентlar qо‘shib yoki qо‘shmasдан oлинган, tarkibидаги yog‘ning massa ulushi 99 foizdan kam bo‘lмаган mahsulotlar;

**nolaurin turidagi temperirlanmaydigan kakao moyi o‘rnini bosuvchilar** — tarkibida laurin kislotsasining massa ulushi 1 foizdan yuqori bo‘lмаган, temperirlash zarur bo‘lмаган модификатсиyalangan о‘симлик moyлари asosida ozuqавиy qо‘shimchalar va boshqa ozuqавиy ingrediентlar qо‘shib yoki qо‘shmasдан oлинган, tarkibидаги yog‘ning massa ulushi 99 foizdan kam bo‘lмаган mahsulotlar;

**laurin turidagi temperirlanmaydigan kakao moyi o‘rnini bosuvchilar** — tarkibida laurin kislotsasining massa ulushi 40 foizdan kam bo‘lмаган, qayta kristallizatsиyalanishi (temperirlash) zarur bo‘lмаган модификатсиyalangan о‘симлик moyлари asosida ozuqавиy qо‘shimchalar va boshqa ozuqавиy ingrediентlar qо‘shib yoki qо‘shmasдан oлинган, tarkibидаги yog‘ning massa ulushi 99 foizdan kam bo‘lмаган mahsulotlar;

**spred** — umumiy yog‘ning massa ulushi 39 foizdan kam bo‘lмаган, sut yog‘i yoki qaymoq, sariyog‘ va (yoki) модификатсиyalangan va (yoki) модификатсиyalанмаган о‘симлик moyларига ozuqавиy qо‘shimchalar va boshqa ozuqавиy ingrediентlar qо‘shib yoki qо‘shmasдан ishlab chiqilgan, yog‘li fazasining suyuqlanish harorati 36°S dan yuqori bo‘lмаган plastik konsistensiyaga ega bo‘lgan yog‘li emulsiyали mahsulot;

**o‘simlik-sariyog‘li spredlar** — yog‘ fazasining tarkibida sut yog‘ining massa ulushi 15 dan 50 foizgacha bo‘lgan spred;

**o‘simlik-yog‘li spredlar** — yog‘li fazasi tarkibi sut yog‘i qо‘shilgan (15 foizdan kam) yoki qо‘shilmagan modifikatsиyalанмаган va (yoki) modifikatsиyalangan о‘симлик moyдан tashkil topgan spred;

**eritilgan omuxta aralashmalar** — yog‘ning massa ulushi 99 foizdan kam bo‘lмаган sut yog‘i (yoki) qaymoq (yoki) sariyog‘ va (yoki) модификатсиyalangan va (yoki) модifikatsиyalаннмаган о‘симлик moyларини to‘liq erish haroratigacha qizdirilib, aralashtirib oлинган yoki boshqa texnologik usullarni qо‘llash orqali oлинган mahsulot;

**o‘simlik-sariyog‘li eritilgan omuxta aralashmalar** — yog‘ fazasining tarkibida sut yog‘ining massa ulushi 15 dan 50 foizgacha bo‘lgan eritilgan omuxta aralashmalar;

**o‘simlik-yog‘li eritilgan omuxta aralashmalar** — yog‘li fazasi tarkibi sut yog‘i qо‘shilgan (15 foizdan kam) yoki qо‘shilmagan modifikatsиyalанмаган va (yoki) modifikatsиyalangan о‘симлик moyдан tashkil topgan eritilgan omuxta aralashmalar;

**o‘simlik moyлари asosida tayyorlangan krem** — rafinatsиyalangan dezodoratsиyalangan о‘симлик moyларига va (yoki) модifikатсиyalangan о‘симлик moyларига sutli yoki o‘simlik oqsillarini shakar qо‘shgan yoki qо‘shmagan holda, shuningdek, tabiiy ho‘l mevalar, sharbatlar, ozuqавиy qо‘shimchalar, boshqa ozuqавиy ingrediентлардан tayyorlangan, yog‘ miqdori 10 foizdan kam bo‘lмаган mahsulot;

**o‘simlik moyлари asosida tayyorlangan sous** — yog‘ miqdori 5 foizdan kam bo‘lмаган, bir yoki bir qancha hildagi ozuqавиy о‘симлик moyлари va (yoki) модifikатсиyalangan о‘симлик moyларига suv, ozuqавиy qо‘shimchalar va boshqa ozuqавиy ingrediентlar qо‘shib yoki qо‘shmasdan, shuningdek, tabiiy ziravorlar va (yoki) sabzavotlar va (yoki) ho‘l mevalar va (yoki) qо‘ziqorinlar, va (yoki) bo‘lakchalar va (yoki) kukun ko‘rinishidagi yong‘oqlar, kerakli ta’m berishga mo‘ljallangan va turli ovqatlarga ziravor sifatida ishlatiladigan mahsulot;

**mayonez** — rafinatsиyalangan, dezodoratsиyalangan о‘симлик moyлари, suv, tuxum mahsulotlari tuxum sarig‘iga (quruq) qayta hisoblanganda 1 foizdan kam bo‘lмаган miqdorda, qayta ishlangan sut mahsulotlari, ozuqавиy qо‘shimchalar va boshqa ozuqавиy ingrediентларни qо‘shib yoki qо‘shmasdan tayyorlangan quyi dispers bir xil emulsiyalandan mahsulot;

**mayonezli sous** — yog‘ miqdori 15 foizdan kam bo‘lмаган, rafinatsиyalangan dezodoratsиyalangan о‘симлик moyлари, suv, qayta ishlangan sut mahsulotlari, ozuqавиy qо‘shimchalar va boshqa ozuqавиy ingrediентларни qо‘shib yoki qо‘shmasdan tayyorlangan yupqadispersli emulsiyали mahsulot;

**distillangan glitserin** — o'simlik moylarini va (yoki) hayvon yog'larini gidroliz qilish yoki sovunlash orqali olingan va distillatsiyalash jarayonidan o'tgan uch atomli spirt.

3.3. Ozuqaviy bo'lмаган yog'-moy mahsulotlari ta'riflari:

**ozuqaviy bo'lмаган yog'-moy mahsuloti** — texnik va xo'jalik maqsadlari uchun qo'llaniladigan yog'-moy mahsuloti;

**xom tabiiy glitserin** — o'simlik moylarini va (yoki) hayvon yog'larini gidroliz yoki sovunlanish orqali sintez usullarini qo'llamasdan olingan uch atomli spirt;

**xo'jaliksovuni** — tabiiy yog' kislotalarining natriy yoki kaliy tuzlaridan tarkib topgan, iste'mol xususiyatini yaxshilash uchun sintetik, smolali yoki naften yog' kislotalari (yoki ularsiz) va boshqa qo'shimchalar qo'shilgan mahsulot.

3.4. Texnologik jarayonlar va boshqa xil ta'riflari:

**genetik modifikatsiyalangan organizmlar** — nasldan-nasnga irsiy ma'lumotlarni uzatish yoki ishlab chiqarishga layoqatlari bo'lgan, shuningdek, tabiiy organizmlardan farq qiladigan, gen-injenering usullarini qo'llab olingan va gen-injenering ma'lumotlarni saqlaydigan genlar, ularning bo'laklari va genlar kombinatsiyasidan hosil bo'ladigan organizm yoki bir nechta organizmlar, barcha hujayrasiz, bir hujayrali yoki ko'p hujayrali hosilalar;

**rafinatsiyalash** — o'simlik moyi va (yoki) yog'lar, (yoki) hayvon yog'larini va o'simlik moylarini qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni quyidagi tozalash jarayonlari: gidratatsiya, neytrallashtirish, yuvish, quritish, oqlash, filtrash, dezodoratsiyalash yoki moyni va (yoki) yog'ni (yoki) hayvon yog'larini va o'simlik yog'larini qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning qo'llanilishiga ko'ra bu jarayonlarning ba'zilarining majmuasidan iborat;

**gidratatsiya** — o'simlik moylari va (yoki) yog'lar tarkibidagi fosfor tutuvchi moddalarni kimyoviy, mexanik va boshqa yo'llar bilan yo'qotish orqali qayta ishlash;

**dezodoratsiyalash** — o'simlik moylari va (yoki) yog'lardan qizdirilgan bug' bilan vakuum ostida uchuvchi, hid beruvchi va ta'm beruvchi moddalarni yo'qotish;

**distillatsiyalash orqali neytrallashtirish** — erkin yog' kislotalari, hid beruvchi va boshqa uchuvchan moddalarni qizdirilgan bug' bilan vakuum ostida haydash bilan yo'qotishning yuqori haroratlari jarayoni;

**distillatsiyalash** — bug'lanish hamda hosil bo'lgan bug'larni kondensatsiyalash yo'li bilan tozalash jarayoni;

**o'simlik moylari va (yoki) yog'larni modifikatsiyalash (genetik modifikatsiyalashdan tashqari)** — o'simlik moylari va (yoki) yog'larni gidrogenizatsiyalash, pereeterifikatsiyalash, fraksiyalash jarayonlari yoki ularning kombinatsiyalari yordamida kimyoviy, biokimyoviy yoki fizik qayta shakllantirish;

**gidrogenizatsiyalash** — o'simlik moylari tarkibiga kiruvchi glitseridlar yog' kislotalarining to'yinmagan bog'larini vodorod bilan qisman yoki to'liq to'yintirish jarayoni;

**pereeterifikatsiyalash** — yog'larning erish haroratini pasaytirish, ularning plastikligini oshirish va havodagi kislorod bilan oksidlanishga turg'unligini ta'minlash maqsadida triatsilglitseriddagi yog' kislotalari tarkibini o'zgartirmagan holda yog' glitseridlarining atsil guruhlarini qayta taqsimlash jarayoni;

**fraksiyalash** — o'simlik moylarini termomexanik yo'l bilan fraksiyalarga ajratish;

**yuk hujjalari:**

manfaatdor shaxs tomonidan yog'-moy mahsulotlarining iste'molchidan tashqari, avvalgi va keyingi egasini aniqlash imkonini ta'minlaydigan hujjalari;

yog'-moy mahsulotlari muvofiqligi to'g'risidagi deklaratsiya va (yoki) uning nusxasi;

**mahsulotlar (jarayonlar) identifikasiysi** — ozuqaviy mahsulotlar (jarayonlar)ning Texnik reglamentda belgilangan texnik jihatdan tartibga solish obyektlariga tegishlilagini o'rnatish tartibi;

**ishlab chiqarish binolari** — yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish uchun to'g'ridan to'g'ri foydalilaniladigan binolar;

**yog'-moy mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan binolar, texnologik asbob-uskunalar va jihozlarni sanitariya tozalash** — texnologik asbob-uskunalar

va jihozlarni yuvish yoki ishlab chiqarish binolari yuzasini boshqa xil tozalovdan o‘tkazish natijasida ushbu binolar, texnologik uskuna va jihozlar ozuqaviy yog‘-moy mahsulotlari va xomashyoning ifloslanishi manbai bo‘la olmaydi;

**yog‘-moy mahsulotlarini muomalaga chiqarish** — ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi mahsulotni boshqa shaxsga (tashuvchiga, sotuvchiga, iste’molchiga) topshirgan paytdan boshlab uni ishlab chiqarish yakunlangandan keyin mahsulotni ishlab chiqaruvchidan to iste’molchigacha bo‘lgan harakatlarni, barcha jarayonlarni qamrab oladi.

# ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

## **7. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Qodirov Y., Roziboev A. YOg'larni qayta ishlash texnologiyasi. Darslik-T; Fan va texnologiya-2014.-320b.
2. Qodirov Y., Raximov M. YOg'larni qayta ishlash texnologiyasi. Darslik.-T.,Iqtisod-Moliya 2013/-300b
3. Y.Qodirov, D.Ravshanov, A.Ro'ziboev «O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi»Darslik.-CHo'lpon,Tashkent.,-2014.-320b

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Arutyunyan N.S, Arshiev E.A., YAnova L.I. Texnologiya pererabotki jirov.Uchebnik.-M Agropromizdat-1985-367s
2. Rukovodstvo po texnologii polucheniya i pererabotki rastitel'nix masel i jirov. Pod. redakstii. A.G.Sergeeva L. Uchebnoe posobie.: VNIIJ tom2,- 1973,tom 3kn. 1,-1985.kn.2-1977
3. Arutyunyan N.S., Kornena E.P., YAnova A.I. i dr. Texnologiya pererabotki jirov Uchebnik.2-e izd M.pishepromizdat,-1998.-451
4. Vasil'eva G.F. "Dezodarastiya v maslojiroviy promqshlennosti." posobie.- M-2003.-174s
5. Glushenkova A.I., Markman A.A. Gidrogenizasiya jirov. Uchebnoe posobie"
6. Zayseva L.B., Nechaev A.P Jirq i masla. Sovremennqe podxodq k modernizastii tradistionqx texnologii" Uchebnoe posobie.
7. Nechaev A.P., Kochatkova A.A. i dr «Mayonezq» Uchebnoe posobie Sankt-Peterburg.,-2000 s. 74
8. Qodirov Y., YOg'larni qayta ishlash texnologiyasi. Laboratoriya mashg'ulotlari Uquv qo'llanma.T.CHo'lpon,-2005,-168b.
9. Arutyunyan N.S., Korieva E.P., Nesterova E.A. Rafinastiya masel i jirov». Uchebnoe posobie. Sankt –Peterburg. GIORD.-2004.-288s.

### **Internet saytlari**

1. [www.jmcatalalystscom](http://www.jmcatalalysts.com)
- 2.[www.viniti.ru](http://www.viniti.ru)
- 3.[www.bASF-catalysts.com](http://www.bASF-catalysts.com)
- 4.[www.oilworld.ru](http://www.oilworld.ru)
- 5.[www.edi.uz](http://www.edi.uz).

IL VALAR

4742

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO - TEKNOLOGIYA INSTITUTI



Ro'yashen olibdi: № B - 5321000 - 4.04  
2018 yil "18" 08

**YOG'-MOY MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QADOQLASH  
TEXNOLOGIYASI  
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100 000 -	Gumanitar soha
	300 000 -	Ishlab chiqarish - texnik soha
Ta'lif sohasi:	110 000 -	Pedagogika
	320 000 -	Ishlab chiqarish texnologiyalari
Ta'lif yo'nalishi	5 111 000 -	Kasb ta'limi (5321000 - Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha))
	5 321 000 -	Oziq-ovqat texnologiyasi (yog'-moy mahsulotlari)

Toshkent - 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha  
O'quv-uslubiy birlashmalar fuoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil  
"18" 08 dagi "4" - sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qillangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil  
"25" 08 dagi "14" - sonli buyrug'i bilan ma'qillangan tayanch  
oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Toshkent kimyo - texnologiya institutida ishlab chiqildi

Tuzuvchilar:

- Ro'ziboyev A.T. TKTI, "Oziq-evqat maxsulotlari texnologiyasi" kafedrasi  
dosenti, t.f.n.  
Yo'lchiyev A.B. TKTI, "Oziq-evqat maxsulotlari texnologiyasi" kafedrasi  
katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- G'aniyev A. -"O'zpaxtayog" AJ etakchi mutaxassis (*kadrlar iste'molchisi*)  
Tulaboeva S. -"Toshkent yog'-moy kombinati" AJ markaziy  
laboratoriya mudiri (*kadrlar iste'molchisi*)

Fan dasturi Toshkent kimyo-texnologiya instituti Kengashida ko'rib chiqilgan  
va tavsiya qilingan (201 8 yil "25" 06 dagi "5" - sonli bayonnomasi).

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'lindagi o'rni

Yog'-moy sanoatining asosiy vazifasi xalq xo'jaligiga ekologik toza, raqobatbardosh, yuqori sifatlari mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. Shuning uchun barcha texnologik tizim va jarayonlar nazariy asoslarga tuyangan holda olib boriladi. Unda texnologik jarayonlarning optimal sharoitlarini tanlashni, zarur bo'lgan qo'shimcha materiallarni hisoblashni bilish texnologiyani maqsadga yo'naltirilgan ravishda boshqarish imkoniyatini beradi.

"Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi" fani yog'-moy mahsulotlarini saqlash, rafinatsiyalangan yog' va moylar, margarin, mayonez, sovun, yog' kislotalarini qadoqlash va saqlashning nazariy asoslarini va texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Ushbu tavsiya etilayotgan dasturda saqlash va qadoqlash texnologik jarayonlarini va ularning nazariy asoslarini, texnologik rejimlarini taxlil qilish va mahsulotlarning sifatini bosbqarish asoslarini, yog'larni saqlash va qadoqlashda xom ashyo, chiqindi, oraliq va tayyor mahsulotlarning taxlil qilish usullari mantiqiy ketma-ketligi va mazmuni keltirilgan.

"Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi" fani ixtisoslik fanlari blokida VIII semestda o'qitiladi. Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar o'quv rejasida rejalashtirilgan urumukasbiy fanlardan va bundan tashqari "Yog'lar va moyli xom ashyolar kimyosi", "Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi" va "O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi" fanlaridan yetarli bilimga ega bo'lishi kerak.

"Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi" fani magistratura mutaxassisligida o'qitiladigan barcha mutaxassislik funlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - yog'-moy korxonalarida asosiy va ikkilamchi mahsulotlarni saqlash va qadoqlash usullari, texnologiyalari, hamda qadoqlash idishlarining xon ashysiga va materiallari, idishlarning turlari, saqlashda sodir bo'ladigan fizik-kimyoviy jarayonlar va ularni barturaf etish choralarini bilan tanishtirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarni mustaqil fikrlashga, yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi bo'yicha barcha jarayonlarni to'g'ri olib borishni, yog'larni saqlash va qadoqlashda yuzaga keladigan texnologik nuqsonlarni bartaraf etish choralarini, maxsulot balansini to'g'ri yuritish va xisob kitoblarni to'g'ri olib borishni o'rgatishdan iborat.

"Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- moyli urug'larni saqlash va saqlash paytida o'z-o'zidan qizish jarayonining paydo bo'lishi va rivojlanishiga turli faktorlarning ta'siri, rafinasiya jarayonining fizik-kimyoviy mohiyati va sumaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- o'simlik moylari ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarining borish ketma-ketligini, innovasion texnologiyalarni, sifatli yog'-moy mahsulotlari olishda mahsulot va hom ashyolar sifatiga qo'yiladigan talablarni, margarin va moyonez mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini, sovun ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasini bilishi;
- yog'-moy mahsulotlarini saqlash, uning usullari va bosqichlarini, saqlash jarayonining fizik-kimyoviy mohiyati va samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarini, yog'larni qadoqlash usullari va turlarini, qadoqlash idishlari materiallari, ularning turlarini, sarfini, yog'-moy korxonalarining asosiy va ikkilamchi mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- yog'-moy mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **III. Asosiy nazarliy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-Modul. Yog'-moy mahsulotlarini qadoqlash texnologiyalari**

##### **1-mavzu. Fanga kirish. Yog'-moy sanoatining rivojlanish istiqbollari**

Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi fanining rivojlanishi haqida. Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasi to'g'risidagi olimlar fikri.

Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasini xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Yog'larni chiqitsiz ishlatish. Mamlakatda Yog'-moy mahsulotlarini saqlash va qadoqlash texnologiyasining rivojlanish istiqboli.

##### **2-mavzu. Yog'-moy mahsulotlarini qadoqlash texnologiyalari va usullari**

Qadoqlash usullari. Qadoqlangan yog' va moylarga ularning nimaga mo'ljallanganligi va qo'llanilishiga bog'liq holda qo'yiladigan talablar. Ayrim qadoqlash usullarini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan tayyorlov jarayonlari, ularning sinflanishi va maqsadi.

### **3-mavzu. Yog'-moy mahsulotlarini qadoqlash idishlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari**

Qadoqlash idishlari va ularning turlari. Qadoqlash idishlarining kimyoviy tarkibi va asosiy xossalari. Idishlar tarkibiga qo'shiladigan reagentlar va ularning xarakteristikasi. Qadoqlash idishlarining ko'rsatkichlari. Xar bir mahsulot uchun o'ziga xos qadoqlash idishlarini tanlash.

### **4-mavzu. Yog' va moylarni PET idishlarga qadoqlash**

Yog' va moylarni qadoqlashga tayyorlash. PET idishlari, ularning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari. PET idishlarni qadoqlashga tayyorlash va shakl berish. Yog' va moylarni PET idishlarga qadoqlash texnologiyalari. Qadoqlash jarayonida mahsulot sifatining o'zgarishi. PET idishlarning utilizatsiyalash muammolari va yechimlari. Davriy usulda qadoqlash texnologik sxemasi. Uzluksiz usulda qadoqlash texnologik sxemasi.

### **5-mavzu. Yog' va moylarni shisha idishlarga qadoqlash**

Yog' va moylarni shisha idishlarda qadoqlashga tayyorlash. Shisha idishlari, ularning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Shisha idishlarni qadoqlashga tayyorlash. Yog' va moylarni shisha idishlarga qadoqlash texnologiyalari. Qadoqlash jarayonida mahsulot sifatining o'zgarishi. Shisha idishlarning utilizatsiyalash muammolari va yechimlari. Davriy usulda qadoqlash texnologik sxemasi. Uzluksiz usulda qadoqlash texnologik sxemasi.

### **6-mavzu. Yog' va moylarni metal va boshqa materiallardan tayyorlangan idishlarga qadoqlash**

Yog' va moylarni metal, qog'oz va polietilen idishlarda qadoqlashga tayyorlash. Metal, qog'oz va polietilen idishlari, ularning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Metal, qog'oz va polietilen idishlarni qadoqlashga tayyorlash va shakl berish. Yog' va moylarni metal, qog'oz va polietilen idishlarga qadoqlash texnologiyalari. Qadoqlash jarayonida mahsulot sifatining o'zgurishi. Metal, qog'oz va polietilen idishlarning utilizatsiyalash muammolari va yechimlari. Davriy usulda qadoqlash texnologik sxemasi. Uzluksiz usulda qadoqlash texnologik sxemasi.

### **7-mavzu. Margarin va mayonez mahsulotlarini qadoqlash**

Margarin mahsulotlari assortimenti va turlari. Margarin mahsulotlarini monolit qutilarga qadoqlash. Margarin mahsulotlarini kichik o'chamli qutilarga qadoqlash. Margarin mahsulotlarini PET idishlarga qadoqlash. Davriy usulda qadoqlash texnologik sxemasi. Uzluksiz usulda qadoqlash texnologik sxemasi

Mayonez mahsulotlari assortimenti va turlari. Mayonez mahsulotlarini shisha idishlarga qadoqlash. Mayonez mahsulotlarini kichik o'chamli polietilen qutilarga qadoqlash. Mayonez mahsulotlarini PET idishlarga qadoqlash. Davriy usulda qadoqlash texnologik sxemasi. Uzluksiz usulda qadoqlash texnologik sxemasi

Margarin va mayonez mahsulotlarini qadoqlashning texnologik sxema va texnologik rejimlari.

### **8-mavzu. Sovun va yuvuvchi vositalarni qadoqlash**

Sovun turlari. Sovunlarni qadoqlashga tayyorlash jarayonlari. Xo'jalik sovunlarini qadoqlash. Atir sovunlarini o'rash va qadoqlash texnologiyalari. Suyuq va malxamsimon sovunlarni qadoqlash. Sovunlarni qadoqlashning zamonaviy texnologiya va jihozlari. Qadoqlangan sovunlarda sodir bo'ladiyan fizik va kimyoiy jarayonlar.

### **9-mavzu. Yog'-moy korxonalarining ikkilamchi mahsulotlarini qadoqlash**

Yog'-moy korxonalarining ikkilamchi mahsulotlari va ularning turlari. Ikkilamchi mahsulotlarni qadoqlashning o'ziga xosligi va zaruriyati. Shrot va shulxani qadoqlash. Fosfatid konsentratini qadoqlash. Yog' kislotalari va glitscinni qadoqlash.

### **2-Modul. Yog'-moy mahsulotlarini qadoqlash texnologiyalari**

#### **10-mavzu. Yog'-moy mahsulotlarini saqlash usullari va texnologiyalari**

Yog'li xom ashyolarni saqlash usullari va sharoitlarining mahsulot sifatiga ta'siri. Yog'li xom ashyolarni qayta ishlash usullari va sharoitlarining mahsulot sifatiga ta'siri. Yog'-moy mahsulotlarini saqlash usullari. Yog'-moy mahsulotlarini saqlash texnologiyalari va jixozlari.

